

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida

UDK:8-1/-9+350.08

YUSUPOVA MADINAXON EGAMBERDI QIZI

“O‘ZBEK VA JAHON ADABIYOTIDA NAVOIY
OBRAZI

(Omon Muxtor va L.Bat ijodi misolida)

m a v z u s i d a g i

magistrlik akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

G. MUHAMMADJONOVA,
filologiya fanlari nomzodi,dots.

Farg‘ona – 2019 yil

Magistrlik dissertatsiyasi kafedraning 2019 yil
..... – yig‘ilishida muhokama qilingan va himoyaga tavsiya etilgan.

Ilmiy rahbar:

**Go‘zalxon Muhammadjonova,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent**

Taqrizchi:

**Mo‘minjon Sulaymonov,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent**

MUNDARIJA

Kirish.....	3
1- bob. Adabiyotshunoslikda tarixiy shaxs muammosi.....	10
1.1. Tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima.....	10
1.2. Tarixiy shaxs va ijtimoiy muhit.....	24
Bob bo‘yicha qisqa xulosa.....	38
2- bob. Navoiy obrazi talqinida davr va qahramon muammosi.....	39
2.1. Muallif shaxsi va voqelikka munosabat.....	39
2.2. Navoiy obrazi talqinida tip va tipiklashtirish.....	48
Bob bo‘yicha qisqa xulosa.....	59
3- bob. Asar arxitektonikasi va Navoiy obrazi.....	60
3.1.L.Bat ijodida Navoiy siymosi talqinlari.....	60
3.2. O.Muxtor ijodida Navoiy ruhiy olami ifodasi.....	69
Bob bo‘yicha qisqa xulosa.....	76
Umumiy xulosa.....	77
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	79

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining o'rganilish darajasi va dolzarbligi.

Bugungi kun innovatsiyalar jarayonida har bir sohada olib borilayotgan islohotlar adabiyot va san'atga ham o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazmoqda. Xususan, qardosh xalqlar davlatlari orasida o'zaro hamkorlik shartnomalarining tuzilayotganligi ham ta'lim sohasidagi yangiliklardan xabardor bo'lishda katta ahamiyat kasb etadi.

Buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy ko'p asrlardan buyon nafaqat badiiy asarlari, balki ulug' inson, davlat va jamoat arbobi sifatida ham xalqimizning ma'naviy hayotida muhim rol o'ynab kelmoqda. Yurtimizning ko'p asrlik istibdod zanjirlaridan xalos bo'lib, xalqimiz asriy orzusi bo'lgan mustaqillikka erishganidan so'ng ijtimoiy munosabatlarda, shuningdek, kishilar ongi va ma'naviyatida ham ulkan o'zgarishlar ro'y bera boshladi. Zero, Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Xalqning ma'naviyati va madaniyati, uning haqiqiy tarixi va o'ziga xosligi qayta tiklanayotganligi jamiyatimizni yangilash va taraqqiy ettirish yo'lida muvaffaqiyatli ravishda olg'a siljitishda hal qiluvchi, ta'bir joiz bo'lsa, belgilovchi ahamiyatga egadir."¹

Mana necha asrlar o'tdi hamki, ulug' o'zbek shoiri Alisher Navoiy hayoti va ijodini o'rganish, anglash o'zining dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Shoir va uning yashagan davr muhiti haqida ma'lumotlar, ijodkorning o'z asarlarida va o'sha davr yozuvchilarining ijodida kengroq yoritilgan. Bugun ham uning hayot va ijod yo'lini mukammalroq o'rganish har qachongidan ham muhimroqdir. Navoiy hayoti, ilimiy-adabiy merosi bir necha asrlar mobaynida keng o'rganib kelinmoqda. Bunga M.Nikitskiy, B.Bartold, E.Bertels, A.Y.Yakubovskiy, S.Ayniy, O.Sharafiddinov, V.Zohidov, M.Oybek, I.Sultonov, V.Abdullayev, G'.Karimov, H. Orasli, A.Mirzoyev, P.Shamsiyev, H.Sulaymon, A.Hayitmetov, A. Qayumov, N.Mallayev, A.Rustamov, E.Rustamov, B.Abdug'ofurov, S.N.Ivanov, S. G'aniyeva, S. Erkinov, B. Valixo'jayev, Y. Is'hoqov, B. Hasanov, H. Jo'rayev singari yirik sharqshunos va adabiyotshunos olimlar salmoqli hissa qo'shdilar.

¹ Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlool, iqtisodiyot, siyosat, mafkura. –Toshkent. O'zbekiston, 1996. T.1. 39-bet.

Navoiyning hayot yo‘lini yoritish masalasiga bag‘ishlangan asarlar orasida I.Sultonovning “Navoiyning qalb daftari” nomli kitobi, A. Hayitmetov va M.Mirzaahmedovalarning bir qancha qo‘lyozma manbalari, Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro”, Mirxondning “Ravzat us-safo”, Xondamirning “Makorim ul-axloq”, Zayniddin Vosifiyning “Badoe ul-vaqoe”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnnoma” asari muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu o‘rinda Navoiy shaxsiyati jahon adabiyotshunoslari tomonidan bugungi kunda yana ham yaqindan o‘rganilayotganligi diqqatga molikdir. Jumladan, “Berlindagi Humbolt va Fraye universitetida ishlagan sharqshunos olimi Zigrid Kleynmixel “Navoiy benavo”, “Navoiy va Ahmad Posho”, “Alisher Navoiy va usmonli shoirlar”, “Navoiy ijodida Xizr” nomli maqolalar”² i ham buning yaqqol isbotidir. Navoiy hayoti va ijodini ilmiy o‘rganish barobarida badiiy adabiyotda ham Navoiy shaxsining badiiy talqinlari namoyon bo‘la borda. Yozuvchilar o‘z estetik idealini Navoiy misolida aks ettirdi. Shunday asarlardan biri L. Batning “Hayot bo‘stoni” asaridir.

Rus adibasi Lidiya Batning “Hayot bo‘stoni” asari o‘z vaqtida shuhrat qozonganidek, bugungi kunda ham ma‘naviy-ma‘rifiy, adabiy-estetik jihatdan qimmatini yo‘qotmasdan kelmoqda.

Jahon adabiyotining tarkibiy qismi bo‘lgan o‘zbek adabiyoti ham bundan mustasno emas. Akademik yozuvchi Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybekning “Navoiy” romani nafaqat o‘zbek adabiyotida muhim voqea bo‘ldi, balki dunyoning ko‘plab tillariga tarjima qilinib, umumbashariy asar sifatida shuhrat topdi va Davlat mukofoti bilan taqdirlandi. Omon Muxtorning “Navoiy va rassom Abulxayr” roman-dilogiyasi esa Navoiy ruhiy olami va shaxsiga oid masalalarni uning ijodi, g‘azallari orqali ochib berilishi yo‘lidagi noan‘naviy usulning kashf etilishi bilan ahamiyatlidir. Yozuvchi tasavvuridagi Navoiyni rassom Abulxayr obrazi orqali yaratadi. Asar Navoiy haqida emas, uni anglash asosida ruhan-ma‘nan poklanish haqidadir.

²Karimov B. “Yana va yana Navoiy ijodiga qaytaman”//“Jahon adabiyoti”jurnali.2012.12-son.

Mustaqillik mafkurasidan kelib chiqib, Omon Muxtorning “Navoiy va rassom Abulxayr” roman-dilogiyasi, Lidiya Batning “Hayot bo‘stoni” asarlaridagi Alisher Navoiy obrazini qiyosiy o‘rganish orqali buyuk tarixiy shaxs obrazi talqini mavzusini, ulardagi mazkur talqinlarning badiiy-estetik ta’siri masalalarini bugungi kun nuqtai nazaridan tahlil va tadqiq etish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. O‘zbek va jahon adabiyotida Navoiy obrazi talqinini Lidiya Batning “Hayot bo‘stoni” qissasi hamda Omon Muxtorning “Navoiy va rassom Abulxayr”roman-dilogiyasi misolida chuqurroq o‘rganish va asarda keltirilgan Navoiy obrazini qiyosiy o‘rganish orqali tarixiy shaxs xususiyatlarini yoritish, har ikki adibning obraz yaratishdagi o‘ziga xosliklarini ko‘rsatib berish.

Tadqiqot obyekti. Omon Muxtorning “Navoiy va rassom Abulxayr” roman-dilogiyasi va Lidiya Batning “Hayot bo‘stoni” povesti ushbu ilmiy tadqiqotimizning obyekti bo‘lib xizmat qildi.

Tadqiqotning ilmiy-uslubiy asosi. Mazkur tadqiqotga rus va o‘zbek nasri namunalari qiyosan o‘rganilgan tadqiqotlar, xususan, O.Sharafiddinov³, I.Sulton⁴, M.Qo‘shjonov⁵, U.Normatov⁶, A.Rahimov⁷, Y.Solijonov⁸, X.Do‘stmuhammad⁹, I.Haqqul¹⁰, N.Eshonqul¹¹ kabi taniqli adabiyotshunoslarning tajribalari, ilmiy-nazariy xulosalari asos bo‘ldi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tipologik, psixologik, sotsiologik, badiiy-tahliliy, tavsiflash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: Dissertatsiyada badiiy adabiyotdagi Navoiy obrazi talqinlari ilk bor o‘zbek va jahon adabiyoti namunalari misolida monografik

³ Sharafiddinov O. “Ijodni anglash baxti”. –T.: SHarq, 2004.

⁴Sultonov Izzat . Navoiyning qalb daftari. T. 1976.

⁵Qo‘shjonov M. Ilm va ijod olamida. T. 1980.

⁶ Normatov U.Ijodkorning haroratli so‘zi.T.2015.

⁷Rahimov A. Milliy adabiyotlar ravnaqi. – Toshkent: Fan, 1981.

⁸ Solijonov Y.Nutq va uslub.T.2002; Solijonov Y.Haqqatning sinchkov ko‘zlari.T, 2009;

⁹ Do‘stmuhammad X.Ijod-ko‘ngil munavvarligi.T.2011.

¹⁰Haqqulov I. Tasavvuf va she‘riyat.T., 1991.

¹¹ Eshonqulov N. Mendan “men”gacha.Toskkent:Akademnashr,2014.

tadqiq etildi. Navoiy obrazi milliy mentalitet, sotsiologik va adabiy muhit, muayyan tarixiy sharoit nuqtai nazaridan o'rganildi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Omon Muxtor hamda Lidiya Batning uslubi, dunyoqarashi, munosabati, pozitsiyasi, turlichaligidan qat'iy nazar, ular qalamga olayotgan voqelik markazida Alisher Navoiy timsolida inson shaxsi va uning xarakteri, ma'naviyati, ruhiy olami turadi. Garchi har bir yozuvchi syujet va kompozitsiya tanlashda o'ziga xos usul qo'llasada, tarixiy shaxs obrazi va xarakter yaratishda, voqealar rivoji, muammolar tadqiqida muayyan muhit vakili bo'lgan qahramonning taqdiridan ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-falsafiy xulosalar va yechimlar topishga harakat qiladilar. Ushbu tadqiqotda muayyan muhit va davrning kishilar maishiy turmushiga, shaxs va muhit munosabatlarining qahramon xarakteri va ma'naviy olamiga ta'sirining ilmiy tahlil etilishi ishning nazariy ahamiyatini belgilaydi.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Magistrlik dissertatsiyasining asosiy mazmuni muallif tomonidan 1 ta Respublika OAK tasarrufiga kiritilgan ilmiy jurnalda chop etilgan maqola, 6 ta ilmiy maqola va tezislarda o'z ifodasini topgan.

1. M.Yusupova. Navoiy obrazining yangicha talqini // "FarDU.Ilmiy xabarlar – Научный вестник ФерГУ". 2019 yil, 3- son.
2. M.Yusupova. Alisher Navoiy obrazining ayrim chizgilari/"Filologiyaning dolzarb masalalari" mavzusidagi Respublika internet-konferensiya materiallari. Farg'ona, 2017.
3. M.Yusupova. Badiiy adabiyotda Navoiy obrazining qiyosiy talqini/"Filologiyaning dolzarb muammolari va kontrastiv tilshunoslik" mavzusidagi Xorijiy olimlar ishtirok etgan Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari.- Farg'ona, 2018.
4. M. Yusupova. Omon Muxtor ijodida Navoiy obrazi// "Filologiyaning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro internet-konferensiya materiallari. - Farg'ona, 2018.

5. M. Yusupova. Tarix va taqdir talqinlari// “Filologiyaning dolzarb masalalari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari.- Farg‘ona, 2018.
6. M. Yusupova. Lidiya Bat ijodida Navoiy siymosi talqinlari// “Badiiy matnning adabiy-lisoniy tadqiqi” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Namangan, 2019.
7. M. Yusupova. Tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima// “Xorijiy tillarni o‘qitishning dolzarb muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari. - Farg‘ona, 2019. 295-296-b.

Tadqiqotning tarkibiy qismlari. Dissertatsiya kirish, uch bob, olti fasldan iborat, asosiy qism, umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, umumiy hajmi

BIRINCHI BOB

ADABIYOTSHUNOSLIKDA TARIXIY SHAXS MUAMMOSI

1-fasl. Tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima

Badiiy asardagi tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima xususida so‘z yuritganda, dastlab badiiy to‘qima tushunchasiga to‘xtalib o‘tish lozim. Badiiy to‘qima bo‘yicha olimlar tomonidan turlicha qarashlar bildirilgan. Jumladan, I.Sulton¹², T.Boboyev, H.Umurov¹³, E.Hudoyberdiyev¹⁴, D.Quronov¹⁵ kabi olimlar asarlaridagi fikrlar e‘tiborga molik.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da to‘qimaga shunday ta’rif beriladi: Badiiy asarning asosiy mazmunini va undagi qahramonlarning xarakterini ochib beradigan, o‘zaro uzviy bog‘langan voqea-hodisalar majmui. Ikkinchi ma’nosi: To‘qib chiqarilgan voqea, xarakter va hokazo.

Adabiyotshunos H.Umurov esa badiiy to‘qima avvalida “obraz” tushunchasi xususida so‘z yuritadi: “Adabiyotshunoslik ilmida «obraz» deganda inson ongida in’ikos etilgan voqea-hodisalargina emas, balki shu bilan birga so‘z vositasida san’atkor tomonidan anglangan, qayta ishlangan (bichib to‘qilgan) va tasvirlangan hayot tushuniladi”.

...Unda hech bir tasodifiy va ortiqcha narsa yo‘q. Hamma qismlar butunga bo‘ysungan, hammasi bitta maqsadga yo‘naltirilgan, hammasi birlikda bitta go‘zallik, yaxlitlik, individuallikni maydonga keltiradi.

Obraz yaratilish jarayonida badiiy to‘qima (uydirma, yolg‘on) faol ishtirok etadi. Zotan, butun adabiyot badiiy to‘qimalardan iborat, chunki turmush hodisalari zamon va makon ichida sochilib yotadi. Badiiy to‘qimadagi hayot oddiy turmushdan ko‘ra realroq va to‘liqroqdir. Shu sabab, voqelikning aslidan badiiy

¹²Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. - Toshkent. “O‘qituvchi” n-ti. 1980.

¹³ Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent, 2004,32-b.

¹⁴ Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish – Toshkent, 2008.

¹⁵Quronov D.,Mamajonov Z, .Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent:Akadem nashr, 2013,55-b

asardagi hayot tig'izroq, keskinroq, go'zalroq, yorqinroq, mag'izliroq, ma'nodorroqdir.

Obraz badiiy to'qima yordamida yaratilgan, estetik qiymat kasb etgan inson hayotining umumlashma va ayni chog'da, aniq manzarasidir.

“Badiiy to'qima hayotiy fakt bilan qo'shilgan, uyg'unlashgan paytdagina chinakam umumlashma — badiiy obraz vujudga keladi. Badiiy to'qima yozuvchining hayotga faol munosabati natijasida yuzaga keladi. Yozuvchi badiiy to'qima yordamida konkret odamlarda mavjud bo'lgan ijobiy va salbiy xislatlar va imkoniyatlarning hali ro'yobga chiqmaganlarini ham xayolan ro'yobga chiqarib tasvirlaydi, hayotiy fakti o'z ijodiy maqsadiga muvofiq ravishda rivojlantirib, o'zgartirib ko'rsatadi.

Badiiy to'qima yozuvchining hayotdan olgan haqqoniy taassurotlariga asoslanadi, uning samimiy his-tuyg'ulari va teran fikrlari bilan yo'g'riladi, san'atkorning o'ziga xos iste'dodi va mahorati tufayli kitobxonning ma'naviy dunyosini boyitadi”.¹⁶

Muhim va aniq tarixiy shaxslarga bag'ishlangan adabiy asarlarda badiiy to'qima bir qadar kamroq ishlatiladi. Masalan, Alisher Navoiy haqidagi asarlarda, ko'pincha, Alisher Navoiy bilan Husayn Boyqaro o'rtasidagi nozik munosabat qalamga olinadi. Bu tarixiy fakti o'zgartirib ko'rsatish mumkin emas. Ammo shu hayot faktining “Navoiy” romanida, “Hayot bo'stoni” qissasida, “Navoiy va rassom Abulxayr” roman-dilogiyasida qanday tasvirlangani qiyosan tahlil qilinsa, ularni yaratgan ijodkorlarning har biri tarixiy haqiqatga sodiq qolgani holda masalaga o'ziga xos tarzda yondashganini ko'ramiz. Bunday o'ziga xoslik badiiy to'qimadan asarlarning janr taqazosiga ko'ra foydalanish demakdir.

Tarixiy asar tarixiy shaxs, tarixiy voqealarni qayta jonlantirib, kitobxonni o'z davridan olislarga olib ketadi. Biroq tarixiy asarlarda o'tmishda yuz bergan voqea-hodisalar hikoya qilinsa-da, u hamisha zamon xizmatida bo'ladi.

¹⁶ T.Boboyev Adabiyotshunoslik asoslari, Toshkent - “O'zbekiston”-2002.

O'zbek adabiyotini tarixiy asarlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. O'zbek adabiyotshunosligida tarixiy shaxs hayotidan hikoya qiluvchi birinchi yirik asar, shubhasiz, Oybekning "Navoiy" romanidir.

Ushbu asarda mutafakkir ijodkorning hayot yo'li keng ko'lamda badiiy talqin etilgan. "Navoiy" romanida ham millatni uyg'otish, uning buyuk tarixini, asl qiyofasini ko'rsatish maqsadida tarixiy shaxs bo'lmish Navoiy hayotining eng muhim nuqtalari qalamga olingan.

"Navoiy" romanida Husayn Boyqaro, Xadicha begim, Mo'min Mirzo, Darveshali, Binoiy, Majididdin singari tarixiy shaxslar obrazi berilgan. G'oyat ustalik bilan yaratilgan bu obrazlar bosh qahramon Navoiy xarakterini ochishda muhim o'rin tutadilar. Chunki adib bu obrazlar vositasida o'sha davr hayotini haqqoniy ko'rsatgan. Asarda podshoh Husayn Boyqaroning o'z o'g'li Badiuzzamonga qarshi jang qilishi, nabirasi Mo'min Mirzoni qatl etish haqida farmon berishi, shahzodalarning bir-biriga qarshi qilich qayrashi, bir-biriga xiyonat qilishi singari fojiali voqealar, ziddiyatlar g'oyat ta'sirli qilib ifodalangan.

Romanda tarixiy shaxs obrazlari bilan birga, Sultonmurod, Dildor, Arslonqul, Zayniddin, To'g'onbek singari badiiy to'qima obrazlarning ham o'ziga munosib o'rni bor. Oybek bu obrazlar orqali o'sha davrdagi ma'lum ijtimoiy guruhlar hayotini umumlashtirib ko'rsatib bergan. Shuningdek, bu obrazlar vositasida bosh qahramon Navoiy xarakterini, uning fazilatlarini yanada yorqinroq ochgan.

"Hayot bo'stoni" povestida oddiy qul Hoshim bobo, uning nabirasi Zamira, oddiy xalq orasidan yetishib chiqib, navkarlikdan sardorlikkacha, qolaversa, Navoiyning eng yaqin kishilaridan biri bo'lib yetishgan Musabek obrazlarini muallif badiiy to'qima sifatida asarga olib kiradi.

"Navoiy va rassom Abulxayr" roman-dilogiyasida ham "Abulxayr- Shaxriya, Odil va Barno, Suhrob va Nazmi, Hayit va Tozagul, Xolid va Karomat kabi bugunning kishilari, Husayn Boyqaro, Sharafiddin Ali Yazdiy, Abusaid, Xadicha, Badiuzzamon kabi tarixiy shaxs obrazlari tizimiga parallel yaratiladi. Har ikki liniyadagi obrazlarni birlashtiruvchi timsol Navoiydir"¹⁷

¹⁷ Muhammadjonova G. Badiiy asar tahlili. - T. "Adabiyot uchqunlari". 2018. 50-b.

“Navoiy” romanida XV asr hayoti uchun tipik bo‘lgan xilma-xil voqea-hodisalar aks ettirilgan, rang-barang obrazlar yaratilgan. Hayot haqiqati ustalik bilan badiiy haqiqatga aylantirilgan. Bunda yozuvchi obraz yaratishda psixologik tahlildan, til imkoniyatlaridan, jumladan, har bir personajning o‘ziga xos fe’l-atvorini va individual tilini berish san’atidan unumli foydalangan. Shunga ko‘ra romandagi barcha obrazlar o‘z xarakteri va individual tili e’tibori bilan bir-biridan ajralib, o‘zaro farqlanib turadi.

Ko‘pgina tarixiy siymolarning asrlardan-asrlarga nomlari ulug‘lanib, avlodlarining yurak qo‘rida yashab kelayotganiga sabab ma’naviy yoki hokimiyat tanazzuli paytida xalqni ma’rifatga, ezgulikka, ozodlikka chorlab ko‘rsatgan qahramonliklari, o‘lmas ma’naviy meroslaridir. Tarixdan ma’lumki, aksariyat tarixiy shaxslarning shakllanishi og‘ir ijtimoiy-tarixiy sharoitda yuzaga kelgan.

Adabiyotshunos olim Halim Karimov tarixiy shaxs haqida fikr yuritarkan, quyidagi mulohazalarni bildirib o‘tadi: “Badiiy asar qahramoni etib tanlangan tarixiy shaxs qanchalik buyuk bo‘lmasin, qanchalik serqirra faoliyat ko‘rsatmasin yoki qanchalik qomusiy bilim egasi bo‘lmasin, yolg‘iz o‘zi ma’lum bir tarixiy davrni to‘laligicha aks ettira ol maydi. Shuning uchun ham yozuvchi yo‘nalishi va maqsadiga xizmat qiluvchi qator obrazlarni asarga olib kiradi”.¹⁸

Bu obrazlar bosh qahramon sifatida tanlangan tarixiy shaxs atrofida harakatlanib, asarning markaziy qahramoni bo‘lgan tarixiy shaxs xarakter qirralarini to‘laqonli tasavvur qilishimizga, o‘sha davr ijtimoiy-siyosiy hayotini, xalqning ma’naviy qiyofasini ochib berishga ko‘maklashadi.

Yuqorida aytganimizdek, xalq ertaklarining aksariyatida ham shaxs va jamiyat munosabatlari mavzusi yetakchi o‘rin tutadi. Chunki voqelik turli toifa kishilar, xilma-xil xarakterlar, betakror voqea-hodisalarni o‘zida mujassamlashtirgan maskan bo‘lib, badiiy asar personajlarining hayotiyligini, voqea-hodisalar haqqoniyligini ta’minlaydigan muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

¹⁸ Karimov H. Tarixiy shaxs va badiiy obraz. - T: Yangi asr avlodi 2006. - 97-b.

Buyuk mutafakkir, Alisher Navoiy asarlarida, eng avvalo, umr qadriga yetishga, qimmatli lahzalardan unumli foydalanishga chaqiradi. Bu “g‘amxona”dan shodmon chiqmoq uchun butun kuch hamda imkoniyatni safarbar etishga undaydi. Jumladan, Alisher Navoiyning zamondoshi bo‘lgan Husayn Boyqaroni ulug‘ shoir va mutafakkir badiiy asarlarida qanchalar ulug‘lamasin, unga yozgan maktublarida g‘aflatga botmaslik, mayparastlik va maishatni tark etish, xalq hayotidan ogoh bo‘lishga kuyunib da’vat etganligi ma’lum.

Garchi saltanat tepasida rasmiy hukmdor sifatida Husayn Boyqaro turgan bo‘lsa-da, aslida Alisher Navoiyning ta’lim-tarbiyasi, da’vati hamda homiyligida Hirot va uning atrofidan zamonasining minglab barkamol siymolari yetishib chiqqanlar. Behzod boshchiligidagi musavvirlar, Sultonali Mashhadiy rahnamoligidagi xattotlar, Mirak naqqosh yetakchiligidagi me’morlar, Husayn voiz izdoshlari bo‘lgan notiqalar, madaniyat va san’atning boshqa sohalari vakillari bo‘lgan ko‘plab iste’dodlar tufayli XV asr Xuroson tarixiga oltin asr sifatida yozilib qoldi.

Komil inson orzusi, barkamollikka da’vat Alisher Navoiyni umrining so‘nggi kunlarigacha tark etmadi. Vafotidan ikki oy avval boshidan kechirgan voqea-hodisalari, umr tajribalari asosida yaratilgan “Mahbub-ul qulub” nomli asarida ham yoshlar va ularning istiqboliga ishonch, umid bilan qaradi. Ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy-falsafiy o‘gitlarini yana bir karra mufassal bayon etdi. Asardagi qimmatli nasihatlar, hayotiy umumlashmalar hanuzgacha o‘z qimmatini yo‘qotmasdan kelmoqda.

Lidiya Bat ham, akademik Oybek hamda Omon Muxtor ham Navoiy siymosini yaratishda tarixiy fakt va ma’lumot, shuningdek, u haqda yozib qoldirilgan tarixiy manbalar bilan atroflicha va chuqur tanishib chiqqanlar. Xususan, shoir yashagan muhit, uning hayotiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan tarixiy shaxslar har ikki asarda keng yoritilgan. Ammo bu asarlarning biri qissa janrida, ikkinchisi esa roman janrida bo‘lganligi uchun, janr imkoniyatlaridan kelib chiqib, voqealar rivoji, g‘oya hamda falsafiy-estetik tushunchalar birida siqiqroq, ikkinchisida esa keng epik planda ifodalangan.

Lidiya Bat “Hayot bo‘stoni” povestida shoir hayotining bolalik, yigitlik, o‘rta yoshlik hamda keksalik pallalaridagi voqea-hodisalarni asos qilib olgan. Oybekning “Navoiy” romanidagi voqealar esa Husayn Boyqaro tomonidan Alisher Navoiyning Samarqanddan chaqirib olinishi pallalaridan boshlanadi. Lidiya Bat Alisher Navoiy siymosidan ko‘proq o‘rta asrlardagi ijtimoiy-siyosiy hayot voqealarini, temuriylar saltanatini tanazzulga olib kelgan tarixiy sabablarni batafsilroq yoritishni ko‘zda tutadi. Oybek esa o‘z romanida xalqimiz ijtimoiy-falsafiy tafakkuri tarixida Alisher Navoiyning o‘rnini ko‘rsatib berishga XV asr adabiyot san’ati, ilm-fani yuksalishining omillarini badiiy tadqiq etishga harakat qiladi. “Hayot bo‘stoni” povesti muallifi, shuning uchun ham, ko‘proq temuriylar o‘rtasidagi toj-taxt talashuvlari, oddiy xalqning nochor va qashshoq turmushi, mansabdorlarning zulmi, xalq xo‘jaligining turli-tuman soliqlardan boshi berk ko‘chaga kirib qolganligi singari masalalarga urg‘u beradi. Hatto Alisher Navoiy ham bolalik va yigitlik pallalarida turmush chorrahalarida ko‘p uqubatlar chekkanligi, aksariyat hollarda och-nahor qolishi, eng yaqin kishilariga ham yordam qo‘lini cho‘za olmaganligi, umrining ayni gullagan damlari surgun va ta‘qib ostida o‘tganligiga kitobxon e‘tiborini tortishga harakat qiladi.

Lidiya Bat Navoiyning Samarqandga yo‘l olishi haqidagi voqealar tafsilotiga bag‘ishlangan bo‘limni ochiq-oydin “Quvg‘inda” deya nomlagan. Navoiyning do‘sti Pahlavon Muhammad tilidan Samarqandga surgun voqeasi oshkora ta‘qib ekanligi bayon etiladi: “...sizga xatarli xabar olib keldim. Darhol Hirotni tark etishingiz lozim. Hozir sizga Samarqandga jo‘nashni taklif qilishyapti, ertaga zindonni ro‘para qilishlari ham mumkin.”¹⁹

“Navoiy” romanida muallif tomonidan shoir hayotidagi Samarqand bilan bog‘liq tafsilotlarga keskin baho berilmasdan, personajlar tilidan ishora qilinadi. “...Alisher Navoiy Samarqandga rasmiy bir vazifa bilan safar qilganmi?

- Ishonchli ba‘zi zotlarning rivoyatiga ko‘ra, Alisher bilan marhum podshoh Abusaid mirzoning munosabati sovuq bo‘lgan. Abusaid Mirzo Alisherning

¹⁹Bat Lidiya. Hayot bo‘stoni. - Toshkent. 1968.106-b.

Hirotda yashamoqligini ma'qul ko'rgan emas. Shu jihatdan bundan uch yil muqaddam Alisher Hiotni tark etib, Samarqandga jo'namoqqa majbur bo'lgan. Endi podshoh bilan shoir orasidagi nizoning asli ma'nosiga kelsak, har holda siyosiy bir tarzda bo'lishi shubhasiz. Marhum Abusaid Mirzoning ashaddiy dushmani hozirgi taxt egasi Boyqaro hazratlari bo'lgani ma'lum. Bu hazrat bilan Alisherning oralarida ilgaridan do'stlik va yaqinlik mavjud edi. Bundan tashqari, Alisherning tog'alari Husayn Boyqaro hazratlarining yaqin odamlaridan bo'lganlar, uning taxt uchun kurashlarida yordam berganlar. Mana bu holda Alisherga Abusaid Mirzoning gumon, shubha bilan qarashiga sabab bo'lishi g'oyat tabiiy hol emasmi?"²⁰

Alisher Navoiyning saroyda rasmiy ish boshlashi, Husayn Boyqaro uni muhrdor lavozimiga tayinlanishi haqidagi tarixiy voqealar har ikki adib tomonidan o'z asarlarida aks ettirilgan. Ular orasidagi farq shundaki, Lidiya Bat ana shu marosimni tasvirlash jarayonida saroydagi ichki nifoq, bir-birini ko'rolmaslik, fitna va hasadlarni bo'rttirishga ko'proq e'tibor qaratadi. Husayn Boyqaro Navoiyni bu mansabga tayinlash haqidagi farmonida faqatgina Muzaffar Barlosgina undan yuqorida o'z muhrini bosishi mumkinligini belgilaydi. "Hayot bo'stoni" muallifning talqiniga ko'ra, har biri o'zini hammadan ustun deb hisoblaydigan saroy a'yonlari ichki g'azab va nafrat bilan muhrdor Navoiyning o'z muhrini bosishi jarayonini kuzatib turadilar. Kutilmaganda Navoiy o'z muhrini shunday joyga bosadiki, undan keyin biror kishi o'z muhrini bosishga imkon topolmay qoladi. Bu bilan Lidiya Bat Navoiyni saroy a'yonlari orasidagi ichki ziddiyat va kelishmovchiliklarga donolarcha munosabatda bo'lganligi ko'rmatmoqchi bo'lgan.

Oybekning "Navoiy" romanida ham ulug' shoir ma'naviyati va donishmandligini yorqin ko'rsatuvchi bu lavhaga alohida o'rin ajratilgan. Gap shundaki, romanda Navoiyning eng quyiga muhr bosishi uning boshqalarga hamisha ibrat bo'lib qoladigan odamiyligi va kamtarinligi, yuksak madaniyati va

²⁰ Oybek.Navoiy. - T. 2012.24-25-b

ma'naviyatidan dalolat bo'lib qoladi. Shu birgina oqilona harakati bilan Navoiy o'zini o'rab turgan muhitga katta tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi.

Yodgor Mirzo tortib olgan poytaxt Hirotni qaytadan qo'lga kiritish lavhalari tasvirida ham har ikki yozuvchi bir xil tarixiy manbalarga tayanganlar. Ammo g'oyaviy-falsafiy maqsad ifodasida ularning usullari bir-biridan farq qilishini payqashimiz mumkin. Lidiya Bat Yodgor Mirzoni to'satdan qo'lga olish uchun u yotgan qasrga ko'tarilishga hech kimning yuragi dov bermayotganida Alisher Navoiy Husayn Boyqarodan ijozat olib, o'zi bu ishga bel bog'laydi. Ammo "Hayot bo'stoni" povestining muallifi tasviridan kelib chiqadigan bo'lsak, Navoiy uni nazar-pisand qilmayotgan, jang qilishga uquvsiz, deb qarayotgani uchun sarkarda va navkarlar oldida bu ishga jazm qilgandek taassurot qoladi. Buni ta'kidlash uchun Lidiya Bat Navoiyni yoqtirmaydigan sarkardalardan biri Soniy tilidan "U kishining (Navoiyning) qilich o'ynatishlarini ana endi ko'ramiz", - degan kinoyani ham keltiradi.

Ulug' donishmand shoir Abdurahmon Jomiy ham Husayn Boyqaroni turli urush-yurishlardan qaytarishda vazir Alisher Navoiy yordamidan foydalangani ham bejiz emas. Shuningdek, podshohning taxtparast o'g'illari uyushtirgan toj-taxt uchun kurashlar, harbiy-siyosiy isyonlarni bostirish tadbirlarining o'ndan to'qqiz foizi ham ulug' shoir va mutafakkir chekiga to'g'ri keladi.

"Hayot bo'stoni" povestida Abdurahmon Jomiyning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi rolga urg'u berilmasdan, uning yosh ijodkorlar tolibi ilmlarni qo'llab-quvvatlashi, Hirot adabiy jarayonida katta nufuzga ega ekanligi haqida so'z boradi.

"Navoiy" romanida esa Jomiy Alisher Navoiyning ijodiy hamkori, yangi ijodiy rejalarga ilhomlantiruvchisi, do'sti va ustoz sifatida namoyon bo'ladi.

Tarixiy shaxs bo'lmish Husayn Boyqaro, garchi uni zamondoshlari, jumladan, Navoiy ham har qancha ideallashtirmasinlar, uning uchun toj-taxt hamma narsadan ustun bo'lgan. Eng yaqin do'sti va sadoqatli mulozimi bo'lgan Alisher Navoiyning tuprog'i sovimasdan turib, u obod qilgan joylarni xarob etishdan, u tarbiyalagan zotlarni qatl etishdan toymagan.

Yozuvchi Omon Muxtor esa “Navoiy va rassom Abulxayr” roman-dilogiyasida Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlariga o‘zgacha bir talqin bilan yondoshadi:”Xuroson taxtini Ikki Kishi yoshlikdan qo‘lga kiritishni orzu qilgan va taxtni egallagach, Ikkov Birga Saltanatni boshqargan edi:

Kuchi, Jasorati bilan – Husayn!

Aqli, Zakovati bilan – Alisher!

Ular qanday bo‘lmasin, Bir Vazifani bajarishgan edi! Ular – San’atkor va Sulton, tarixda bor, odatdagi muxolifatga zid, aravani bir tomonga tortadi. Bir yoqadan bosh chiqaradi.

Alisher vafot etgan kuni Husaynning ham asosan HUKMI tugaydi.”²¹

Alisherning Husayn Boyqaroga hamisha ma’naviy otaliqdek muhim shaxs ekanligi tadqiqotimiz obyekti bo‘lgan uchala asarda ham keliriladi, ammo Omon Muxtor lirizm bilan yo‘g‘rilgan misralar orqali tarixiy shaxslar tavsifini ayricha ifodalaydi.

Lidiya Bat o‘z asarida Husayn Boyqaroning toj-taxtga o‘chligi, shuhratparast va o‘jarligi yoshligidan shakllana borganligini faslma-fasl asoslab borishga intilgan. O‘spirinlik yillarida sahroda Alisher Navoiy bilan ov qilib yurganida ilonlar ko‘p uchraydigan joyga kelib qolishadi. Husayn “ilon ko‘p joyda xazina bo‘ladi”, degan aqida esiga tushib, ovni yig‘ishtirib, xazina izlamoqchi bo‘ladi. Yoki Marv hukmdorining qizi Bekabegimga uylangan kunlarida yosh kelinchakdan bir minora shiftiga parilarning oltin tarog‘i yashirib, suvab tashlangani haqidagi rivoyatni eshitiboq, o‘sha minora shiftini ko‘chirishga, oltin taroqni qo‘lga kiritishga harakat qiladi.

“Navoiy” romanida muallif Husayn Boyqaro saltanatining tanazzulini saroydagi fitna-fasodlar, ichki nizolar, bir-birini ko‘rolmaslik, xudbinlik singari omillar asosida ifoda etishga harakat qilgan. Sultonning eng yaqin kishilari ham o‘z manfaati yo‘lida davlatga zarar keltirishdan, podshohga xiyonat qilishdan toymaydilar. Husayn Boyqaro kimni mas’ul vazifaga qo‘ymasin, u eng avvalo, o‘z

²¹ Muxtorov O.”Navoiy va rassom Abulxayr”. - T.2006.26-b.

cho‘ntagini qappaytirishni o‘ylaydi. Xalqqa jabr-zulmni orttirishdan maqsad ham shundaki, ham o‘z boyligini orttirish, ham Boyqaro xazinasini to‘ldirish, shu yo‘l bilan shoh ishonchiga kirish, uning iltifotiga sazovor bo‘lishni o‘ylaydi. Majdiddin, Nizomulmulk singari tarixiy shaxslar, To‘g‘onbek singari amalparastlar davrasida butun umrini el-yurt manfaati yo‘lida bag‘ishlagan, obodlik va odillik uchun tolmas kurashchi bo‘lgan Navoiy obrazi yanada yorqinroq ko‘zga tashlanadi.

Shoh va shoir Husayn Boyqaro - Husayniy xalqimiz ijtimoiy-siyosiy hayoti hamda mumtoz adabiyot tarixida yorqin iz qoldirgan ulug‘ siymolardan biridir. Uni bunday ta’riflanishida Navoiyning xizmati beqiyos. Ilmi va topqirligi bilan nafaqat do‘stini, balki butun bir mamlakatni boshqargan bu zot obrazi tadqiqotimiz obyekti bo‘lgan yuqoridagi asarlarda o‘z isbotini topgan.

Tarixiy shaxslar haqida so‘z borganda, ularning ijtimoiy-siyosiy voqelikdagi nufuzlari, mavqesi hamda xatti-harakatlari, turmush va yashash tarzlari badiiy asarlardagi ifodasidan farq qilishi mumkin: “SHOH va SHAHZODALAR “ko‘cha bolalari” voqeasidan keyin es-hushlarini yig‘ib AHIL bo‘lishni xayollariga ham keltirishmagan edi. Aksincha, yangi nizolar qo‘zg‘ab, mamlakatda yangidan jangler boshlanib ketgan edi. Ular kundan-kun ikki tomondan (bir-biriga jigar) guldek yigitlar umrini xazon qilishmoqda edi(o‘sha zamon muarrixlari bu janglarda halok bo‘lganlarni “shahid” deb yozishgan-ku, aslida, shahid boshqa, bular manfaatparast, shuhratparast kishilarning bema’ni talashuvida bargdek yerga to‘kilgan qurbonlar edi, xolos). SHOH va SHAHZODALAR mamalakatda qaytib muhtoj-benavolar , notavon-majruhlar, yetim-yesirlarni ko‘paytira boshlagan edi. Xalqning nola-faryodi osmon qopqasini ko‘chirgudek bo‘layotgan edi.

Alisher faqat Xurosondagi jang maydonlari emas, butun olamdagi jang borayotgan maydonlarni ko‘z oldiga keltirib, o‘zini yalangbosh, yalangoyoq shu maydonlarni yorib o‘tayotgan holda tasavvur qilar...edi”²².

Keltirilgan misollardan shu narsa oydinlashadiki, tarixiy shaxs tushunchasi, uning voqelik bilan munosabatlari, hodisalarning inson ma’naviyatiga ta’siri

²² Muxtorov O.”Navoiy va rassom Abulxayr”. - T.2006.219-b.

masalalari xalqimizda juda qadimdan shakllangan, qadriyatlarimizning muhim tarkibiy qismi sifatida yashab kelgan. Yurt obodligi, ro‘zg‘or to‘kinligi, inson tadbirkorligi, qolaversa, ma’naviy-falsafiy xususiyatlar ham shaxsning ijtimoiy muhitdagi o‘rni mavzusiga ulanib ketadiki, bu mavzu ham tarixiy jihatdan, ham falsafiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan bir qatorda, tarixiy shaxs obrazlarini yaratish tajribasi yoshlarni turmushga tayyorlash, hayot saboqlarini o‘rgatishda ham muhim manba vazifasini bajargan.

Xulosa qilib aytganda, voqelikka baho berishda xolis bo‘la olishimiz, har bir shaxsning ijobiy xususiyatlarini turmush tarzimizga tatbiq etishimizda ham ijtimoiy hayotning ko‘zgusi bo‘lgan so‘z san’ati – adabiyot bizning yaqin maslakdoshimiz, tarbiya vositasi, ta’sir ko‘rsatish omiliga aylanishi shubhasiz. Shuning uchun ham so‘ngi yillarda jamiyat va inson taqdiri masalasi adabiyotning eng dolzarb va muhim muammolaridan biriga aylandi. Bu borada Lidiya Batning “Hayot bo‘stoni” hamda Oybekning “Navoiy” asarlari o‘ziga xos o‘rin va ahamiyatga molikdir. Sanab o‘tilgan adiblarning asarlarida tarixiy shaxs obrazi turli nuqtai nazardan, turlicha yondashuvlar asosida chuqur ishlangan. Shaxs shakllanishi jarayonining inson o‘zligini anglashi, moddiy turmushining yaxshilanishi, ma’naviy olamining boyishi, voqelikka munosabat singari muammolarning badiiy yechimi, odamlar ruhiyatidagi xilma-xil evrilishlarni tadqiq etish yuqoridagi asarlarning g‘oyaviy-falsafiy maqsadiga aylangan.

Shaxs obrazining badiiy adabiyotda aks etishini tahlil qilish, odamlar ruhiyati va ma’naviyatida tutadigan o‘rnini belgilashdan oldin qahramon mansub bo‘lgan davr va muhit haqida ilmiy tasavvur hamda xolis tushunchaga ega bo‘lish talab qilinadi.

O‘z nuqtai nazari, erkin dunyoqarashi, o‘z so‘zini ayta bilish fazilati shaxsning tarixiy jarayondagi o‘rnini belgilaydi. Ana shunday qobiliyat va iste’dod egalari esa jamiyatning tobora taraqqiy etishiga kuchli turtki beradilar. Albatta mazkur taraqqiyot jarayoni silliq va tekis davom etmaydi. Yaxshining yomoni, oqning qorasi bo‘lgani kabi har bir shaxsning ham musbat va manfiy tomonlari mavjud bo‘ladi. Ana shu salbiy hamda ijobiy xususiyatlarni obrazli ifodalash,

voqelikni haqqoniy tasvirlash esa badiiy adabiyotning dolzarb vazifasi bo‘lib qolaveradi. Shu ma’noda Lidiya Batning “Hayot bo‘stoni” va Oybekning “Navoiy” hamda Omon Muxorning “Navoiy va rassom Abulxayr” asarlari tarixiy shaxs obrazini chuqur tadqiq etish, tarixiy haqiqat va badiiy to‘qimaning mualliflar mahorati o‘laroq bir-biriga uyg‘un holatda tavsiflash va tarixiy shaxslarning ijtimoiy muhitga munosabat va aloqalarini ilmiy tekshirishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

2-fasl. Tarixiy shaxs va ijtimoiy muhit

Inson hayotini turli narsa-hodisalarga o'xshatadilar, qiyos qiladilar va har xil ta'riflaydilar. Ba'zilar uni oqar daryo deb atasalar, boshqalar cheksiz ummonga o'xshatadilar. Yana bir toifa kishilar hayotni juda murakkab, mutolaasi og'ir kitobga mengzaydilar. Lidiya Bat ijodida tarixiy shaxs va ijtimoiy muhit masalasiga xos yoritilgan bo'lib, u Alisher Navoiy hayotini bepoyon muammolar ummoni sifatida ta'riflaydi, tasvirlaydi. L.Batning ana shunday falsafiy qarashlariga asoslangan "Hayot bo'stoni" asari tarixiy shaxs obrazi ruhiyatidagi turli evrilishlar, noroziliklar, isyon va kechinmalarning badiiy-falsafiy umumlashmasidir.

"...asarda tarixiy shaxs siymosi o'zgacha yo'nalishda talqin etiladi.Oybekning "Navoiy" romanida Navoiy siyosiy arbob, bunyodkor shaxs, INSON sifatida voqeliklar silsilasida talqin etilsa, Omon Muxtor Navoiyning ijodkor sifatidagi siymosini, murakkab ruhiy-ma'naviy olamini ijodiy asarlari asosida ochib berishga e'tibor qaratadi.Ya'ni uning ijodiy olami, BUYUK INSON sifatidagi fazilatlarini hayrat va havas bilan kashf etadi".²³

Demak, yozuvchi muayyan shaxs timsoli vositasida inson hayotining o'ziga xos falsafasini yaratishga, uning mohiyati-yu ma'nosini ochib berishga, turmushdagi ofatlarning, shaxsiy fojealarining sabablarini aniqlashga intiladi.

Mana shunday hammamizga tanish bo'lgan realistik manzaralarni ko'z oldimizda gavdalantirish bilan bir qatorda muallif tarixiy shaxs obrazining dolzarb muammolarini, hatto dahshatli ziddiyatlarini ham qalamga oladi. Xususan, asarda daolzarb muammolaridan biri sifatida shaxsning ruhiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi zamon va makon, muhit hamda voqelik masalalari ham ko'tariladi.

Yozuvchi talqiniga ko'ra o'z davri bilan hamohang kun kechirishning qiyinligi undagi dahshatli illatlar bilan belgilanadi. Ana shunday illatlardan biri sifatida asarda dinni niqob qilib olgan xurofotchilarning ilm-fan taraqqiyotiga

²³Muhammadjonova G.Badiiy asar tahlili. - T:Adabiyot uchqunlari.49-b.

to'sqinlik qilishlari, ma'rifatga jaholatni qarshi qo'yishlari manzarasi chiziladi. Manzaraning ta'sirchan chiqishiga yozuvchi Mirzo Ulug'bekning osmonni yaqinlashtirgani, bid'atchi munajjim-folbinlarning esa osmonni yana uzoqlashtirishga urinishlarini qarshi qo'yish orqali ifodalashga intiladi. Ayniqsa, Husayn Boyqaroning har bir farmoni munajjimlar bashorati asosida e'lon qilinishini muallif-hikoyachi Alisher Navoiy taqdiridagi o'zgarishlar bilan bog'liq epizodlarda ko'rsatmoqchi bo'ladi. Xususan, Husayn Boyqaro Navoiyni muhrdorlik mansabiga tayinlash haqida maslahatlashayotib, bu haqdagi farmonni munajjim belgilagan vaqtda e'lon qilishini ma'lum qiladi. Alisher Navoiy ana shu epizodda ham, Yodgor mirzo ustiga bosqin uyushtirish haqidagi kengashda ham bu boradagi mantiqiy dalillarini gapirib, e'tiroz bildiradi.. Shu tariqa yozuvchi o'zining maqsadlaridan biri – insoniyatni ruhan poklanish, ma'naviy kamolotga erishish sari boshlashi lozim bo'lgan diniy-ruhoniy e'tiqodning oddiy mantiq oldida poydevorining omonatligi bilinib qolishini bosh qahramon pozitsiyasi misolida chizib beradi.

Ko'pchilik diniy e'tiqod oldida ikkilanuvchilarga xos tomonlari bo'lsa-da, L.Batning muallif sifatidagi hikoyachi-qahramoni ulardan keskin farqlanib turuvchi fazilatlarga, favqulodda belgilarga ega. Xuddi shu fazilatlari qahramonni ko'proq yozuvchi xayolidagi, idealidagi qahramon sifatida tasavvur qilishga yo'l ochadi. Jumladan, bosh qahramon Navoiyning Samarqandda bo'lishi lavhalari munosabati bilan Ulug'bek fojeasi haqida ham to'xtalib o'tadi. "Ulug'bekning ilmiy faoliyati uning shuhratini dunyoga yoydi, uning halok bo'lishiga ham ana shu yuksak ilmiy faoliyati sabab bo'ldi.

Shayx va xo'jalarning rasadxona binosini ko'rgani ko'zi, otgani o'qi yo'q edi, chunki bu bino ulardan osmonni tortib oldi...

Ulug'bek dahriy, shariat qonun-qoidalarini bajarmaydi, kundalik besh vaqt namozini kanda qiladi, degan mish-mishlar tarqala boshladi... "Sen Muhammad dinini barbod berib, kofirlar udumini joriy qilding" deb to'g'ridan to'g'ri betiga aytishga jur'at etganlar ham bo'ldi."²⁴

²⁴ Bat Lidiya. Hayot bo'stoni. - Toshkent. 1968.126-127-b.

Muallif o'zi mansub bo'lgan muhit va jamiyatda har qadamda uchraydigan odam qiyofasini chizishdan ko'ra o'z xayollarida, orzularida yuksak mukammallik to'g'risidagi tasavvurlarida yaratilgan haqiqiy inson va tarixiy shaxs siymosini gavdalandirishga harakat qilgan. "Hayot bo'stoni" qahramoni aksariyat zamondoshlaridan voqelikka munosabatda halolligi, ideallari yo'lida fidoyiligi, qalbi qarama-qarshi tuyg'ularga to'liqligi va, eng muhimi, haqiqatni anglashga bo'lgan cheksiz intilishi bilan ajralib turadi. Yozuvchi mavjud hayotda bunday kishilarning topilishi qiyinligini yaxshi tushunadi va ularning turmushda tip darajasiga ko'tarilmasligini yaxshi biladi. Shuning uchun ham, imkon darajasida tarixiy manbalarga tayangan holda, o'rta asrlar voqeligida, undan keyin ham ibratli siymo bo'lib qolgan Navoiy obrazini to'laqonli yaratishga intiladi. Saroy fitnalari orasida ham, musofir yurtlardagi sargardonliklarda ham, turli jang-jadallar paytida ham, boshiga qayg'u va musibat tushganida ham Navoiy ezgu niyatlaridan qaytmaydi, haqiqat uchun kurashishdan tolmaydi. Lidiya Bat yaratgan Navoiy obrazini ich-ichidan nurlantirib turadigan yetakchi xususiyat ham ana shunda.

O'z davri odamlari-yu manzaralari, muammolari-yu ziddiyatlari tasviriga qanchalik keng o'rin berilmasin, ularning har tomonlama ko'lamli, to'laqonli timsolini yaratish adibning asosiy maqsadi hisoblanmaydi. Shaxs obrazi talqini yozuvchiga inson hayoti muammolarini badiiy tahlildan o'tkazish uchun bir vosita bo'lib xizmat qiladi. "Hayot bo'stoni" povestining muallifi shundan kelib chiqib, oddiy qul Hoshim bobo, uning nabirasi Zamira, oddiy xalq orasidan yetishib chiqib, navkarlikdan sardorlikkacha, qolaversa, Navoiyning eng yaqin kishilaridan biri bo'lib yetishgan Musabek obrazlarini badiiy to'qima sifatida asarga olib kiradi. Bundan ko'zda tutilgan maqsad ham bosh qahramon bo'lmish tarixiy shaxs - shoir va mutafakkir, jamoat va davlat arbobi Alisher Navoiyning ijtimoiy-siyosiy hayotda o'ynagan rolini hayot haqiqati darajasida, muayyan voqelik fonida ko'rsatish edi.

Mavjud voqelik inson hayoti muammolarini emas, balki ko'proq turmush taqozosiga ko'ra ko'ndalang bo'ladigan ikir-chikirlarni hal etmoq uchun tinib-tinchimayotgandek tuyuladi. Zero, "Hayot bo'stoni"da tasvirlanishicha, hatto

Navoiyning o'zi ham o'spirinlik yillarining to'qqiz yilini turli sabablarga ko'ra ona shahridan yiroqda o'tkazadi. Tug'ilgan go'shaga qaytgach, tirikchilik tashvishlari bilan band bo'lib qoladi. Ota-onasi olamdan o'tib ketgan, qudratli homiysi bo'lgan Abulqosim Bobur ham vafot etgan, ota mulki esa Abusaid Mirzo tomonidan sodiq gumashtalaridan biriga in'om qilib yuborilgan yosh Alisher oldida eng muhim muammo kunni qanday o'tkazish, biror boshpana topishdan iborat bo'lib qoladi. Taom uchun ham puli qolmagan Alisher Abulqosim Boburdan yodgorlik bo'lib qolgan juzvdon (qog'oz va kitob solinadigan maxsus papka-jild)ini ham sotishga majbur bo'ladi. Lidiya Bat ana shunday holatda ham o'quvchi ko'z o'ngida Alisher siymosini ulug'vor hamda ibratli ko'rsatish g'oyasiga sodiq qoladi. Tarixiy ma'lumotlardan chekinmagan holda, Alisher yonida qolgan so'nggi chaqalarini ham yo'l chetida zorlanib o'tirgan tilanchiga berishini ishonarli tasvirlaydi.

Shu tariqa muallif kundalik hayotdan inson hayoti muammolarini, ofatlarini kunday ravshan ko'rsatuvchi ko'zgu sifatida foydalanishga urinadi. Inson hayoti muammolarini badiiy talqin etishda muallif badiiy tasvirda ancha yaxshi samaralar beradigan yo'ldan, ya'ni voqelikni real tasvirlash, hikoyachilik tasvir unsurlariga kengroq erk berish tamoyili izidan boradi.

“Hayot bo'stoni”da unumli qo'llangan yuqoridagi tasvir unsurlari qatoriga:

- ramzlardan nihoyatda keng foydalanish;
- ular zimmasiga cheksiz teran ma'no yuklash;
- kutilmagan voqealarga alohida e'tibor qaratish;
- kutilmagan voqealarni qayta-qayta tilga olish yo'li bilan ayrim masalalarning muhimligini ta'kidlab borish;
- psixologik tahlilda o'ta qisqalikka intilish;
- realizmga xos mufassallikdan qochish kabi usullar kiradi. Asarda eng ko'p qo'llangan ramzlar sifatida mukammalashuvga intilish va odamlarga kerakli bo'lish istagi timsollarini ta'kidlash o'rinlidir. Shuningdek, bu ramzlarda inson hayotining mohiyatiga, ya'ni uning mazkur ikki qutbezgulik hamda yovuzlik orasidagi jarayon ekanligiga ham ishora seziladi.

Butun umrini G'iyosiddin Kichkina dargohida xizmat qilishga bag'ishlagan keksa qul Hoshim bobo ham o'zining sadoqati, olijanoblighi, mehribonligi bilan ana shu xonadonning davomchisi bo'lgan Alisherning ma'naviy olamiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Xotin-qizlarga bir buyum qatorida muomalada bo'lingan, kerak bo'lsa, istalgan paytda biror amaldorga tortiq qilib yuboriladigan tuhfa sifatida qaralgan bir muhitda Alisherning yonida oq ko'ngil, beg'ubor qizcha – Zamira paydo bo'ladi. Alisherning bu oddiy qizaloq bilan aka-singil tutinishi, bu munosabatlar o'ta samimiyligini ko'rsatuvchi bir necha lavhalar odamiylik hech qachon o'lmasligini ta'kidlashga xizmat qiladi. Umri davomida iste'dodlarga homiylik qilgan, ularning kamoli uchun kurashgan Alisher Navoiy ana shu qizdan ham iste'dod g'unchalarini topadi. Bu qiz o'xshashi yo'q yoqimli ovozi, kuyga, qo'shiqqa oshnoligi bilan ham bosh qahramonning e'tiborini tortadi. Asar nihoyasiga yaqin esa, bu paytda davlat arbobi va mashhur siymo bo'lgan Navoiy Zamiraning yolg'iz o'g'lini og'ir mardikorlik yumushlaridan, uning qishloqdoshlarini esa o'rinsiz va og'ir soliqlardan xalos etadi.

Ana shulardan kelib chiqib, muallif butun asarning mazmuni inson va uning hayotini qadrlashga da'vat ruhi bilan sug'orilishiga intiladi. Aynan bir ramzga qayta-qayta urg'u berish, ayrim tafsilotlar hikoyasini bo'lib-bo'lib davom ettirish yo'li bilan u asar markaziga inson qadr-qimmatini muammosini qo'yishga muvaffaq bo'ladi.

Qahramonning turli o'lkalarda, jumladan, Mashhad, Astrobod, Samarqandda yurishlari va yana o'zining tug'ilgan joyi - Hirotga qaytishi davomidagi ko'rgan-kechirganlari, duch kelgan suhbatdoshlari, boshidan kechirgan voqealari, ruhiy holatlari mazkur muammoning hayotdagidek jonli talqini uchun qulay bir vosita bo'lib xizmat qiladi.

Muammoning o'z davri uchun g'oyatda muhimligini alohida ta'kidlash maqsadida muallif dastlabki ramzlardayoq e'tiborimizni inson qadri-qimmatiga qaratadi. Bu xavotirli tashvishning ramzi sifatida iqtisodiy, ijtimoiy voqelik hamda

ruhiy kechinmalar jonlantiriladi. Bunday manzaralar kitobxonni beixtiyor :”Adabiy qahramon mashhur zot va yirik davlat arbobi bo’lsa-da, oz muammolariga yechim topishga shunchalar qiynaladigan bo’lsa, insonning tirikligi qanday qadr-qimmatga ega ekan? Uning qadrsizlanish sabablari nimada?” degan savollar ustida iztirobli o’ylar girdobiga g’arq etadi.

Yozuvchi talqinidan ayon bo’lishicha, buning sabablaridan biri inson nafsning, manfaatning, foydaning quliga aylana borib, o’z qadr-qimmatini yerga urishi hisoblanadi.

Adib o’z g’oyalarini alohida ta’kidlashga, o’z fikr-mulohazalarini bayon qilishga o’tishi uning o’zi mazkur qarashlar ifodasiga qandaydir kemptiklar borligini payqaganligidan dalolat beradi. Kemptiklar bo’lsa-da, Lidiya Bat o’z asarida “ma’rifat” so’zini biron marta ham ishlatmagani holda, goh folklor unsurlaridan, goh realistik tasvir tamoyillaridan, goh romantik bo’yoqlardan foydalangan holda ijtimoiy adolat insoniyat uchun najot qal’asi ekanligi haqidagi falsafasini, ya’ni xalqparvarlik g’oyasini ancha ta’sirchan shaklda ifodalashga muvaffaq bo’lgan. Aftidan, tasvir usullari me’yorida to’liq mutanosiblikka erishilmagani yuqoridagi kemptikni tug’dirgan sabablardan biri bo’lsa kerak.

Yozuvchining idealidagi mukammalashgan qahramon asar markazida turgan bo’lsa-da, u haqiqiy jonli odamlarga xos xususiyatlardan, fazilatlardan, o’y-kechinmalardan mahrum emas. Shunga ko’ra kitobxon deyarli barcha odamlarga taalluqli bo’lgan xatti-harakatlarni, gap-so’zlarni, fikr-tuyg’ularni undan ham kutishga haqli. Teran psixologik tahlil esa ana shunday iztirobli ruhiy holatlarni gavdalantirishga va shu orqali idealidagi qahramon qay darajada yetilganligini mufassal ko’rsatishga yo’l ochadi.

“Hayot bo’stoni”ning yana bir o’ziga xos jihati shundaki, undagi ayrim falsafiy g’oyalar Sharq tasavvuf ta’limotining ideallariga mos keladi. Pahlavon Muhammad tilidan aytilgan “Mastlarni tergashdan tiyil, chunki ular qadahdagi mayda Haq aksini ko’radi”, degan iborasi orqali shunga ishora qilmoqchi bo’ladi.

“Haqning jamoliga erishish, cheksiz Xudoga qo’shilish, jannat”. Asar yaratilgan davr uchun jasorat hisoblangan mazkur satrlar mohiyati o’z-o’zidan

tasavvuf ta'limotining vahdati vujud, ya'ni Haq bilan qo'shilish, birlashish haqidagi g'oyalarini esga soladi. Bu esa hikoyachi-shaxsning qarashlari, fikr va kechinmalari ma'lum ma'noda umumbashariylikka daxldorligini ham ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, umumiy saviyasiga ko'ra "Hayot bo'stoni" asari bilan yozuvchi Lidiya Bat insonning qadr-qimmatini ko'tarishga chaqiruvchi xalqparvarlik, ma'rifatparvarlik bilan sug'orilgan jiddiy tarixiy-falsafiy asar yaratishga muvaffaq bo'ldi. Bu asar badiiy adabiyotda ijtimoiy adolat, ma'rifatparvarlik g'oyalari o'lmasligini va ular yangidan yangi talqinlar tufayli turli zamonlarga xos dolzarblik, ohangdorlik, ta'sirchanlik hamda haqqoniylik qudratini kasb etishini tasdiqlovchi hodisa sifatida maydonga keldi. Mazkur asar tajribasi, shuningdek, yozuvchi mufassal realistik tasvir tamoyillariga ko'proq amal qilganligi uchun ham yanada jiddiyoq muvaffaqiyatga erishuviga imkon tug'dirgan.

Oybekning "Navoiy" romanining aksariyat lavhalari ulug' shoir va mutafakkirning hayot yo'li, ijodiy faoliyati haqidagi o'z fikr-mulohazalari, zamondoshlari yozib qoldirgan manbalar orqali yetib kelgan tafsilotlar bilan mutanosibdir.

Roman nihoyasida keksalik pallasidagi shoirning o'y-kechinmalari tasvirlangan o'rinda Alisher Navoiyning so'nggi yirik asari "Mahbub-ul qulub"dan olingan quyidagi she'r keltiriladi:

Gahi toptim falakdin notavonlig',

Gahi ko'rdim zamondin komronlig'.

Base isig', sovuq ko'rdim zamonda,

Base achchig', chuchuk totdim jahonda.²⁵

Darhaqiqat, mazkur misralar Navoiyning murakkab hayot yo'lini lo'nda va yorqin ifodalovchi hasbi hol xarakterdagi misralardir.

Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma" asarida Alisher Navoiyning to'satdan xastalanib vafot etishi voqeasini tasvirlar ekan, shoirning vafoti tafsilotlari uning she'rlaridagi bir bayt bilan hasbihol, ya'ni hamohang

²⁵ Oybek.Navoiy. - Toshkent."Sharq" nashriyot-matbaa.2012.B.483.

bo'lganligini ta'kidlaydi: “ Sulton Husayn mirzo Astrobod cherikidin yong'onda (qaytganda) Alisher Navoiy istiqbolga keldi, mirzo bilan ko'rushub, qo'pquncha, bir holate bo'ldi, qo'polmadi (o'rnidan tura olmadi), ko'tarib eltdilar. Tabiblar aslo tashxis qila olmadilar (diagnoz qo'ya olmadilar). Tonglasig'a-o'q tengri rahmatig'a bordi. Bir bayti hasbi hol voqe bo'lubtur:

Bu dard ilaki o'larmen, maraz chu zohir emas:

Tabiblar bu balog'a ne chora qilg'oylar.”²⁶

“Navoiy” romanida muallif ana shu hasbi hol tarixiy manbalarda qanday tasvirlangan bo'lsa, deyarli shundayligicha ifodalanadi. Oybek ham Navoiyning so'nggi damlarini tarixiy haqiqatga mos ravishda tasvirlab kelib, quyidagicha xulosalaydi: “shoir o'z kasali haqida to'g'ri aytgan ekan shekilli, kasal soat sayin og'irlashardi. Ertasi, yakshanba kuni, tong chog'ida shoir hayot bilan vidolashdi.”

So'z san'atkorining shaxsi va biografik xususiyatlar uning adabiy mahsuli bo'lmish asarlarida u yoki bu darajada o'z aksini topadi va bu ijobiy hol hisoblanadi. Ayniqsa, lirik janrga mansub namunalarda muallifning dunyoqarashi, orzu intilishi, g'oyaviy yo'nalishlari, qolaversa, insoniy fazilatlarining ifodasini yaqqol his qilish mumkin. Lirik she'r ijodkorning ichki kechinmalari, his-tuyg'ularining, kayfiyatining natijasi, mahsulidir. Lirikaga aloqador asar qalam sohibining qalbi va shuuriga ta'sir ko'rsatuvchi biror voqea-hodisaning turtkisi tufayli yoki shoirni qiynayotgan biror hayotiy muammo asosida vujudga keladi.

Shoir yoki adib ijodining qimmatini uning sof shaxsiy kechinmalari, tasviri bilan emas, balki zamonasining ijtimoiy jihatdan muhim hodisalarini o'zining shaxsiy tarjimai holi faktiga aylantira olishi bilan belgilanadi. Badiiy adabiyotda fikr va his umuminsoniy ekanligini ta'kidlab, akademik Izzat Sulton “lirik qahramon – lirik asarda kechinmalari tasvirlanayotgan kishi, shoirning ustun jihatlarini, ya'ni umumjamiyat uchun qimmatli his va fikrlarni tashuvchi shaxsdir, - degan xulosaga keladi, - u shoir shaxsi bilan estetik idealning quymasi”²⁷ dir.

Omon Muxtorning “Navoiy va rassom Abulxayr” roman-dilogiyasida esa

²⁶ “Boburnoma”. - T.: “Yulduzcha” nashriyoti. 1989. 154-bet.

²⁷ Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. - Toshkent. “O'qituvchi” n-ti. 1980. B. 234-235.

tarixiy shaxs sifatлари mutafakkirning ijod namunalariга hamohang tarzda yoritilib, rassom Abulxayr o'y-fikrlari, Navoiy ijodini o'rganish davomidagi kelgan xulosalari, Navoiy ruhiy olamini teranroq his etishga bo'lgan urinishlari orqali ko'zga tashlanadi: Bu uch holatning har biri Alisherning ulg'ayishida muhim bosqich hisoblangan va butun hayotida chuqur iz qoldirgan muhim voqealardir. Birinchi holat to'rt-besh yashar Alisherning „Mantiq ut-tayr“ maftuni bo'lishi, ikkinchi holat Shohruh Mirzo vafotidan keyin boshlangan besaranjomlik sababli Iroqqa ko'chayotgan Alisherning Taft shahrida buyuk tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashuvi, uchinchi holat esa sakkiz- to'qqiz yashar Alisherning Iroqdan Hirotga qaytishida ot ustida uxlab qolib, bepayon cho'lda adashuvi, chaqanganda ro'parasida katta idishda kimdir hozirgina keltirib qo'ygandek „...muzdek. Tiniq.Toza.Totli.“ Suv - mo'jizaning paydo bo'lishidir. Hikoyachining guvohlik berishicha bu haqida na otasiga, na birodarlariga umrining oxirigacha ham aytmaydi! Va bu mo'jiza xotirani xuddi Sharafiddin Ali Yazdiy bilan bo'lgan totli uchrashuv kabi doimo hayrat bilan eslab yuradi.

Shoirning o'z hasbi holidan kelib chiqib yozilgan she'rlari hayotiylik jihatdan ta'sirli bo'lishini Alisher Navoiy chuqur his qilgan va bu boradagi harakatlarni rivojlantirish, mazmunan boyitish yo'lidan borgan.

Har bir davr adabiyotda o'z izini, xususiyatlarini qoldiradi. Yuqorida aytilganidek, badiiy adabiyot ijtimoiy hayotning in'ikosi, ko'zgusidir. Adabiyot o'zining insonshunoslik funksiyasidan kelib chiqib, o'z qahramonlarini davr, zamon, muhit nuqtai nazaridan tahlil qiladi, muayyan xulosalarni olg'a suradi. Shunday ekan, badiiy so'z san'atkorlari ijodiy mahsulini ularning yaratilgan davri nuqtai nazaridangina emas, bugungi kun mezonlari bilan ham baholash muhimdir.

Inson dunyoga keladiki, nurga, ezgulikka, erkka intilib yashaydi. Odamzot ona yer qiyofasini o'zgartirish uchun ter to'kib mehnat qiladimi, balo-ofatlarni daf etishga urinadimi, zulm va istibdodga qarshi kurashga o'tlanadimi, to'kis kelajak poydevorini yaratish uchun kurashadimi – barcha hollarda ham u jamiyatda o'zligini topishgaa, baxtli yashashga intiladi. Har bir shaxs va u mansub bo'lgan millat uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllanadi. Bu shakllanish jarayonlari

o'ziga xos tabiiy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda kechadi. Shunday qilib, adabiy qahramon yoki uning prototipi bo'lgan shaxsning shakllanishiga u mansub bo'lgan xalqning xo'jalik mashg'uloti, maishiy turmushi, ijtimoiy muhitigina emas, umuman, butun ijtimoiy munosabatlar majmuasi o'z ta'sirini ko'rsatadi. Inson ruhiy-ma'naviy hayotini ana shu ijtimoiy munosabatlar belgilaydi. Badiiy asarda xalq ruhini ifodalash darajasi so'z san'atkorlarining ana shu xalq, mehnatkash omma bilan yaqinligiga bog'liqdir.

Asardagi hayot hodisalarini sinchkovlik bilan kuzatish, asnosida tasvirdagi haqqoniylik tufayli romandagi aksariyat obrazlar g'oyat tabiiy, voqelikka hamohang tarzda yaratilganligining guvohi bo'lamiz. Asarning bosh qahramonlaridan biri, yaratilish davridan kelib chiqib, salbiy qahramonlar sirasiga kiritiladigan Majdiddin obrazi timsolida biz tadbirkor va ishbilarmonni, hukmron doiralar bilan ish yuritishning ko'zini biladigan siyosatchini, har qanday sharoitda o'z foydasi uchun ishlay biladigan kishini ko'ramiz.

Jahon, xususan, o'zbek adabiyotida biror bir adib yo'qki, o'z asarlarida shaxs va muhit masalasiga u yoki bu darajada munosabat bildirmagan bo'lsin. Chunki har bir adib o'z davri va muhitining farzandi sifatida hayot munosabatlaridan chetda turishi mumkin emas. Shu ma'noda atoqli adiblarimizdan Odil Yoqubov o'zining "Hayot saboqlari va ijod mashaqqatlari" maqolasida bir qator e'tiborga loyiq mulohazalarni bildiradi: "Yozuvchi yoki san'atkor bo'lish, tug'ma iste'doddan tashqari, nazarimda yana ikki narsaga bog'liq, - deydi adib. – Biri adabiyotga, kitobga mehr, ikkinchisi adibning boshidan o'tgan voqealar – uning ko'rgan-kechirganlari. Men ijodga kirishar ekanman, hayotda ko'p uchratgan, dilimda chuqur asorat qoldirgan voqea-hodisalarni yozdim".

Xulosa qilib aytganda, tarixga qaytib, undan saboq olishni har qachongidan ko'ra muhimroq ekanligini anglab yetgan ijodkor tarixni, ulkan bir tarixiy shaxs siymosini qaytadan badiiy kashf etadi. Nafaqat badiiy asarga turli davrda turlicha munosabat bildirish, balki tarixiy shaxsga munosabatda ham turli davrdagi qarashlarning o'xshash va farqli jihatlarini o'rganish mumkin. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, badiiy asarda o'tmish voqealari qalamga olinsada, u hamisha

zamon xizmatida bo'ladi. O'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik, ajdodlar xotirasiga hurmat, milliy an'alariga sadoqat ruhida tarbiyalash o'zini millat oldida burchliman deb bilgan har qanday yozuvchini o'ylantiradi. Mana shu burchni o'z asarlariga singdira olgan ijodkor esa hamisha ijodiy niyatiga erishadi.

II. BOB. NAVOIY OBRAZI TALQINIDA DAVR VA QAHRAMON MUAMMOSI

1-fasl. Muallif shaxsi va voqelikka munosabat

Soʻngi yillarda ijodkor shaxs “men”i va inson taqdiri masalasi oʻzbek adabiyotining yetakchi va muhim mavzularidan biriga aylanmoqda. Davr va muhitning badiiy inʼikosi, jamiyat va shaxs munosabatlari talqinlari, kishilar ongi va ruhiyatidagi evrilishlar tasviri badiiy ijodda tobora keng koʻlamli ifodasini topmoqda.

Ijod hamda ijodkor “men”i haqida soʻz borganda, adabiyotshunos Nazar Eshonqulning quyidagi fikrlari oʻrinlidir:” Ijod insonni oʻz mavjudligini ifoda etish usuli...Ijod- insonning cheksiz koinot ichra oʻz ismini, oʻrnini, qadr-u qimmatini anglashga intilishi, isyoni. Ijod Kamyuning Sizifiga oʻxshaydi: tosh pastga yumalashga mahkum etilgan, Sizif esa toshni qoyaga chiqarish qismatiga mahkum. Bu abadiy kurash, abadiy mahkumlik, abadiy kasallik.”²⁸

Ijodkor shaxslar obrazini tarixiy ijodkorlar va toʻqima obraz(ijodkor) tarzida tasniflash mumkin. Tarixiy ijodkor obrazlarda tarixiy haqiqat va biografik maʼlumot masalasi oʻrtaga tushsa, badiiy toʻqimada ijodkor “men”i, badiiy-konseptual yondashuv kabi jihatlar yetakchilik qiladi.

“Badiiy ijod jarayonidagi sanʼatkorning voqelik bilan munosabati, voqelikni OʻZICHA(oʻzining estetik ideali, dunyoqarashi, sajiyasi, madaniy-maʼrifiy darajasi, hayotiy va ijodiy tajribasi, tugʻma isteʼdodi quvvati asosida) qabul qilishi idrok etishi natijasida” ijodiy niyat jarayoni yuz berar ekan, uning badiiy asarda aks etishi ijodkor “men” darajasiga bogʻliqdir.²⁹

Inson voqelik oldida yoki voqelik qiyofasidagi koʻlam oldida juda kichkina, ojiz. Voqelikning zabardastligi odamni qismatning quli qilib qoʻyadi; ijod esa ana shu qullikka isyondir. Shu jihat bilan Omon Muxtorning “Navoiy va rassom

²⁸Eshonqulov N. Mendan “men”gacha. - T:”Akademnashr” 2014.-20-b.

²⁹Quronov D.,Mamajonov.Z.,Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lugʻati. - T.2010.109-b.

Abulxayr” roman-dilogiyasi xarakterlidir. Chunki asarda ijodkorlik bor, Navoiyni suratini bilishga emas, siyratini anglashga bo’lgan qoniqmaslik, isyon mavjud: “Navoiy to’g’risida ko’plab kitoblar yozilgan.

Ammo ko’nglim to’lmadi.

Bularning aksarida u tirik odamdan ko’ra ko’proq devordagi suratga o’xshaydi.”³⁰

Har bir adabiy talqin aslida yuksak darajada qayta ijodiy sayqal berilgan hayotiy material tanlovi sanaladi. Unda real voqelik mavhumligi jonli mushohada obyektini tavsiflaydi. Muallif ijodiy niyati bilan to’yintirilgan pozitiv nuqtai nazar, eng avvalo, xususiyatda aniq mohiyat kasb etadi va mantiqiy aloqada umumiy tasvir tiniqligiga erishadi. Shu tariqa jamiyat quvvat hofizasi hamda davr ruhiyatini yaxlit tasavvurda ifodalash iqtidoriga daxldor badiiy tabdil tabiati muntazam tarzda mukammalashib boradi. Bu bejiz emas, albatta! Negaki, plastik tasvir va dinamik o’sish-o’zgarishlarga moyil tizim mudomi o’z mohiyatini yangilab turishga intiladi. Nisbiy tugal g’oyaviy asos ijod ruhiyatidan muallif dunyoqarashiga o’tadi, estetik ideal hayot haqiqati va badiiy tasvimi muayyan nuqtaga yig’adi. O’z navbatida, asar ruhiyati tagmatni uzviyligi muallif-men-qahramon tafovutlarini birlashtiradi. Aynan adabiy talqinda tajassum topgan psixologik tasvir muhitni baholaydi.

Ijodda realistik tamoyil ustuvorligi shundaki, adib muayyan hodisani poetik idrok etish bilan cheklanib qolmaydi, balki unda ijodiy yondoshuv hamdaunda estetik baholash mezonlarini birlashtiradi. Joriy munosabat tasvir shiddati uyg’unligini ta’minlash barobarida xarakter iroda yo’sini butunligini ham dalolatlaydi. Voqelik keskinligi yoxud ifoda to’qnashuvi badiiy maqsadni aniqlashtiradigan omil, unda muhokama tabiatini anglash tadqiq sahniga chiqadi. Tuyg’u va ongda kechadigan jarayon aslida, bir-birini inkor qiluvchi qutblar, teran falsafagina bu ikki nuqtani jipslashtiradi. Zero, romaniy tafakkur tizimi yaxlitlik asosiga quriladi, adabiy tabdil ziddiyatiyu uyg’unligi

³⁰ Muxtorov O.Navoiy va rassom Abulxayr. - T.2006.7-b.

uning yetakchi badiiy xususiyatiga evriladi. Zotan, janr taqozosi va tahlil madaniyati uyg'unlashuvi uning asosiy ko'rsatkichi.

Ijodkorlarning tarixiy mavzularni yoritishda mahorati turlicha. Ammo ijtimoiy munosabatlar, ma'naviy -iqtisodiy sharoit va ularning odamlar hayotiga ta'sirini adabiy-badiiy talqin qilishga bel bog'lagan asarlar sirasida Oybekning "Navoiy" nomli tarixiy romani ahamiyatlidir.

Mazkur asarda ulug' mutafakkir shoir Alisher Navoiyning badiiy obrazini yaratish jarayonida yaxshilik va yomonlik, ezgulik hamda munofiqlik haqidagi umumbashariy masalalar ko'tarib chiqilgan. Asar qahramoni taqdiri misolida muayyan davr muammolari, odamlar o'rtasidagi munosabatlardagi murakkabliklar, muhit ta'sirida chigallashgan taqdirlar haqida muayyan tasavvurlarga ega bo'lish mumkin. Asarni o'qish jarayonida yaxshi kunlar umidi, porloq kelajak ilinjida turmush qiyinchiliklariga, iqtisodiy yetishmovchiliklarga bardosh bergan, ammo kutilgan yorug' manzillar birin-ketin sarob bo'lib chiqqan kishilar taqdiri qalbimizda achinish uyg'otadi. Sofdil ammo sodda, atrofdagi ayrim qing'irliklar mohiyatini o'z vaqtida tushunib yetolmagan qahramonning murakkab hayot yo'li umr bo'yi astoydil ishongan e'tiqodi – adolatli tuzum va odil hukmdor, gullab-yashnagan jamiyat hamda el-yurt farovonligining amalga oshishidan hafsalasi pir bo'lgan holda yakun topishi qalbimizni larzaga soladi. Har qanday davr va sharoitga ustalik bilan moslasha oladigan, birovlar boshiga tushgan kulfatdan o'z manfaati yo'lida "Otning o'limi – itning bayrami" qabilida foydalanadigan tuban kimsalar esa cheksiz nafratimizni uyg'otadi. Temuriylar davrining oxirgi yillarida bo'lib o'tgan, iqtisodiy va siyosiy bo'hronlar hukm surayotgan paytlarda bo'lib o'tgan bu voqealar kitobxonni o'ylashga, chuqur mulohaza yuritishga undaydi. Bu foni dunyoda diyonatsizlikning, munofiqlikning, yovuzlikning asosiga qurilgan har qanday tuzum, har qanday mafkura hamisha, har qanday sharoitda zavolga mustahiqligiga imon keltirasiz.

Yozuvchi mahorati dastlab voqealarning dinamik rivojlanishida, qahramonlar ma'naviyatidagi evrilishlarning ishonchli tasvirlanganligida ko'rinadi. To'qima obrazlardan hisoblangan oddiy qishloq qizi Dildor, uning seviklisi, dehqonlikdan

sarkardalikkacha yo'lni bosib o'tgan Arslonqul buning yaqqol dalilidir. Dildor To'g'onbekning mash'um qo'llari bilan o'g'irlanishidan boshlangan voqealar rivoji fasldan-faslga rivojlanib boradi. Avval saroy amaldori Majididdin qo'liga o'tishi, keyin esa Husayn Boyqaro saroyiga kanizak sifatida tuhfa etilishi, tutqunlikka bo'yin egmagan jasoratli qizning mash'um shoh saroyidan qochishga urinishi singari voqealar silsilasi bizni o'sha davr muhiti va ijtimoiy murakkabliklari bilan tobora chuqurroq tanishtirib boradi. Dildor obrazi Lidiya Batning "Hayot bo'stoni" asaridagi Zamira obrazi bilan hamohangdek tuyuladi. Chunki har ikki qiz kambag'al oilaning farzandi, har ikkalasi ham yovuz kimsalar tomonidan o'g'irlanadi. Ammo Lidiya Batning qahramoni, garchi Navoiy obrazi qirralarini ochishga muayyan hissa qo'shsa-da, Dildor singari voqealarning dinamik rivojlanishida muhim rol o'ynamaydi. U o'zi singari oddiy bir fuqaroga turmushga chiqadi, farzandli bo'ladi. Eri askarlikka olinib, janglarda halok bo'lgach, o'sha davrning minglab mushtipar va nochor ayollaridan biriga aylanadi.

Dildor obrazi va uning taqdir yo'li esa ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning, o'z zamonasining allomalaridan bo'lgan Sultonmurodning, oddiy fuqarolikdan jangovar navkarlikkacha yo'lni bosib o'tgan Arslonqulning kechmishlari bilan tutashadi. Shuningdek, bir qancha hayotiy muammolar yechimida o'ziga xos kalit rolini ham o'taydi.

"Hayot bo'stoni" asaridagi turli tabaqa kishilarining qismati, umr yo'llari, orzu-umidlari, sa'y-harakatlari yagona g'oya va umid – yurt obodligi, el osoyishtaligi masalasiga borib taqaladi. Demakki, bosh qahramon bo'lgan Navoiy obrazi ana shu ezgu xatti-harakatlarning, nekbin g'oyalarning bayroqdori sifatida maydonga chiqadi.

Balog'at yoshidayoq ana shunday muqaddas e'tiqod uchun intilgan, ham ma'nan, ham jismonan yetuk bo'lishga harakat qilgan, ongli umrini ana shu e'tiqodga bo'ysunib o'tkazgan odamning vaqti kelib, butun mehnatlari, amaliy faoliyati muhit va zamona ta'sirida ro'yoga aylanishini tasavvur qilish qiyin. Ammo muallif asar qahramonini o'rab olgan muhit, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy sharoit doirasida voqelarni rivojlantirib boradi.

Iqtisodiy qiyinchiliklar, oxiri yo‘q yaxshi umidlar qahramon ma’naviyatiga asta-sekin ta’sir qila boshlashini, ruhiyatida mavjud turmush tarzidan norozilik qanday kurtak yoza boshlaganini bir necha epizodlarda uchratamiz. Ana shu ichki o‘ksinish, ezgu niyatlarni amalga oshirishga qo‘lning qisqalik qilishi boshqa ruhiy ta’sir hamda iqtisodiy omillar qatorida uning qalbida o‘zi ham mansub bo‘lgan mavjud tuzumdan norozilik kayfiyatlarini uyg‘ota boshlaydi.

Ana shunday ijtimoiy chigalliklar, ruhiy qiynoqlar uning oldiga yangi-yangi hayotiy muammolarni qo‘yadi.

Bora-bora ana shunday turmush qiyinchiliklari va ruhiy qiynoqlar qahramon faoliyatida ijtimoiy ruh kasb eta boradi. Endi shaxs erki va erkinligi borasidagi, tuzumning bunday ne’matlarni hech qachon bermasligi haqidagi tushunchalar shakllana boshlaydi.

Hukmron doiralarning bu ishlaridan ko‘ngli qanchalik xira tortib, ijirg‘anmasin, qahramon bu holatni hukmdorning “asl haqiqat”dan bexabarligi bilan oqlashga, o‘z-o‘zini yupatishga harakat qiladi. Davr uning bu ko‘yga tushishini mantiqan asoslayotgandek tuyuladi. Ammo zimdan kinoya, ichki norozilik ohanglari bo‘layotgan ishlarga qahramonning munosabatini yaqqol ko‘rsatib turadi. Masalan, Mo‘min Mirzo o‘z bobosi Husayn Boyqaro farmoni bilan o‘ldirilganida Navoiy ko‘nglida yillar davomida yig‘ilgan dard va alamni to‘kib soladi: “Bu mash’um hodisa qarshisida, - dedi u, fikr, mulohaza yuritgan inson afsus va nadomat bilan benihoya dahshatli va olamshumul natijalarga keladi. Fikran asrlarning, davrlarning manzarasiga nazar tashlasangiz, tarix mantiqining ajoyib xulosalarini ko‘rasiz. Qahramonlar, hukmdorlar, jahondorlarning umri bo‘lgani kabi, davrlarning, davlat va saltanatlarning, xonadon va sulolalarning ham umri bor. Daryo-daryo qon oqizib muazzam tarix binosi yaratgan erlar, nihoyat, bir tomchi qonning gunohiga g‘arq bo‘lib, na o‘zlaridan, na azamat tarixlaridan nom-nishon qolmagan. Buning misollarini bizning o‘z tariximizdan ham topmog‘imiz mumkin. Ular hammaga ham ma’lum. Qo‘rqamanki, unday falokatlar qarshisida takror qolmasak edik!”

Yozuvchining voqelikni haqqoniy tasvirlash usullaridan biri shundaki, u voqea-hodisalarni qahramon yashagan tarixiy davr ongi, tushunchasi, tili bilan sharhlaydi. Voqelikka nisbatan salbiy yoki ijobiy munosabatini sezdirmaydi. Chunki muallifning maqsadi biror tarixiy shaxsning qilmishlarini oqlash yoki qoralash emas. Uni manzili qorong‘u yo‘llarga yetaklagan ijtimoiy-siyosiy, hayotiy omillarni xolis talqin qilish. Bu borada muayyan muhitning rolini ko‘rsatib berish. Shuningdek, asar qahramonlarini ham ijobiy yoki salbiy nuqtai nazaridan tavsiflamaydi. Xolis kuzatuvchi sifatida qolishga harakat qiladi.

Qahramon shu tariqa o‘zi e’tiqod qo‘ygan, ishongan, suyanan Husayn Boyqaro qiyofasida nafaqat og‘ir pallalardagi “hamdard”ini, balki g‘oyaviy “rahnamo”sining ham aslida kim ekanligini ko‘ra boshlaydi. Uning sovun pufagidek yorilib ketadigan soxta va’dalarini keltirish bilan o‘zining ezgu niyatlar tufayli qilgan xatti-harakatlarini, umr bo‘yi aldanganini tushuna boshlaydi.

Husayn Boyqaroning ham inson, ham hukmdor sifatidagi tanazzuli, ma’naviy tubanlikka yuz tutishi ijtimoiy muhit, siyosiy voqelik bilan chambarchas bog‘liqligi qahramon tilidan keltirilgan lavhalar orqali o‘z tasdig‘ini topa boradi. “ – Har nechuk falokatni daf etmoqqa g‘ayrat qilmoq kerak, - dedi Navoiy qat’iy, ishonchli ovoz bilan, - muborak vatanning, el-ulusning salomatligi uchun fidokorlik ko‘rsatmoq vazifamizdir. Sizdan tilagim shulki, bir-birimizga, davlatga, yurtga vafo, sadoqat, muhabbat bilan bog‘lanaylik. Vafo va muhabbat ulug‘ qudratdir. Bu qudrat bilan to‘la ko‘ngillar hayotni nurlaturlar, ular falokat darvozalariga sad sekib, saodat darvozalarini ochurlar...”³¹.

Bu so‘zlari bilan u turmush qanchalik qiyin, hayot sinovlari naqadar qaqshatqich bo‘lmasin, inson o‘z qismatini o‘zi belgilay oladi, insoniylikni asray bilish, or-nomus uchun kurasha bilish ham ma’naviy-ruhiy yetuklik bilan, iroda hamda matonat bilan bog‘liq, demoqchi bo‘ladi.

Shu ma’noda adabiyotshunos B.Sarimsoqovning quyidagi xulosalari o‘rinlidir: “ Inson tafakkurining qudrati cheksiz, uning ko‘lami va imkoniyatlari chegara bilmaydi. Fikr va xayolning samarador bo‘lishi uchun ijodkorda muayyan

³¹ Oybek.Navoiy. - Toshkent.,”SHARQ”,2012.453-bet.

ijodiy niyat, izchil konsepsiya bo'lishi kerak. Ijodiy niyat esa u yoki bu darajadagi o'zgarishlarga uchragan maqsaddan iboratdir.”³²

Ammo nima bo'lganda ham Oybek mazkur asari orqali e'tiqodning inson ma'naviyatida tutadigan o'rniga o'z bahosini beradi. E'tiqod ham hayot maktabi ekanligini, odamlarga najot vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkinligini badiiy ifodalashga harakat qiladi.

Professor Y.Solijonov tomonidan “Oybekdan keyin ulug' Alisher Navoiyning monumental qiyofasini yaratish yo'lidagi buyuk jasoratdir”,³³-deya ta'riflangan Omon Muxtorning “Navoiy va rassom Abulxayr” roman-dilogiyasi ijodkor shaxsning o'z ichki “men”ini ifodalash borasida katta ahamiyatga ega.

Lidiya Bat ham ,Omon Muxtor ham –ijodkor. Ularning asarlaridagi Navoiy obrazi ham ijodkor. Ammo mana shu obrazning talqin etilishidagi o'ziga xosliklar bu ikki adibning ijodiy niyati hamda mahoratidan kelib chiqqan holda ayrichadir.

Ayni paytda, janriy raqobat badiiy vazifadoshlik imkoniyatlarini cheklaydi. Buyuk rus munaqqidi M.M.Baxtin roman xususiyatlari tafovutini uchga ajratadi: birinchidan, anglash tizimi rang-barangligiga bog'liq va unda in'ikos topadigan uch uslubiy o'lcham ifodasi, ikkinchidan, asarda adabiy obrazning vaqtinchalik miqyoslari tub o'zgarishlar hosilasi, uchinchidan, zamonaviylik va uning tugallanmagan mohiyatiga maksima yaqinlashadigan adabiy obraz yangi mintaqasini tashkil etish vositasi.³⁴ Ta'rifda bir nechta nuqtalar mavjud: dastavval, oliy shakl – asar tili ong nutqiy sarhadlarini kengaytiradi, ikkinchidan, matnda badiiy makon va zamon ijodkor fitratiga bo'ysundiriladi, uchinchidan, yangi adabiy voqelik ijtimoiy borliq bilan bo'ylashadi. Unda hayot haqqoniyligi va tasvir haqqoniyligi bir-biriga tutashadi. Aniqrog'i, obyektiv mohiyat mavhumligi va sub'ektiv ibtido uchinchi qutb –badiiy munosabatni shakllantiradi.

Omon Muxtor Navoiyni talqin etish jarayonida ijtimoiy muhitning mutafakkir ruhiyatiga ta'siri masalalariga e'tibor qaratadi, ya'ni ijtimoiy muhitning inson

³² Sarimsoqov B. Badiylik asoslari va mezonlari. - Toshkent.2004. 86-bet.

³³ Solijonov Y. Mo'jizalar sehri. - T.,”Adib”,2013.54-b.

³⁴ Baxtin M.M. Literaturno-kriticheskie stat'i. – M.: Xudojestvennaya literatura, 1986. –S. 399.

ruhiyatidagi hosilasi tahliliy , emotsional-ekspressiv tasvirlanadi. Lidiya Bat esa Navoiy obrazini tarixiy jarayon bilan hamnafas holatda tasvirlaydi, uni siyosiy jarayondagi vazifalariga ko‘proq to‘xtaladi, garchi ko‘ngli ijod etishga mushtarak turgan bo‘lsa-da, sulton Husaynning davlat ishlariga Navoiy yordam berishi kerakligini har lahza yodda tutadi: “Navoiy qizarib borayotgan osmonga boqdi: ertalabki musaffo havoda uning yuzini ham qizillik qopladi. Misralar o‘zidan-o‘zi quyilib kela boshladi:

Vah ki chamandan yana esdi shamol o‘zgacha,

Har dam o‘lur atridin ko‘ngluma hol o‘zgacha.

Qani endi qo‘liga qalam olsa-yu, so‘z gavharlarini qog‘oz betiga tiza boshlasa. Ammo uni kechiktirib bo‘lmaydigan davlat ishlari kutmoqda... ”³⁵.

Omon Muxtor Navoiyni insoniylik fazilatlariga, ichki kechinmalariga, ijodkorlik mahoratining mohiyatini yaqindan o‘rganib, asardan ko‘zlagan g‘oyaviy maqsadi: NAVOIYNI ANGLASHga bo‘lgan harakatini ifoda etishga urinadi hamda kitobxonga Navoiy siyratini his etishga yordam beradi: “ Umuman, Alisher doim Xudo nazdida banda bo‘lgan (shohmi, gadomi?) barchaga mehr-shafqat bilan qarar, YAXSHILIK istar, odamlar bilan ODAMIY MUNOSABATni o‘zi uchun QONUN deb bilar edi(*“Davron elining jismida-ham jon bo‘lg‘il, ham jonlarig‘a- moyai davron bo‘lg‘il”*). U FAOLIYATSIZ bir kun yashamagan edi! Atrofidagi odamlarning g‘am-tashvishiga aralashar, har kimni imkon qadar baxtli qilish, jilla qursa, xursand (shod) qilish, falokat yo malomat girdobiga tushgan bo‘lsa, yordam qo‘lini cho‘zishga odatlangan edi. Bu yo‘lda hech narsani – vaqtini, salomatligini ham, mulki-davlatini ham darig‘ tutmas edi”.³⁶

Adib romaniga xos xususiyatlardan biri ruhiy tahlil teranligi bilan izohlanadi. Muallif badiiy talqin zamirida inson to‘g‘risida xayolot – hayotda mujassam og‘riq nuqtalar, bezovta tuyg‘ularni qarama-qarshiliklar silsilasida aks ettiradi. Odamzod tabiatini ro‘yirost tasvirlash yozuvchi estetik tamoyillarini belgilaydi. Shu bois, uning achchiq haqiqatlari kitobxonga malol

³⁵ Bat Lidiya. Hayot bo‘stoni. - Toshkent. 1968.194-b.

³⁶ Muxtorov O.Navoiy va rassom Abulxayr. - T.2006.212-b.

keldi, san'atkor adabiy mahorati – jamiyat va hayot haqqoniyliги nuqtalarini aniq ilg'ay olishida, qahramon ma'naviy olamini to'g'ri tabdil etishida, shaxs manfaat va qiziqishlarini yagona estetik maqsadga yo'naltirishida, insoniyat mas'uliyati, ma'naviy va ma'rifiy sajiyani shakllantirish iqtidorida to'liqonli namoyon bo'ladi.

Adib o'z tasavvuridagi Navoiyning yigitlik chog'ini ta'riflar ekan, unga yoshlikning gulgun davridagi holatlar orqali tavsif berishga urinadi: "Alisher kelishgan yigit. Chiroyli! Yuзи nurli. Ko'zlari chaqnagan. Porlagan! Xushqomat. Odimi tez. Harakati epchil! Uning o'zini tutish odobi ayniqsa maftun etadi." Darhaqiqat, adib Navoiy va Guli muhabbatining tarixiy haqiqatini ayni kuchga to'lgan yosh yigitning holatidan izlashga urinadi va shunday fikrda to'xtaladi: "...u (Navoiy) o'z hayotini(dunyo "ko'rki"ga maxliyo bo'lishdan saqlanibmi, nafsini tiyibmi?!) ongli ravishda YOLG'IZLIK va HIJRON "ilkida" o'tkazadi!"³⁷

Inson hayoti aslida voqelik teranligi hosil qiladigan ruhiy kechinma, tasavvur va taassurotlar yig'indisidan iborat. Hodisot uzviyligini bir-biriga mantiqan payvandlash, muayyan qismlarni yetakchi g'oyaviy markazga ulash, ijodiy niyat muntazam o'zgarib turishiga hamohang ichki tugallikni ta'minlash ijodkor adabiy mahoratini taqozo etadi. So'z yoki tasavvur katta badiiy umumlashmani bera olish layoqati muallif ijodiy miqyoslari kengligini tasdiqlaydi. Shu nuqtai nazardan, «adabiy asarning mazmunidagi salmoqdorlik» hayotiy qamrov darajasi teranligidan oziqlanadi. Hissiy tafakkur hamda estetik qamrov uyg'unligi ruhiy tavsif uslubiy-vazifaviy xususiyatlarini rasman sharhlaydi. Muallif aksar o'rinlarda shaxsiy mayl va ijtimoiy a'molni bir-biriga qorishtirib yuboradi. Qahramon turmush tarzini qayta tiklash hamda ongda yaxlitlashtirishda san'atkor ikki qatlam – ichki olam va tashqi muhit mutanosibligini tadqiq sahniga chiqaradi. Inson – sir-sinoatlarga daxldor sub'ektiv omil, ijtimoiy voqelik hamda haet manzaralari uning psixologik mohiyatini imtihondan o'tkazadi. O'z navbatida, adabiy talqin shaxs bevosita

³⁷ Muxtorov O.Navoiy va rassom Abulxayr. - T.2006.87-88-b.

atrof-muhitdan olgan taassurotlarini uyushtirishga urinadi hamda holat-harakat uzluksizligini estetik baholashga yo'naltiradi

Shuningdek, roman janrini "umumlashtiruvchi bitta jihat bor: ularda yaratilgan badiiy voqelik – u xoh haqiqatga monandek tuyulsin va xoh mutlaqo xayoliy, mayli goh ertakka, gohi mifga tortib ketsin-u goh hujjatli asosga egadek ko'rinsin – bulardan qat'iy nazar, mualliflari uchun jamiyatning joriy holatini badiiy idrok etish va shu asosda olamu odam mavjudligining mohiyati haqidagi o'z qarashlarini tizim holida, yaxlit badiiy falsafa tarzida ifodalash uchun bir vositadir. Ayni shu narsa ularni an'anaviy romanning vorisiga, uning bugungi kundagi ko'rinishiga aylantiradi. Sirasini aytganda, an'anaviy roman uchun muhim sanalgan "qahramonva muhit konflikti", "qahramonning ma'naviy-ruhiy izlanishlari" kabi tushunchalar "yangi roman»da izsiz yo'qolgani ham yo'q, ular muallif shaxsi tomon siljidi (albatta, siljish darajasi turlicha), xolos".³⁸ Negaki, yangicha adabiy tafakkurda jamiyataro shaxs ziddiyati emas, balki ong va tuyg'u tovlanishlari tahlillanadi. Vaholanki, realistik tasvir obyektga daxldorlik kasb etish barobarida munosabatli nutq pozitivligini ham barqarorlashtiradi. Prof. D.Quronov badiiy voqelikning mazmun-mohiyati vazifadoshlikdan o'sib chiqishi, alal-oqibatda yaxlit badiiy falsafaga evrilishiga mantiqiy urg'u beradi. Hayot haqiqati va badiiy to'qima nisbati aynan, ishora hamda ifoda tig' izligiga tutashadi. Unda tasvir haqiqati hamda ifoda xususiyati bir-birini to'ldiruvchi tahlil predmetiga aylanadi.

Ijodkor shaxsi tomon siljigan «yangi roman» nazariyasi realistik tasavvurni tubdan yangilaydi. Ijtimoiy munosabatlarning hozirgi bosqichini idrok etishdan, majoziy yo'sinda davr ruhiyatiga munosabat bildirishgacha masofa olamu odam mavjudligi psixoanalitik mohiyatini yig'ishga xizmat qiladi. Istiloh muayyan idrokka bo'ysundirilgan muloqot shakllarini jilvalantiradi. Aynan, tasvir, talqin va tahlil tig' izlashuvi estetik munosabatlar hosil qilishi ijod malakasi takomilini ko'rsatadi.

³⁸ Quronov D. Roman haqida ayrim mulohazalar// SHarq yulduzi. №5. 2011. –B. 116.

Darhaqiqat, har qanday badiiy asar ham aniq bir hayot haqiqatini ro'yobga chiqarish uchun xizmat qiladi. Bunda yozuvchining iste'dodi, mahorati va matonati eng muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, "Iste'dod-murakkab ijtimoiy muhit. Iste'dod-yozuvchining ijodiy kuchlari kompleksi va uning ijod qilish ishtiyoqi, shunga layoqati, qobiliyati"³⁹. Shuning uchun ham iste'dodi yuksak adiblar asarlarida o'z davrining ma'naviy qiyofasi yaqqol aks etib turadi.

Xulosa qilib aytganda, yozuvchining o'z nigohi bo'ladi va u har bir voqea va hodisani mana shu nigohi orqali ko'radi. Tarixiy mavzuda asar yozayotgan ijodkor ham har bir voqeani o'z nigohi bilan ko'radi va baholaydi. Bu "nigoh" yozuvchi o'z oldiga qo'ygan maqsadi, asarning konseptidan kelib chiqadi. Shu bois ba'zan tarixiy aniqlik bilan yozuvchi talqini o'rtasida ma'lum bir farqlar yuzaga keladi. Shunday ekan, muallif, shaxsning taqdirida ijtimoiy-ruhiy munosabatlarning axloqiy-ma'naviy xususiyatlarini yoritishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Aytish mumkinki, adiblarimiz ushbu asarlari orqali o'z oldiga qo'ygan g'oyaviy-falsafiy vazifalarini ado etishga muyassar bo'lganlar.

³⁹ Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. - T.: O'zbekiston, 2002. -B. 63.

2-fasl. Navoiy obrazi talqinida tip va tipiklashtirish

Navoiy obrazi talqinida tip va tipiklashtirish xususida fikr yuritar ekanmiz, “tip” hamda “tipiklashtirish” terminlariga to‘xtalib o‘tish lozim. Tip-badiiy obrazning umumlashtirish darajasiga ko‘ra turlaridan biri, insonning muayyan tarixiy davr va undagi konkret ijtimoiy muhitga xos umumiy xususiyatlarni o‘zida mujassam etgan umumlashma obrazdir. Tipiklashtirish esa umumiylikning individuallashtirish orqali ifoda etilishi, konkret badiiy obraz (voqea-hodisa, hayotiy holat, xarakter va sh.k.)da muayyan davrga xos umumiy(tipik), xarakterli xususiyatlarni mujassamlagan holda aks ettirish, adabiyot va san’atdagi voqelikni badiiy idrok etish prinsplaridan biri.

Ijodkor hayotni badiiy ifodalashda voqea-hodisalardan eng muhimlarini saralab, tanlaydi. Ko‘pchilik odamlar, narsalarga xos bo‘lgan yetakchi jihatlarni ayrim odamlarda, narsalarda mujassamlaydi. Ya’ni yozuvchi hayotdagi voqea-hodisalarni umumlashtirib, quyuqlashirib badiiy talqin etadi. Bu hodisa tipiklashtirishdir. Tipik holat va obrazlar voqelikni haqiqiy tasvirlashga imkon beradi.

Umumlashtirish, tipiklashtirish badiiy asardagi hamma komponentlarda-voqea-hodisalar, manzaralar tasviri, narsa va predmetlar hamda hayvonlarni tasvirlashda, kayfiyat va holatlarni berishda ham amalga oshiriladi. Ayniqsa, asarda tasvirlangan inson obrazlarini tipiklashtirish muhim ahamiyatga egadir. Yozuvchi o‘z asarida biror shaxsni tasvirlar ekan, unda shaxsga mansub bo‘lgan butun bir toifaga xos xususiyatlarni shu qadar mujassamlaydiki, natijada u kitobxonda butun bir millat sinf yoki guruh to‘g‘risida tasavvur beradi. Badiiy asardagi barcha persanajlarda ma’lum darajada ana shunday xarakterli xususiyatlar mujassamlangan bo‘ladi. Umumiy xususiyatlarni eng ko‘p va kuchli mujassamlangan inson obrazlari tip deyiladi. Tipiklashtirish ijodning qonunlaridan biri, usiz ijodning o‘zi mavjud emas.

Buyuk shaxslar obrazlarini yaratishda tipiklashtirish tamoyili mavjuddir. Unda bunday shaxslarni tarixni o‘zi tipik qilib yaratgan. Bunday shaxslar

obrazlarini yaratishda yozuvchi birgina asarda tarixiy shaxs xarakterining barcha tomonlarinigina ocha olmaydi. Masalan, “Hayot bo‘stoni” qissasida L. Bat Navoiy obrazini gumanist sifatidagi tomonlarinigina ochgan xolos. Ammo Omon Muxtor Navoiy obrazini ham insonparvar, ham ijodkor shaxs sifatida, ham “o‘zgacha inson” qiyofasini tasvir etish bilan muallif hamda hikoyachi-qahramon nigohi bilan talqin etadi: “O‘zni o‘zgacha ko‘rsatish-oson .

O‘zgacha bo‘lish-oson emas.

Alisher umr bo‘yi odamlar orasida “o‘zgacha bo‘lib”yashadi.

Bu –taqdir belgisi, tug‘ma tarbiyasi yoki avvaldan o‘zi shunday shakllandimi?!- harholda, u yoshlikdan hamma narsani Adolat va Haqiqat mezonida o‘lchamga o‘rgandi. Bir og‘iz yolg‘on ishlatmadi. Husayn u to‘g‘rida bekordan: “Haq so‘z adosida daler(o‘ktam)”demagan edi. ISHQ bobida uning barcha aytganlari, yozganlari ham rost! Axir, bunga fahmi yetmaganlarga qat’iy degan edi:

Kishi O‘ZUN YASAG‘ON birla bo‘lurmu OSHIQ?!”⁴⁰ Adib tarixiy siymo - Navoiyni zo‘rlab zamonaviylashtirmaydi, unga yo‘q sifatlarini yopishtirmaydi. Bir so‘z bilan aytganda, uni ideallashtirish fikridan hamisha yiroqda turadi. Chunki, muallifning o‘zi qayd etganidek, “turli dolg‘ali davrlarda bu ulug‘ zot nomi yerga ham urilgan, ko‘kga ham ko‘tarilgan. Bugun shoir va mutafakkirni qanday bo‘lsa shundayligicha qabul qilishimiz, asarlarni kitob javonlari va tokchalardan qalbimiz hamda shuurimizga ko‘chirish pallasini yetdi. Uning ojiz tomonlari ham biz uchun aziz - hamdard va hamfikirligimiz ortadi, ustun jihatlari ham qadrli-ibrat maktabi bo‘lib xizmat qiladi”.

Romanlardagi boshqa qahramonlar ham Navoiy siymosining yaxlitligini va takomiliga xizmat qiladi va shoirni yanada chuqurroq anglashga yordam beradi. Xususan, Husayn Boyqaro obrazi o‘zining hayotiy va haqqoniyligi bilan diqqatga sazovordir. Uning ulug‘ inson, qudratli shoh, xassos shoir, Navoiyning sirdosh do‘sti ekanligi haqida ko‘p gaprilgan. Ojiz va notavon jihatlari haqida ham yetarli tushunchaga egamiz. Ammo uning xarakteridagi eng muhim jihat „yarq“ etib ochilgan emas - u mustaqil fikrdan yiroq kishi. Yonida Navoiy tursa, u zukko

⁴⁰ Muxtorov O.Navoiy va rassom Abulxayr. - T.2006.157-158-b

shoir, adolatli hukumdor, mo‘tabar siymo. Xadicha beginga suyansa, kaltabin ota, noshud va notavon er, xatto qotil kimsa. Majididdin, Nizomulmulk sihgari makkorlar davrasida esa qo‘g‘irchoq hukumdor. Shuning uchun ham, muallifning quyidagi keskin xulosasini ma'qullamay iloj yo‘q:

„Alisher - Husayn davrida yashagan shoir emas, Husayn - Alisher davrida yashagan shohdir!’’.⁴¹

Tiplar turli xil bo‘ladi:

- ma’naviy- axloqiy tiplar;
- tarixiy tiplar;
- sinfiy tiplar;
- milliy tiplar;
- ideal tiplar.

Tarixiy tiplar bu o‘zida muayyan tarixiy davrning xususiyatlarini mujassamlashtirgan tiplar bo‘lib ular o‘sha davr xususiyatlarining tashuvchisi bo‘ladilar. Masalan, Husayn Boyqaro, Majididdin hamda tarixchi Mirxond va Xondamir kabi tarixiy shaxslar: “Bu tarixchilarning ajdodlari buxorolik. Mirxondning otasi Sayyid Burhonuddin Xovandshoh yoshligida yetim qolib, Buxorodan Balxga kelgan edi. Bu yerda u ta’lim olib, keyinchalik turli ilmlarda donishmand bo‘lib tanilgan, hayoti asosan ikki shahar – Balx va Hirotda kechgan edi.

Mirxond Hirotda tug‘ilgan, ammo ajdodlarini eslabmi, o‘zini buxorolik, der edi. U Alisherdan sakkiz-o‘n yoshlar chamasi katta. Shunga qaramay, Ulug‘ Amirning etagini tutgan, umrini uning homiyligida o‘tkazgan edi.

Xondamir Alisherdan o‘ttiz-o‘ttiz besh yoshlar chamasi kichik bo‘lsa-da, u ham zamondosh, hatto Ulug‘ Amirning tarbiyasida voyaga yetgan. Uning kutubxonasida xizmat qilib, topshirig‘i bilan tarixdan qator asarlar yozgan edi.

⁴¹Muxtorov O.”Navoiy varassom Abulxayr”. - T.2006.106-b.

Xondamir bobosi tugatolmagan yozuvlarni tartibga keltirgan, oxiriga yetkazgan”.⁴²

Odatda tip ikki xil bo'ladi - ijtimoiy tip va adabiy tip. Ijtimoiy tip-hayotda, adabiy tip-adabiy asarda bo'ladi. Ma'lum ijtimoiy-siyosiy hodisaning mohiyatini o'zida ifodalagan shaxslargina ijtimoiy tiplardir. Demak, hayotda ijtimoiy qiymatga ega bo'lgan xislatlarga tipik bo'lar ekan. Odatda ijtimoiy tipda jamiyat taraqqiyoti tendensiyalari o'z ifodasini topadi. Shu ma'noda hayotdagi yetakchi kuchlar tipik bo'ladi. Ammo taraqqiyotga halal berayotgan, demakki, ijtimoiy qiymatga ega bo'lgan kuchlar ham tipik bo'la oladi. Umuman aytganda, ijtimoiy-siyosiy kuch mohiyatini umumlashtirib berish -ijtimoiy tip uchun ham, adabiy tip uchun ham mushtarak xislatdir. Lekin bunday mushtaraklikdan tashqari, ijtimoiy tip bilan badiiy tipning jiddiy farqlari bor. Masalan, ijtimoiy tipda faqat ijtimoiy kuchning mohiyati ifodalanadi. Badiiy tipda esa shu mohiyat ifodalanuvchi individual holatlarga ham katta e'tibor qilinadi. Badiiy obraz orqali hayotdagi muhim, muqarrar, qonuniy, tabiiy hodisalarni umumlashtirib ifodalash — tipiklashtirishdir. Demak, hayotdagi umumiy, qonuniy, tabiiy ijtimoiy narsalar — ijtimoiy tiplar san'atda to'la individuallashtirilgan va konkretlashtirilgan xarakterlar orqali aks ettirilgan ekan.

Tipiklashtirish qonuniyati, asosan, uch jarayondan iborat: hayot, birinchidan, umumlashtiriladi, ikkinchidan, sintezlashtiriladi va uchinchidan, individuallashtiriladi. M.Gorkiy umumlashma deganda adabiyotda mazmunni quyushtirish, chuqurlashtirish va qiymatini oshirish, asrlar davomida qiymatini yo'qotmaydigan qudratga ega bo'lish usullarini ham nazarda tutadi. Mana shu ma'noda tipiklikni badiiy haqiqat bilan bog'laydi: badiiy haqiqat tipiklashtirish mahsulidir. Badiiy haqiqat, garchi hayot haqiqati asosida yaratilsa-da, uning aynan o'zi emas — hayot haqiqatining qayta ishlangan, quyultirilgan, go'zallashtirilgan shakli. Demak, bu o'rinda tipiklashtirishning yana bir muhim xususiyati aniqlanadi: bu xususiyat shundan iboratki, badiiy haqiqat real hayot hodisasidan yuqoriroq turadi. Bundan M.Gorkiy san'atning asosiy vazifasi voqelik ustidan

⁴² Muxtorov O.Navoiy va rassom Abulxayr. - T.2006.162-163-b

yuqori ko'tarilishdir, degan xulosaga keladi. San'atning voqelikdan yuqori ko'tarilishi tipiklik qonuniyatidan kelib chiqishi zarur. Shundagina tipiklashtirish— voqelikni bilish va aks ettirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi: "voqelikdan yuqori ko'tarilish" usuli voqelikka zarar yetkazmasligi, san'atni voqelikdan ajratib qo'yimasligi, aksincha, voqelikni badiiy o'zlashtirishning zaruriy usullaridan biri bo'lishi kerak. San'at oldiga voqelikdan yuqori ko'tarilish vazifasi qo'yilar ekan, bu holda adabiy tipda badiiy to'qima, ijodiy fantaziyaning ahamiyati nihoyatda katta bo'lishi mutlaqo tabiiydir. Tipiklashtirish, M.Gorkiyning uqtirishicha, faqat umumlashtirishdangina iborat emas, ayni chog'da, voqelik zaminida paydo bo'luvchi badiiy sintez hamdir. Tipiklashtirish - hayotdagi muhim hodisalarni umumlashtirish va sintezlashtirishdan tashqari, ularni to'la individuallashtirishni, konkretlashtirishni ham taqozo qiladi. Individuallashtirish - tipiklashtirishning muhim sharti. Demak, individualliksiz badiiy obrazni tasavvur ham qilib bo'lmaydi. Zero, Navoiy, Majididdin kabi obrazlar o'zlari mansub bo'lgan ijtimoiy kuch - ijtimoiy guruhlarining mohiyatini chuqur ifodalaganliklari uchungina emas, balki individual xislatlari bilan ham yorqin adabiy tiplardir. Shunday qilib, tipiklashtirish - muayyan ijtimoiy kuchning eng muhim belgilarini umumlashtirib, sintezlashtirib va individuallashtirib tasvirlash san'ati. Takrorlanmas va individual xislatlardan mahrum bo'lgan obraz oddiy sxema va aksincha, umumlashmasiz obraz - oddiy fotografik suratdir. Har ikkala holda ham "obraz" san'at doirasidan chiqib ketadi. Zero, "obraz - hayotiy hodisalarni individual shaklda umumlashtirib berish demakdir". Tipiklashtirish, asosan, badiiy obrazlar yaratish jarayonida voqe bo'lar ekan, bu borada ham obraz yaratish qonuniyatlari o'z kuchini namoyish etadi.

Obrazlarning rang-barangligi, estetik boyligi, ko'p qirraligi -hayotning murakkabligi taqozosidir. Obrazlarning rang-barangligi konkret tarixiy vaziyatdagi inson harakatlarini haqqoniy tasvirlash natijasi. Bu -tipik sharoitni qahramonning bevosita intellektual olami, xatti-harakatlari, urf-odatlari, muomala-munosabatlari orqali badiiy ifodalash demakdir. Yozuvchi rang- barang obrazlar yaratishda, har bir obrazni ko'p qirrali, takrorlanmas xislatlar sohibi sifatida ko'rsatishda, albatta,

hayot harakatiga asoslanadi. Aks holda, turmush dialektikasini, hayot evolyusiyasini buzib ko'rsatuvchi sxematik obrazlar yaratiladiki, bunday obrazlar kitobxon qalbiga yo'l topa olmaydi. Badiiy yetuk obrazlar yaratilgan asarlar esa haqiqatan ham hayot va harakatlarni o'z ichiga oladi. Shunday asarlar va ularning qahramonlari kitobxonning qalb ko'zgusida naqshlanib qoladi, uni estetik jihatdan boyitadi. Chunonchi, L.Batning "Hayot bo'stoni" qissasi, Oybekning "Navoiy" hamda Omon Muxtorning "Navoiy va rassom Abulxayr" roman-dilogiyasini tarixiy shaxs obrazi mavzusida yaratilgan hamda xarakter muammolari izchil yechimini topgan eng yaxshi badiiy asarlar sirasiga kiradi deb aytish mumkin. Ammo bu asarlar yaratilish davri, janriy xususiyatlari hamda yozuvchilarning mavzuni yoritishdagi uslubi bilan bir-biridan tubdan farq qiladi. Shu o'rinda aytish kerakki, rus adibasi L.Batning "Hayot bo'stoni" qissasi hamda Oybekning "Navoiy"romani voqea-hodisalarni saroy muhiti, davr nuqtai-nazaridan yoritish bo'yicha bir-biriga yaqin tursada "Hayot bo'stoni" qissasida urg'u Navoiy yashagan davr muhitiga ko'proq berilsa, "Navoiy" romanida nafaqat saroy muhitiga, balki Navoiyning insoniylik fazilatlarini, hamda shaxsiyatiga yaqinlashish mavjud. Shu nuqtai nazardan yozdoshganda asarlar o'rtasidagi yutuq va kamchiliklar yaqqol ko'zga tashlanadi. Ammo bulardan farqli o'laroq Omon Muxtor asarida esa Navoiyning anglashga , Navoiy siyratini kashf qilishga intilish, ijtimoiy muhitning Navoiy ruhiyatiga ta'siri masalalari orqali kitobxonni yangicha o'y-xayol, tasavvur va fikrlar girdobi tomon yetaklashi bilan xarakterlidir.Yuqoridagi ikki asarda kitobxon Navoiy yashagan davr muhiti bilan hamohang buyuk mutafakkir haqida tushunchaga ega bo'lsa, roman-dilogiya bilan tanishish oqibatida Navoiy shaxsiyatini yanada yaqindan anglash va tahlil qilishga to'g'ri keladi. Lekin masalaning ikkinchi tomoni borki, bu uchala asar ham Navoiy orazini talqin qilish nuqtai-nazaridan ahamiyatlidir.

Oybekning "Navoiy" romani hamda Omon Muxtorning "Navoiy va rassom Abulxayr " roman-dilogiyasida Navoiy tipik obraz sifatida ko'zga tashlanadi. Tip turlarining buyuk shaxslar obrazini tipiklashtirish turiga kiradi: " Shaxs- Katta Bo'lgani sayin, Bir Xil Holatdan KO'P HOLATLARga qarab boraveradi. Goh

tashqi, goh ishki, , goh ishki va tashqi HOLAT qarama-qarshiligi (ZIDDIYAT) Insonning Buyukigini belgilaydi... Alisherning “muloyim” ligi (“xafaqon” ligi) yashirin tug‘yonlar(boy, rangin Holat) oldida tortilib turgan pardadir. Menga rassomlar hali “parda orqasiga” o‘tmagandek tuyuladi”.⁴³

“Navoiy” romani voqealariga turtki beruvchi asosiy hodisalar nurab borayotgan temuriylar hukmronligining so‘nggi yillaridan boshlanadi. Iqtisodiy bo‘hronlar, bosh-boshdoqlik, odamlarning asta-sekin tabaqalarga ajrala boshlashi, nihoyat, Husayn Boyqaro saltanatida ma’naviy va siyosiy inqirozning boshlanishi pallalaridagi ijtimoiy-maishiy hayotda ro‘y bergan voqea-hodisalar asar yaratilishiga turtki bergan omillarni tashkil qiladi. Ana shunday sharoitda tarixiy davrning yangi qahramonlari maydonga chiqa boshlaydilar. Albatta, bunday yangi qahramonlar hali eskicha tushunchalardan, dunyoda odil hukmdorlargina adolat o‘rnatishi mumkin, degan aqidalardan xalos bo‘la olmagan,

Demak, asar qahramoni bo‘lgan Navoiy nafaqat o‘zi mansub bo‘lgan muhitini, balki odamlar psixologiyasini ham chuqur biladigan, turli toifadagi hamda turli xarakterdagi kishilar bilan tezda til topisha oladigan tarixiy shaxs sifatida bizning ham e’tiborimizni tortadi. U zamona zayli, tirikchilik taqozosi bilan har qanday pastkashlikdan qaytmaydigan Majididdin singari mansabdorlardan, To‘g‘onbek kabi kimsalardan keskin farq qiladi. Ayrim o‘zini daho deb hisoblaydigan, o‘z manfaati ketidan tinmay halloslab, o‘zining insoniylik qiyofasini yo‘qotib qo‘yadigan kimsalar toifasidan emas.

Shu ma’noda ezgulik va halollikni hayot mazmuni deb biladigan yana bir necha kishilar asarga qahramon qilib olingan. Ular asosiy qahramonning fe‘l-atvori, axloqi va dunyoqarashidagi nurli tomonlarni bo‘rttirishga xizmat qildirilgan deyish mumkin. Ulardan biri Arslon ismli oddiy xalq vakili bo‘lgan yigit bo‘lsa, yana biri odamlarga firib berishda ustasi farang, boshqalarning boshiga kulfat keltirishdan toymaydigan To‘g‘onbek. Biz aynan Arslon obrazi orqali qanchalik o‘jar va qaysar bo‘lmasin, uning aslida ichki olami boyligi,

⁴³ Muxtorov O.Navoiy va rassom Abulxayr. - T.2006.45-b.

nafsoniyati kuchliligini, insoniy oriyatni har narsadan ustun qo‘ya olishini bilib olamiz.

Majdiddin ham ana shunday tuban va qabih kimsalardan bo‘lib, birinchidan, o‘sha davr muhitidagi manfaatparast, razil kishilarning tipik timsoliga aylangan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, asar qahramoni –tarixiy shaxs Alisher Navoiy xarakteridagi biz bilmagan, biz kutmagan ijobiy qirralarni kashf etishimizga, u haqdagi dastlabki tasavvurlarimiz yanada boyishiga olib keladi. Asarda u tip darajasida namoyon bo‘ladi.

Gap shundaki, o‘rta asrlar davlatchiligi va u olib borayotgan mafkuraviy siyosatning shafqatsiz o‘yinlari, kutilmagan falokatlari ham bor. Ana shunday kutilmagan holga tushib, chorasiz qolgan qahramonning nochor ahvoli va chorasizligidan ana shu majdiddinlar jirkanch maqsadi yo‘lida foydalanishga urinadi: “ Alisherning o‘zi ham bu davradan “uzilishga” moyil emasdi. Bir payt uning Mavqei pasayib, yo‘qola boshlaganida, Majdiddin Muhammad, Nizom ul-Mulk kabilar Saltanatda ishonchli kishiga aylanishgan, natijada u Ikki O‘rtadagi o‘rnidan mosuvo bo‘lib, hayotida bo‘lgan-bor ma’nodan ajralgandek holga tushgan edi”.⁴⁴

Voqealar rivojida ikki qutb – o‘z davri muhiti, ijtimoiy muammolar girdobida ham sofdilligini, or-nomusini asrab qolishga uringan asar qahramoni va ana shu muhitning ikkinchi bir vakili – o‘z nafi va manfaati yo‘lida hech narsani tan olmaydigan, qalbida muqaddas tuyg‘u va e’tiqoddan asar ham bo‘lmagan majdiddinlar to‘qnashadilar. Ajabki, bu to‘qnashuvda ko‘pincha majdiddinlar g‘alaba qozonadilar.

O‘tmish va tarixiy shaxs mavzusi jahon, xususan, o‘zbek nasrida ham tobora keng o‘rin egallab bormoqda. Bu tabiiy. Chunki tadqiqotimizning kirish qismida ham adabiyotning ijtimoiy hayot ko‘zgusi ekanligini, insoniyat taqdirida kechayotgan muhim muammolar so‘z san’ati vositasida tahlil etilishi haqida to‘xtalgan edik. Adiblarimiz ushbu mavzu orqali ezgulik va tubanlik, yaxshilik va yomonlik talqinlaridan asta-sekin inson taqdiri, uning ma’naviyatidagi evrilishlarni

⁴⁴ Muxtorov O.Navoiy va rassom Abulxayr. - T.2006.158-b.

real tasvirlash sari qadam tashlamoqdalar. Xarakter yaratishning yangi-yangi usullarini badiiy ijod maydonida sinovdan o'tkazmoqdalar. Voqelikka muallif munosabati zahirida xolislik tobora ko'zga yaqqolroq tashlanmoqda. Bunga, avvalo, muhitning realistik tasviri ham yaqindan yordam beradi.

Oybek qahramon xarakterini, obraz qiyofasini yaratishda an'ana tusini olgan yo'ldan bormaslikka harakat qiladi. Ya'ni salbiy qahramonni butunlay qora bo'yoqlarda, ijobiy obrazni esa yorqin ranglarda tasvirlashdan chekinadi. U, avvalo, o'z qahramonlarini yetishtirgan, tarbiyalagan muhit doirasida obrazlar fe'l-atvori, yurish-turishi, dunyoqarashiga chizgilar topadi. Ularning o'y-fikrlari, hayotga munosabatlari, odamlar bilan muomalalarida ham ana shu muhit o'z aksini ko'rsatib turadi. Asar qahramoni ham oxir-oqibat o'zi ulg'aygan muhit, o'zida shakllangan dunyoqarash, odamlarga bo'lgan munosabatida adashib, chigal muammolar kelib chiqqach, ko'pincha nochor va ayanchli holatga tushib qoladi.

Asarning o'qimishliligi, voqealar tasvirining ishonarli bo'lishini ta'minlashda asar muallifi o'ziga xos yo'l va usullar topgan. Ulardan eng muhimi qahramonlar ma'naviy olamini yoritishda ularning fe'l-atvoridagi o'sha davrlar uchun qabul qilinmaydigan qirralaridan foydalanishdir. Bu usul orqali bizga muallif-hikoyachi o'zini-o'zi izohlayotgandek, o'zini o'zi fosh qilayotgandek tuyuladi. Muayyan muhit nuqtai nazaridan ta'riflangan o'rinlar ham tashqi ta'sir, ham ichki omillarning qahramon ma'naviyatidagi o'zgarishlar bilan bog'liq muhim ahamiyatga ega ekanligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Muallifning ko'nglidan kechayotgan fikr-o'ylar tashqi ta'sir natijasida qahramon xarakterida, ongi va tushunchasida paydo bo'layotgan evrilishlarni yaqqol ifodalab turadi. Tashqi omillardan biri esa uning atrofidagi turli toifa odamlar.

So'nggi najot yo'li qirqilguncha ham qahramon yon-atrofdagilarga sir-boy bermaslikka urinadi. Hatto o'zi yordam bergan odamlardan ma'naviy ko'mak olishga ham istihola qiladi. "Hayot bo'stoni" asarida bu haqda quyidagilarni o'qiymiz: "Samarqandda shunday atoqli kishilarning do'st bo'lgani va homiylik qilgani bilan Alisherning boshi baribir muhtojlikdan chiqmasdi. U har qanday

qiyinchilikka chidasa chidardiki, ammo bo‘ynini xam qilib birovdan yordam so‘ramasdi.”

Keltirilgan parchadagi haqiqatni tarixiy manbalar ham tasdiqlaydi. Jumladan, “Boburnoma”da ham Navoiyning Samarqanddagi muhtojligida ham, keyinchalik davlat ishlarida yuksak pillapoyalardan ko‘tarilganida ham beminnat va beta‘ma yashaganligi aytiladi.

Voqealar rivojida uning tabiatidagi ko‘ngilchanlik, oqko‘ngillik, insonparvarlik, yaxshilikka intilish, qolaversa, ta’sirchanligi ildizlarini asta-sekin payqab olamiz. Chunki u aslzoda xonadondan bo‘lsa-da, oddiy odamlar davrasidan or qilmagan, turmush mashaqqatlari qaddini bukkan odamlar bilan dardlashishdan iymanmagan, eng muhimi, oddiy odamlar ko‘nglidagi gaplardan hamisha xabardor bo‘lgan va ularga hamisha xayrixohlik bilan qaragan. “Hayot bo‘stoni” asarida ham, “Navoiy” romanida ham shoirning ana shu xususiyatlari har bir faslda alohida ko‘rsatib boriladi. Darveshlar xonaqohida ham, madrasa talabalari davrasida ham, ilm va san‘at ahllari davrasida ham Navoiy o‘zining ulug‘vor soddaligini, betakror kamtarligini yo‘qotmaydi. Yetim-esirlarga moddiy yordam berish bilan birga, ular orasidagi iste’dod sohiblarini otalarcha homiyligiga oladi. Kamoliddin Behzod, Xondamir va boshqalarning ulug‘ shoir va mutafakkir tarbiyasida kamol topishlari har ikki adib tomonidan batafsil badiiy ifodalab berilgan.

Ba’zi bir voqealar munosabati bilan bosh qahramon – Navoiy tilidan shafqatsizlarcha ochib tashlangan voqelik, hayotiy haqiqat bir umr rolga kirib yashagan, o‘zini bekamu ko‘st ko‘rsatadigan, yo‘q omadini ko‘z-ko‘z qiladigan, aslida g‘arib va ma’naviy nochor kishilarning haqiqatni tan olishlariga majbur qiladi. “Hayot bo‘stoni”dagi Soniy, “Navoiy” romanidagi qozi Shahobiddinlar ana shunday personajlar sirasiga kiradi.

“Navoiy” romanida qahramon ma’naviyatining, shaxs xarakterining bizga noma’lum qirralarini kashf etishimizda kalit vazifasini bajaruvchi yana bir obraz bor. U ham bo‘lsa Arslonning sevgilisi bo‘lgan oddiy qishloq qizi Dildor obrazidir.

Gap shundaki, muallif Dildor obrazini tasvirlashda ham jumboqli taassurotlar uyg'otishdan boshlaydi. Biz Dildorning ichki ruhiy dunyosini, oddiy kambag'al qiz bo'lsa-da, ma'naviy jihatdan boy, irodasi mustahkam inson ekanligini qadamba-qadam kuzatib boramiz.

Muallif shuning uchun ham Dildor xarakteridagi eng yetakchi xususiyatlarni muhit fonida to'laonli ochib beradi.

Shundan keyin Dildor xarakteridagi asosiy xususiyat, o'sha paytlar uchun "o'jarlik" va "shakkoklik" bo'lib tuyulgan, lekin aslida shaxs xarakteridagi qat'iyat namoyon bo'ladi.

Kulfat kulfatni, g'am esa g'amni yetaklab keladi. Hayot murakkab, muhit beshafqat. Bu muhitning dabdabali shiorlari, hayqiriqli da'vatlari bilan birga o'z yozilmagan qoidalari, hukmlari va jazolari bor. U hech kimni ayab o'tirmaydi. Zero bu yerda mehr-oqibat ham, sirdosh va dardkashlik ham saroy mezonlari bilan o'lchanadi. Buni kutilmagan falokat ustiga kelgan falokat yana bir bor tasdiqlaydi. Azob-uqubatlardan, cheksiz o'y va tashvishlardan horigan qahramonning o'sha paytlardagi achchiq qismati tasviri ko'pincha muallif-hikoyachining ham ruhiy iztiroblarini ochib berishga xizmat qiladi. Zero, roman yaratilgan davrlarda sho'rolar mafkurasining keskin tazyiqlari ostidla ko'ngildagi dard va alamlarni, achchiq haqiqatni tarixiy voqealar asosida, majoz va ishoralarda ifodalash mumkin edi xolos. Roman muallifi bo'lmish Oybek esa ana shu murakkab vazifani ortig'i bilan ado eta olgan mohir adib sifatida maydonga chiqdi.

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, hukmron doiralar Dildor hamda Arslonlarni jisman azob va mashaqqatlarga mahkum etsa-da, ruhan sindira olmaydi. Boshida qanday falokatlar turganini his qilib tursa ham, Dildor o'z ahdi va qat'iyatidan qaytmaydi. Uning xarakterida esa ana shunday mash'um lahzalarda yangi-yangi qirralar ochiladi. U or-nomusi yo'lida so'nggi tomchi kuchi qolguncha kurashadi. Mehr-muhabbatini bag'ishlagan sevgilisi – Arslonga oxirgi lahzada ham xiyonat qilmaydi. Zo'ravonlik va tajovuz oldida ojiz qolganida ham o'z qadr-qimmatini o'ylaydi. Biz nihoyat Dildorning sevgilisiga bo'lgan cheksiz muhabbatini, yashirin ardog'ini, unga sig'ingandek munosabatda bo'lishi sabablarini anglab yetamiz. U

Arslonning aslida kimligini, qanday qalb egasi ekanligini sinovdan o'tkazib bilgan va shaxsiy xulosasiga ega bo'lgan.

Ana shunday shafqatsiz voqelik, ijtimoiy-siyosiy muhitning dahshatli sinovlari Alisher Navoiyning tarixiy shaxs sifatidagi xususiyatlarini, ong va shuurini uyg'otadi, asta-sekin sergaklantira boradi. Shuning uchun ham biz asar nihoyalab borgan sari qahramon fikr-mulohazalariga qo'shilamiz, bizda unga nisbatan hamdardlik tuyg'ulari paydo bo'la boradi, va nihoyat, tarixiy shaxs obrazining tarixiy voqelik, muayyan tuzumga bo'lgan keskin munosabatlari tabiiy hol hamda hayotiy jarayon natijasi ekanligiga amin bo'lamiz.

Alisher Navoiyning ta'lim-tarbiyasi, da'vati hamda homiyligida Hirot va uning atrofidan zamonasining minglab barkamol siymolari yetishib chiqqanlar. Behzod boshchiligidagi musavvirlar, Sultonali Mashhadiy rahnamoligidagi xattotlar, Mirak naqqosh yetakchiligidagi me'morlar, Husayn voiz izdoshlari bo'lgan notiqalar, madaniyat va san'atning boshqa sohalari vakillari bo'lgan ko'plab iste'dodlar tufayli XV asr Xuroson, xususan Hirot tarixiga oltin asr sifatida yozilib qoldi.

Alisher Navoiy nafaqat ulug' shoir va mutafakkir, balki mumtoz ma'rifatparvarligimizning ham atoqli namoyandasidir. U umr bo'yi yoshlar tarbiyasi xususida qayg'urdi, ijodiy merosi bilangina emas, amaliy faoliyati bilan ham bu borada namuna bo'ldi. Shoir she'riyatining har bir namunasida ta'lim-tarbiyaga oid qimmatli fikrlar singdirilgani ham buning yaqqol dalilidir. SHoir bu bilan ham qanoatlanmasdan "Xamsa" asarining birinchi dostoni bo'lgan "Hayrat-ul abror"ni to'lig'icha komil inson tarbiyasi masalalariga bag'ishladi. SHu bilan bir qatorda, ruhiy-ma'naviy olami boy, insoniy fazilatlarining mujassami bo'lgan ajoyib obrazlar yaratdi.

Nafaqat o'zbek, balki jahon adabiyotining ulug'vor siymolaridan bo'lgan Alisher Navoiy obrazini badiiy adabiyotga olib kirish g'oyat mas'uliyatli va murakkab ishdir. Bu faxrli adabiy jarayonga qo'l urgan qalam sohiblaridan rus adibasi Lidiya Bat va o'zbek yozuvchilari Oybek hamda Omon Muxtorlar zimmalaridagi vazifalarini muvaffaqiyatli ado eta oldilar.

“Haqiqiy san’at asari tabiat yaratgan mo’jizalar kabi hamisha bizning aql-idrokimiz uchun beaddad sirli mohiyatga ega bo’lib qolaveradi. Ana shu mohiyatga yetib borish uchun ijodkor yaratgan xarakterda aks etgan ideal va ana shu xarakter kechinmalari, xatti-harakatida ifodalangan ma’noni belgilash, qolaversa, asardagi obrazlarning tashqi va ichki qiyofasining go’zallik qonuniyatlariga qay darajada mos kelishiga baholash kerak bo’ladi, -deb hisoblaydi adabiyotshunos B.Sarimsoqov, - Chunki haqiqiy badiiy asar alohida olinganda to’la mustaqil va o’zgalar tahlilida osonlikcha talqinga berilmaydigan yumuq holda bo’ladi.”⁴⁵

Xulosa qilib aytganda, Lidiya Bat ham, o’zbek adabiyotining ulkan namoyandasi Oybek hamda Omon Muxtor ham o’zlarining mazkur asarlarida g’oyaviy maqsadlari, badiiy ideallaridan kelib chiqib, voqea-hodisalarni xolis tasvirlashga harakat qilganlar. Qahramonlarning insoniy qiyofasini belgilashda jamiyatda tutgan o’rni, turmush tarzi, o’zini qanday tutishini emas, qalb go’zalligi, ruh erkinligini asosiy mezon qilib belgilaganlar. Shuning uchun ham bu asarlardan kelib chiqadigan asosiy xulosa – inson har qanday muhit va sharoitda ham inson bo’lib qolishi uning o’ziga bog’liqligi bizni to’la qanoatlantiradi.

III BOB. ASAR ARXITEKTONIKASI VA NAVOIY OBRAZI

⁴⁵ Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. - Toshkent. 2004. 90-bet.

1-fasl. L.Bat ijodida Navoiy siymosi talqinlari

Adabiyot jamiyat hayotining ko'zgusi bo'lish bilan birga insonshunoslik hamdir. Ijtimoiy hayotda ro'y berayotgan har bir voqea-hodisa badiiy adabiyotda u yoki bu darajada o'z aksini topadi. Shu jumladan, ijtimoiy voqelik hamda muhit munosabatlari, unda ro'y berayotgan jarayonlar ham so'z san'atkorlari tomonidan badiiy tadqiq etiladi, falsafiy –estetik xulosalar chiqariladi. Muayyan ma'naviy-ma'rifiy g'oyalar olg'a suriladi. Jahon adabiyoti misolida insoniyat tarixida muayyan iz qoldirgan ulug' siymolarning badiiy obrazini yaratish, hayot yo'li va amaliy faoliyatining ibratli jihatlarini falsafiy-estetik tadqiq etish tajribasi keng tarqalgan. Jumladan, ulug' o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy siymosi ham jahon adabiyoti so'z san'ati tarixida adabiy asar qahramoni sifatida qalamga olingan. Rus adibasi Lidiya Batning "Hayot bo'stoni" asari o'z vaqvtida shuhrat qozonganidek, bugungi kunda ham ma'naviy-ma'rifiy, adabiy-estetik jihatdan qimmatini yo'qotmasdan kelmoqda.

"Haqiqiy san'atkor qay davrda yashashidan qat'i nazar, hayotning taraqqiyot tendensiyalarini shunga qarab belgilashi uning birinchi darajali ijodiy yutuqlaridan hisoblanadi"⁴⁶. Garchi L. Bat va Omon Muxtor yashagan davri bir-biridan ancha farq etsa-da, Navoiy siymosi hamisha hamma davr ijodkorlaring ko'ngil ko'zini nurafshon etib, ijod gulshanini boyitganining yaqqol isbotidir.

Badiiy asarda tasvir etilayotgan go'zallik hayotning o'zida mavjud va shu go'zallikni yorqin ko'rsatishning o'zi badiiylilik va haqqoniylikning birinchi shartidir. Akademik I.Sulton ta'kidlaganidek, «realizm hayotdan nusxa ko'chirish emas, hayotni fikr "elagidan" o'tkazib, uning «mag'zini chaqib» tasvirlashni talab etadi"⁴⁷.

Alisher Navoiyga qiziqish, uni o'rganish Yevropa va Rossiyada ham xiyla katta tarixga ega. 1832 yili ingliz sharqshunosi Devit "Turkiya tili grammatikasi" asarida Navoiy haqida qisqacha maqola beradi. Fransuz sharqshunosi Katrmer

⁴⁶ Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. Adabiy-tarixiy jarayon. II jild. - T.: Fan, 1979. -B. 162

⁴⁷ Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – T.: O'qituvchi, 1980.-B. 306.

1841 yilda bosilgan adibning “Muhokamatul-lug`atayn” va “Tarixi mulki Ajam”ini e`lon qilgan, I. N. Berezin “Turk xrestomatiyasi”da Navoiyning bir necha asarlaridan parchalar bergan. Shu yo`sinda buyuk shoir nomi Yevropa mamlakatlarida tanila boradi. 1861 yili Istambuldagi Fransiya elchixonasida sekretar, tarjimon, keyinchalik bosh konsul bo`lib xizmat qilgan fransuz sharqshunosi M. Belen “Osiyo jurnali”da “Mir Alisher hayoti” maqolasida shoir hayoti va ijodini yorituvchi keng ma`lumot beradi. Mazkur jurnalning 1866 yil sonida “Sharq moralistlari” maqolasida Belen Navoiy dunyoqarashi haqida fikr yuritib, “Mahbub ul qulub”dan parchalar tarjimasini ham beradi. Navoiy tavalludining 507 yilligi munosabati bilan nemis adibi A. Kurella 1948 yili “Farhod va Shirin”dan parchalarni nemis tilida chop ettirdi. 525 yillik yubileyi munosabati bilan doston tarjimasini yakunlab, nemis adabiyot ixlosmandlari e`tiboriga havola qildi. 1952 yilda Argentinada Lui Orsettining “A. Navoiy” deb nomlangan asari ispan tilida bosilib chiqdi. Unda Movarounnahr tarixi qadim davrdan XV asrgacha bo`lgan davri haqida hikoya qilinib, “Layli va Majnun”, “Farhod va Shirin”, “Sab`ai sayyor”, “Saddi Iskandariy” dostonlarining mazmuni beriladi. Bu kitobcha Lotin Amerikasi xalqlarini o`zbek adibi ijodi bilan tanishtiruvchi asosiy manbadir. 1956 yilda Ruminiya poytaxti Buxarestda A. Navoiyning “Tanlangan asarlari” chop etildi. Bolgar shoiri Iordan Milev 1974 yilda “Layli va Majnun”ni qisqartirib tarjima qildi va “O`rta asr she`riyati” to`plamida ulug` adib she`rlarini chop ettirdi. Yevropada ulug` shoir asarlari haqida ko`pgina ilmiy kitoblar yuzaga keladi. Bunga Pave de Kurteylning Navoiy asarlaridan foydalanib tuzgan lug`ati, ingliz olimlari Charlz Rio, E. Braun, rus sharqshunoslari I. N. Berezin, M. Nikitskiy, venger H. Vamberi, fransuz Belen, Bloshe, turk Ogoh Sirriy Levend, Ahmad Otash, arab Ahmad ibn Ali Damashqiy, nemis A. Kurella va boshqalarning asarlari misol bo`la oladi. Navoiy o`z asarlarida tinchlik, insonparvarlik, vatanparvarlik, muhabbat, sadoqat g`oyalarini tarannum etgani tufayli uning asarlari boshqa tilda so`zlashuvchi xalqlar adabiyotiga ham kirib bordi va o`sha xalqlar qalbidan o`rin oldi. Qardosh MDH mamlakatlarida Navoiy asarlari 17 tilda, 87 marta jami 979 ming nusxada nashr etilishi bunga

misol bo'la oladi. Navoiy asarlari qaysi tilda o'qilmasin u o'z asarlari bilan Angliyada ingliz, Olmoniyada nemis, Farangistonda fransuz, Italiyada italyan, Rossiyada rus xalqi farzandi bo'lib, o'sha xalq, o'sha millat yarasiga malham, dardiga davo bo'ldi va bo'lmoqda.

Albatta, bu quvonarli. Navoiyni o'rganish uning ijodiy merosidan bahramand bo'lishga ishtiyoq jahon adabiyotshunoslarining ham qalbini egallagan ekan, bu bizga, yoshlarga ajdodlar oldidagi burchga yanada sodiq hamda ularning merosidan unumli foydalanib uni bugungi kun jamiyatiga ham xizmat qilishida ko'maklashish, biz, yosh izlanuvchilar ko'nglini shod qiladi.

Shundan kelib chiqib jahon, xususan, Rossiyada ham Navoiy va uning yashagan davr muhiti xususida izlangan adiba Lidiya Batning olib borgan tadqiqotlari o'laroq "Hayot bo'stoni" qissasi vujudga keldi. Bundan tashqari adiba A. I. Deych bilan hamkorlikda yozgan ikki qissasi: "Fritof Nansen", "Taras Shevchenko"dan so'ng "Buyuk iste'dod", "Haqiqat uchun rahmat", "Dengiz hayqiradi", "Unutilmas uchrashuvlar" kabi asarlarni yaratdi. Uning Alisher Navoiy hayoti va ijodiga bag'ishlangan "Hayot bo'stoni" qissasi Lidiya Bat adabiy faoliyatida muhim o'rin tutadi. Bu asar Navoiy obrazining ayrim qirralarini ifodalashda uning diniy hamda dunyoviy bilimlariga urg'u berib ketadi. Navoiy obrazi asar davomida turli qirralari bilan kitobxonga o'git berib ketyotgandek tuyuladi. Asarda Navoiy tilidan keltirilgan fikr va mulohazalarning bugungi kunda ham o'zining ahamiyatini yo'qotmagani asarning mazmunli bo'lishini taminlagan. Jumladan, "So'zlamodan maqsad fikr aytishdir,-deb uqtirardi Alisher do'stlariga. - Kim gapirganiga boqma, nima gapirganiga boq".⁴⁸ Ushbu tanbeh ohangi bilan aytilgan gapda ham ulkan ma'no mujassam, ya'ni so'zning kim tomonidan aytilgani ahamiyatli emas, balki nima demoqchiligi muhim. Shunday o'rinlarda adib Navoiy siymosiga va uning aytgan gaplari purma'no ekanligiga ishorat qilib ketadi. Ammo asardagi voqea-hodisalarda urg'u ko'proq Navoiy shaxsiyatini anglashga emas, balki uning yashagan davr muhitidagi holatlari xususiga beriladi. Darhaqiqat, Navoiy obrazini yaqindan o'rganishda, unga nisbat berishda Husayn

⁴⁸Bat Lidiya. Hayot bo'stoni. - Toshkent. 1968. 142-b

Boyqaro tarixiy obrazining ham ahamiyati katta.”Husayn o‘z she’rlaridan o‘qib berishni Navoiydan iltimos qildi. Alisher Mashhad va Samarqandda yozgan g‘azallaridan bir nechasini o‘qib bergach, sulton hayajon bilan:

- Davlatim qudratini mustahkamlash yo‘lida qanday ishlar qilishim muhim emas, ammo siz kabi shoir bu davlatda yashashining o‘zi uni abadiy shon-shuhratlarga burkagusidir,-dedi”.⁴⁹ Bundan ko‘rinadiki, Husayn Boyqaroni shohlik maqomini egallab turishida ham , davlat ishlarini davomiyligida ham Navoiyning xizmatlari beqiyos, buning Husayn Boyqaroning o‘zi ta’kidlashi esa shoirga bo‘lgan ulkan ishonchning namunasi. Bu o‘rinda Navoiy ham hamisha shohga ham do‘st, ham mamlakatning fuqarolariga yaqin kishi sifatida avomning manfaatlarini birinchi bilib, Husaynning har bir ishini xalqqa to‘g‘ri anglatmoqqa urinadi: “- Men Hirotga Sulton Husayn Boyqaro hazrat oliylarining amri bilan to‘ppa-to‘g‘ri jang maydonidan keldim. Ulug‘ sulton o‘z fuqarlarini baxtiyor va badavlat qilmoqchilar; adolat yo‘sli bilan mamlakatni gullab-yashnatmoqchilar; yordamga muhtoj bo‘lgan har bir kimsaga ko‘maklashmoqchilar.”⁵⁰

Lidiya Bat Navoiyning yozgan baytlaridan hukmron doiralarning illat va qusurlarini ko‘rsatib berishda unumli foydalanadi:

“Kimki maxluq xizmatiga kamar
Just etar, yaxshiroq ushalsa beli.
Qo‘l qovushturg‘ucha bu avlodir
Ki, oning chiqsa egni, sinsa ali.
Chun xushomad demakni boshlasa qosh
Kim, tutilsa dami, kesilsa tili.”⁵¹

Bizga ma’lumki, Abu Said Mirzo davrida Alisher Navoiy Hirotida o‘z mavqeiga yarasha qadr-qimmat topolmaydi. U 1467 yilda Samarqandga tahsil olish maqsadida, aslida esa surgun tariqasida yuboriladi. Bu paytda Sulton Abusaid Xuroson va Eron istilosi bilan mashg‘ul bo‘lib, poytaxt Samarqandni uning ishonchli vakili Ahmad Hojibek boshqarar edi. O‘z zamonasining taniqli

⁴⁹ Shu asar 157-b.

⁵⁰ Shu asar.189-b.

⁵¹ Shu asar.146-b.

shoiralaridan bo'lgan, "Vafoiy" taxallusi bilan mashhur bo'lgan bu zot Alisher Navoiyning beqiyos shoirlik iqtidori, yorqin tafakkurining maftuni bo'lib, uni xos kishilaridan biriga aylantiradi. Aslida muntazam kuzatuv ostida bo'lishi lozim bo'lgan yosh shoir hukumat ishlari boshqaruviga ham jalb etiladi, tarixiy manbalarning shahodat berishicha, shu yillarda temuriy hukmdorlarning o'zaro nifoq va janglarida ham qatnashadi. Shu yillarda namoyon etgan harbiy uquvi va sarkardalik layoqati tufayli yuqoridagi unvonga munosib ko'riladi.

Husayn Boyqaro Hirot taxtini egallaganda Alisher Navoiy Sulton Ahmad mirzo qoshidan Hirotga maxsus taklif bilan chaqirib olinadi va podshohning eng mas'ul mulozimi – muhrdori sifatida ish boshlaydi. Ko'rinadiki, yetuk harbiy-siyosiy, iqtisodiy bilim va tajribaga ega bo'lmay turib, bu lavozimda ish boshlash mumkin emas edi.

1470-yilda Shohruh mirzoning nabirasi Yodgor Muhammad Hirot taxtini Husayn Boyqarodan tortib oladi. Husayn Boyqaroning tushkun kayfiyatdagi parokanda qo'shinini jipslashtirish, Yodgor Muhammad hokimiyatini ag'darib tashlash rejasini ishlab chiqishda yana Alisher Navoiyning harbiy layoqati, taktik usullari va aql-farosati yordam beradi. Keyinchalik buyuk sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur ham tahsin aytgan ushbu harbiy voqea ortiqcha talafot va qurbonlarsiz amalga oshiriladi.

Shoir tarjimai holiga oid ana shu voqea-hodisalarning tafsilotlari adib tomonidan badiiy qayta ishlangan.

"Hayot bo'stoni" qissasida Alisher Navoiyning mamlakatni obod etish yo'lida Husayn mirzoga maslakdosh, hamnafas, hamdard bo'lishi voqealarini muallif tarixiy haqiqatdan uzoqlashmay tasvirlashga urinadi; Sulton Husayn Boyqaro hukmronlik qilgan salkam qirq yil mobaynida Xuroson chet el bosqinchilaridan osuda yashadi. Mamlakatning harbiy salohiyati beqiyos o'sdi. Husayn Boyqaro qo'shinlarida o'sha davr uchun g'oyat salmoqli bo'lgan harbiy kuchlar jamlangan bo'lib, otliq askarlar soni 14 mingga, piyoda qo'shin miqdori 40 mingga yetgan edi.

Afsuski, Husayn Boyqaroning ichkilikka mukkasidan ketishi, hokimiyat tizginlarini bo'shashtirib yuborganligi, turli ichki ziddiyatlar so'nggi temuriylar saltanatini ichidan yemira boshladi. Ana shu saltanat ravnaqi uchun butun umrini, ongli faoliyatini bag'ishlagan Alisher Navoiy uchun bu juda og'ir edi. U buning ustiga, Sulton Husaynning ko'p sonli o'g'illari orasida biror munosib taxt vorisini ko'rolmay iztirobga tushadi. U yurtni obod etish yo'lida imoratlar qurdiradi, ilm ahlini qo'llab-quvvatlashga harakat qiladi. Navoiy barcha me'mor hamda mehnatkash ommani qo'llashga urinib ularga ishonch bildirib turuvchi edi: "Navoiy so'z oldi:

- Men bu me'morni bilamen. Hirotning shuhratini taratishda anchagina mehnati singan kishi. U bizga yana ko'p xizmat qilgusi. Binolarning loyihasi to'g'ri, qurilishini tezda boshlab yuborish zarur."⁵²

Ijtimoiy munosabatlar, ma'naviy -iqtisodiy sharoit va ularning odamlar hayotiga ta'sirini adabiy-badiiy talqin qilingan asarlar sirasiga kiruvchi mazkur qissada ulug' mutafakkir shoir Alisher Navoiyning badiiy obrazini yaratish jarayonida yaxshilik va yomonlik, ezgulik hamda munofiqlik haqidagi umumbashariy masalalar ko'tarib chiqilgan. Asar qahramoni taqdiri misolida muayyan davr muammolari, odamlar o'rtasidagi munosabatlardagi murakkabliklar, muhit ta'sirida chigallashgan taqdirlar haqida muayyan tasavvurlarga ega bo'lish mumkin. Asarni o'qish jarayonida yaxshi kunlar umidi, porloq kelajak ilinjida turmush qiyinchiliklariga, iqtisodiy yetishmovchiliklarga bardosh bergan, ammo kutilgan yorug' manzillar birin-ketin sarob bo'lib chiqqan kishilar taqdiri qalbimizda achinish uyg'otadi. Sofdil ammo sodda, atrofdagi ayrim qing'irliklar mohiyatini o'z vaqtida tushunib yetolmagan qahramonning murakkab hayot yo'li umr bo'yi astoydil ishongan e'tiqodi – adolatli tuzum va odil hukmdor, gullab-yashnagan jamiyat hamda el-yurt farovonligining amalga oshishidan hafsalasi pir bo'lgan holda yakun topishi qalbimizni larzaga soladi. Har qanday davr va sharoitga ustalik bilan moslasha oladigan, birovlar boshiga tushgan kulfatdan o'z manfaati yo'lida foydalanadigan tuban kimsalar esa cheksiz nafratimizni

⁵² Ko'rsatilgan asar.206-b.

uygʻotadi. Temuriylar davrining oxirgi yillarida boʻlib oʻtgan, iqtisodiy va siyosiy boʻhronlar hukm surayotgan paytlarda boʻlib oʻtgan bu voqealar kitobxonni oʻylashga, chuqur mulohaza yuritishga undaydi. Bu foniy dunyoda diyonatsizlikning, munofiqlikning, yovuzlikning asosiga qurilgan har qanday tuzum, har qanday mafkura hamisha, har qanday sharoitda zavolga mustahiqligiga imon keltirasiz.

Darhaqiqat, asarda Navoiyning ustoz-shogirdlik sadoqati va quvvati ham juda chiroyli taʼrif etiladi. Jumladan, Navoiyning Samarqandlik doʻsti va ustozini Xoʻja Abullaysiy bilan Navoiy munosabatlari, ular oʻrtasidagi mehr va oʻzaro hurmat, ruhiy yaqinlik Navoiyga hamisha kuch baxshida etib turgan: “- ha, u kishi qalbimda eagu xotira qoldirmishlar, Ustozning bogʻlarida men inson va uning yashash qoidalari haqida koʻp narsa oʻrgandim, Xoʻja Abullaysiydan men maqsad yoʻlida sobitqadam boʻlish haqidagi buyuk haqiqatni oʻrgandim:

Oʻlarmen to yeturmen maqsadimga, yonmoq imkon yoʻq,

Badan zaʼfi bila yoʻl shiddatidin garchi tolgaymen.

Yuqoridagi satrlarni Navoiy muhtojlik paytlarida bitgandi. Bu baytni shoir dam-badam oʻzicha takrorlar va boshqalarga ham oʻqib berardi; bu misralar mehnatga daʼvat qilar, kishida ijodga ishtiyoq uygʻotardi.”⁵³

Prof. B.Sarimsoqov taʼkidlashicha, «Ijodkor ongida asarning voqealar tizimi (syujeti), ularning muayyan tartibda bogʻlanishi (kompozitsiyasi), voqealar tizimini harakatga keltiruvchi va dinamikasini taʼminlovchi personajlar, ularning faoliyati, makoni va zamoni kabi badiiy ijod uchun zaruriy shartlar bajarilgach, uning eng qiyin va ogʻir bosqichi – ijodkor ongini, qalbini chulgʻab olgan gʻoyani ifodalovchi barcha narsalarni soʻzda tasvirlab yoki ifodalab berish, kitobxon yuragini zabt etuvchi shaklda bayon qilib berish jarayoni boshlanadi»⁵⁴

Xulosa qilib aytganda, har bir badiiy asar – yaxlit bir olam! Bu olamga kirib borish adib yaratgan ijodiy voqelik koʻpqatlamligi va nafosatiga

⁵³ Koʻrsatilgan asar.214-b.

⁵⁴ Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – Toshkent: 2004. -B. 82.

erishish kafolatidir. Unda favqulodda nafosat va estetik idrok, ma'rifiy ilg'am va ma'naviy tajriba o'zaro tutashadi. Nozik kuzatish va jonli mushohada nisbati san'at mag'zini asoslaydi. Shu ma'noda, muallifning xos talqini hayot ruhiy bo'shliqlarini to'ldiradi. Xos talqin alohida ijodiy yondashuvni taqozo qiladi. Syujetda badiiy yaxlitlashadigan manerada yozuvchi poetik ifoda madaniyati jilvalanadi. Aslida badiiy idrok shakl va mazmun uyg'unligini ta'minlaydigan muhim halqa bo'lib, ham nazariy, ham amaliy mohiyat kasb etadi. To'g'rirog'i, tasvir ruhiyati va ifoda mustaqilligi ichki raqobati fabula tabiatini dalolatlaydi. Shakldan mazmunga qarab harakatlanadigan asosiy tushunchada ijtimoiy voqelik ruhiy asoslari muayyan aniqlikka erishadi. Shu ma'noda, har bir badiiy talqin o'ziga xosligini mavjudlik va imkoniyat o'rtasida shakllanadigan badiiy idrok tamoyillari belgilaydi.

2-fasl. Omon Muxtor ijodida Navoiy ruhiy olami ifodasi

Alisher Navoiy siymosini har bir davr o'ziga xos talqin etganidek, har bir avlod ham o'zicha kashf etadi. Zero, bu ulug' zotni bejiz cheksiz ummonga tenglamaydilar. Uning umr yo'li ham sir-sinoatlarga boy, adabiy merosiga oid duru injularning esa chek-chegarasi yo'q. Shoirning o'zi lutf etganidek: „El netib topqay menikim, men o'zimni topmasam”. Taniqli adib Omon Muxtorning „Navoiy va rassom Abulxayr” deb nomlangan roman-dilogiyasi shunday izlanishlarning yangicha adabiy mahsulidir. Adib romanlari orasida O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan „Ishq ahli” va „Buyuk farrosh” romanlaridan tarkib topgan „Navoiy va rassom Abulxayr” dilogiyasi alohida ajralib turadi. Yozuvchi ushbu romanlarida Navoiy obrazini o'ziga xos ijod yo'sinida talqin etishga uringan.

Ma'lumki, tarixiy - xronikal hamda hujjatli asosda Alisher Navoiy obrazini yaratishga urinishlar ilgari ham bo'lgan. Ular orasida ulug' shoir va mutafakkirning surati va siyrati haqida xalqimizga muayyan tasavvur bera olgan Oybek, Lidiya Bat, Mirkarim Osim singari ijodkorlarning tarixiy roman hamda qissalari adabiyotimiz tarixida sezilarli iz qoldirgan.

Yozuvchi Omon Muxtor romanlarining ulardan farqli jihatlari nimada? Aslida u ham bizga tanish bo'lgan tarixiy hujjatlarga, shoir zamondoshlarining xotiralariga, ulug' so'z san'atkorining adabiy merosiga tayangan holda qalam tebratadi. Biroq yozuvchi ularda bayon qilgan fakt va raqamlarni shunchaki sharhlash bilan cheklanmaydi. Ularga boshqacha nigoh bilan qaraydi. Shu ma'noda bu fakt, eng avvalo, roman uchun tanlangan mavzu va obrazga munosabatda namoyon bo'ladi. Nazarimizda, adib Omon Muxtor o'z salafalaridan farqli ravishda, romanlarini Navoiy haqida emas, shoir va mutafakkir Navoiyni anglash haqida yozgandek tuyiladi.

Omon Muxtor ijodiy niyatini ro'yobga chiqarish uchun o'ziga xos yangicha bayon usuli va tasvir vositalarini kashf etadi. Bu birinchi galda hikoyachi-qahramon obrazini tanlashda ko'rinadi. Rassom Abulxayr muallif Omon

Muxtorning ham, qahramon Alisher Navoiyning ham tengdoshi - 60 yoshda. Bu “tengqurlik” Navoiy bilan muallif va hikoyachi- qahramonning bir-birini tushunish, ruhiy holatini his qilishga yordam beradi. Navoiyning ham shoir, ham mutaffakir faylasuf, ham tadbirkor va aqlli davlat arbobi, ham oshiq, ham inson sifatida anglash istagi roman dilogiyani mantiqiy jihatdan birlashtirib turadi.

Xuddi shu o‘rinda Omon Muxtorning ijodiy tamoyili, g‘oyaviy maqsadi, axloqiy-falsafiy niyati oydinlashadi. Adib an‘anaga aylangan usulga ko‘ra, o‘quvchini Navoiy atalmish ulug‘vor cho‘qqi sari chorlamaydi, aksincha, bu muazzam siymoni bizga yaqinlashtirishga intiladi. Buning uchun yozuvchi, avvalo g‘oyat sinalgan va qulay usullardan birini qo‘llaydi. Xalq Navoiyni qanday tassavur qiladi, uning sirli tomonlari oddiy odamlar tomonidan qay yo‘ sinda talqin etilgan? Navoiyning haroratli ishqiy g‘azallarining ilhomchisi kim bo‘lgan? Xalqona talqinlarining naqadar hayotiy yoki haqiqatdan yiroqligini his qilmoq uchun Alisher bilan tenqur sifatida o‘z hayotimizga nazar solishimiz, kechinma va tuyg‘ularimizni chuqur tahlil etib ko‘rishimiz kerak, demoqchi bo‘ldi. Shu tariqa romanda hikoyachi-muallif-rassom Abulxayr va uning suyuklisi (keyinroq rafiqasi) Shahriyalar maydonga chiqadilar. Bu g‘oyaviy niyatni o‘quvchiga yetkazish uchun Omon Muxtor „Ishq ahli” romanida yangicha bayon usuliga murojaat qiladi. Roman „Orzu”, „Hayrat”, „Armon” deb nomlangan uch bo‘lim va „Xotima” dan iborat. Bo‘limlarga rassom Abulxayrning Navoiyni o‘rganish, anglash jarayonida „betartib yozib borgan” 5 ta daftari kiritilgan. Rassom Abulxayr haqida dastlabki ma’lumotni biz Odil ismli yigitning sevgilisi Barnoga yozgan xatidan bilib olamiz. Romanda voqealar bayoniga u ham qo‘shilib, aralashib turadi. To‘g‘risi, o‘quvchi Abulxayr bilan Odil va Barno vositasida uchrashadi: “Suyukli Barno!

Mendan rassom Abulxayr haqida bilganlarimni yozib yuborishimni so‘ragan ekansiz.

Mening bilganim qisqacha bunday.

Abulxayr bir paytlar eski shahar ko‘chalari, kungurali devorlar, halqali eshiklarni chizib yurgan. O‘shanda (yoshlik yillari) ba‘zan tabiat manzaralariga

ham murojaat qilgan. Keyinchalik insonga yuz Burgan. Har xil kishilar rasmini (portretini) ishlashga qiziqqan. Bular orasida bir necha o'z qiyofasi tasviri (avtoportret) ham uchraydi. Dunyomi, o'z ustidanmi kulib turgan tasvir unga ancha shuhrat keltirgan. Uzoq mamlakatlarda ko'rgazmalardan joy olgan.

Darvoqe, yana bir muhim gap.

U ko'p yillar Navoiy tasvirini yaratishni orzu qilgan. Shu jarayonda Navoiydan o'rganib kuzatganlari, o'ylarini turli daftarlarda betartib yozib borogan. Qo'lim ostida shu daftarlardan ikkitasi bor. Bularni ham sizga jo'natyapman. Yo'qotmang! Qaytib olishim shart! Odil. ⁵⁵

“Buyuk farrosh” romanida esa yozuvchi bu vositachilardan voz kechadi. Endi hikoyachi-rassom Abulxayr o'quvchi bilan yuzma-yuz hamsuhbat bo'ladi. Bu usul Navoiyni kitobxonga yanada yaqinlashtiradi. Ulug' shoirning ishq-muhabbat haqidagi o'y-fikirlari, qarashlari Abulxayrning suyukli umr yo'ldoshi Shahriyaga bo'lgan muhabbatli munosabati bilan parallell ravishda bayon qilina boshlaydi. Natijada kitobxon hikoyachi timsolida Navoiyni anglash har bir inson (shaxs)ning ma'naviy-axloqiy turmushiga ijobiy ta'sir etishini tushunib oladi. Zero, yozuvchi g'oyaviy-badiiy niyatining asosida ham ana shu istak yotganini sezish mumkin. Rassom Abulxayr Navoiyning tashqi qiyofasini mukammal tasvirlash uchun siyratiga xos chiziqlarni topa bilishi kerak. Bu esa bedor tunlar, behalovat o'ylar, tinimsiz izlanishlar demakdir. Buning uchun san'atkorga ilhom va ijodiy jur'at ham zarur. Ana shu ilhom va ijodiy turtkini Abulxayr suyukli hamdami Shahriyadan oldi. Shu ma'noda Shahriya romanda tasvirlangan Navoiy Gulisi singari hayoliy va maftunkor sanam ham emas. U rassomning umr yo'ldoshi, real inson. Shuning uchun uning turtki, daldalari ham g'oyat hayotiy va tabiiy:

- Nima qilib o'tiribsiz?
- O'ylayapan.
- Siz biron narsa chizish o'rniga nuqul o'ylaydigan bo'lib qoldingiz! ⁵⁶

⁵⁵ Muxtorov O. "Navoiy varassom Abulxayr". - T.2006.6-b.

⁵⁶ Shu asar 50-b.

Romanning yana bir o‘ziga xos xususiyati shundaki, Navoiyni anglash chuqurlashgani sari o‘z qahramoni bilan hikoyachi-muallifning ruhiyati, ma’naviy olami birlashib yakranglik kasb eta boradi. Xatto yosh o‘tgan sari yuzlanadigan xastaliklarni ham ikkalasi barobar boshdan kechiradi. „Favoid” davri - elga naf tegishi lozim bo‘lgan palla haqidagi muallif va qahramon munosabatlarida ham o‘xshashlik, uyg‘unlik kuchaya boradi.

Avvalo, „ elni shod, mamlakatni obod ” ko‘rish istagi, keyinroq olam va odam masalasidagi mushohadalar, ruhiy poklanishni ilohiy darajaga ko‘tarish, abadiyat sirlarini kashf etishga intilish - bularning barchasi qahramon haqidagi tafsilotlar hamda muallifning ichki kechinmalari fonida badiiy ta’sirchanlik, falsafiy teranlik kasb eta boradi.

“Navoiy va rassom Abulxayr” asari yaxlit olganda badiiy-ilmiy yo‘nalishda yaratilgan ma’rifiy romandir. Undan talaba ham, adabiyot ilmi bilan shug‘ullanuvchi mutaxassis ham, oddiy kitobxon ham naf olishi, Navoiyni tushunishi, ayni chog‘da o‘sha murakkab tarixiy jarayondagi siyosiy- ijtimoiy, ma’naviy-axloqiy ziddiyatlarni chuqur anglab yetishi tabiiydir⁵⁷.

Hazrat Navoiyning hayoti va ijodiy yo‘li to‘g‘risida o‘ziga xos ma’lumotlar berish, asarlaridan tarjimai holiga oid fakt va detallarni izlab topish hamda ular ustida ham badiiy, ham ilmiy mulohaza yuritish romanning asosiy g‘oyaviy-estetik mohiyatini tashkil etadi. Roman o‘zining syujet va kompazitsion qurilishi, konflikti, qahramonlar xarakterining ishlanishi jihatidan adib qalamiga mansub boshqa asarlaridan jiddiy farq qiladi. Unda keskin to‘qnashuvlar, Omon Muxtor ijodiy uslubiga xos burama va shartli epizodlar yoki syujet chiziqlari uchramaydi. Portret qariyb yo‘q, dialogning odatdagi shakli berilmagan, personajlar nutqi qo‘llanilmaydi, u holda nega biz aynan shu romanni dialogining yangi namunasi sifatida tanlab oldik?⁵⁸

Gap shundaki, uch bo‘lim, 5 daftar hikoyasidan tashkil topgan mazkur roman hikoyachi Abulxayrning o‘quvchi bilan suhbat asosiga qurilgan. Roman

⁵⁷Solijonov Y.Navoiyni anglash baxti. // Buxoro mavjlari. 2011. № 3. -B.23.

⁵⁸Solijonov Y.Nutq va uslub. - T.2002

mohiyatini musavvir Abulxayrning Navoiy portretini chizish uchun tayorgarlik ko‘rish jarayonida „Navoiydan kuzatganlari, o‘ylarini turli daftarlarda betartib yozib borgan” mulohazalari tashkil etadi. Lekin bayon betartib emas, unda ulug‘ Navoiyning 4-5 yasharligidan to vafotiga qadar bo‘lgan hayotiy yo‘li qalamga olingan. Bu o‘ta ziddiyatli, notekis hayot yo‘li daftarlarda ma‘lum davrlarga bo‘lingan. Shunga muvofiq ravishda romanni bir-biriga bog‘langan 5 ta dialogdan tashkil topgan deyish mumkin. Bu dialoglardagi ishtirokchining biri va asosiy mussavir Abulxayrning o‘zidir.

Ko‘p o‘rinlarda o‘quvchi Navoiy asarlarining tahlil qilinishida rassomdan ham ko‘ra ko‘proq shoir va yozuvchi Omon Muxotorni tasavvur qilib turadi. O‘zini Navoiy potretini chizishga ruhan tayyorlayotgan musavvir Abulxayr suhbatdoshiga shunday deydi: „Navoiy to‘g‘risida yuzlab kitoblar yozilgan. Ammo ko‘nglim to‘lmaydi, bularning aksarida u tirik odamdan ko‘ra ko‘proq devordagi suratga o‘xshaydi.” Aslida esa „U - bir osmon. U - bir ummon. Qamrash qiyin!” bo‘lib, „Hali hech kim Bu Osmon qa‘riga ko‘tarilmagan!. Hali hech kim Bu Ummon tubini ko‘rmagan!” Hikoyachi suhbatdoshimiz shoir she‘rlarini saralab, ularning ruhiga kirib, va xayoliy ma‘no kirar ekan, o‘z mulohazalarini shoshilmay, o‘ylab, fikr tarozisida tortib, chuqur mulohaza yuritib, shoir g‘azallarining ma'nosi va ohangdagi farqlarini aniqlaydi. Ayrim o‘rinlarda xuddi ilmiy xodim singari miyasiga dam berganday, „xo‘p” deya bir lahza sukut saqlab oladi-da, fikrlashni davom ettiradi. Bu romanning dialog shaklida yaratilganligini yana bir bora isbotlaydi.

Birinchi dialogdagi bayon ko‘proq savol-javob tarzida olib boriladi. Hikoyachining o‘zi savol berib, unga o‘zi javob izlaydi. Masalan, Navoiy chizgan „Zanjirband sher” rasmiga qarab suhbatdoshimiz bizdan „sher ham qachondir zanjirga solinganmi?”, „Bu sher Alisherning o‘zimi?” deya savol tashlaydi-da, ishonch bilan „Bunga shubha yo‘q” deydi va fikrini shoir ismidagi „sher” qo‘shimchasi bilan isbotlashga urindi. Dialog so‘nggida esa „Bu qanday zanjir? Nima uchun u zanjirda? Uni zanjirga solgan kim?” deb so‘raydi. Ammo bu savollarni javobsiz qoldiradi. O‘zi javob izlab, she‘r tahliliga kirishadi,

mushohadaga berildi. Shu jarayonda uning oldida yangi-yangi tugunlar paydo bo'lganligini ta'kidlaydi. Hikoyachining savoliga tegishli javobni o'quvchi to'rtinchi dialogdan oladi.

Ikkinchi dialogida Alisher Navoiy bilan Husayn Bayqaro munosabatlari to'g'risida gap ketadi, ko'p yillar mobaynida chigallashtirilgan bu masalaga ba'zi aniqliklar kiritiladi. Zero „Alisher hayotini Husaynsiz tasavvur qilishning umuman imkoni yo'q!“⁵⁹. Navoiy va Bayqaro o'rtasidagi munosabatlarni oydinlashtiruvchi ko'plab rivoyatlar keltiriladi, ularning rost va yolg'onligini isbotlashga urinadi. Vaqti vaqti bilan hikoyachi lirik chekinish qilib, o'zining oilaviy tashvishlari haqida ham qo'shimcha axborot berib boradi. Bu bayonning oshiradi, dialogga jon kiritadi, hikoyachi suhbatdoshni o'quvchiga yaqinlashtiradi.

Uchinchi dialog „Hayrat“ bo'limi xuddi shunday-er-xotinning mini-dialogi bilan boshlanadi. Bu mini-dialog romanda biron bir muammoni ko'tarmaydi, shunchaki Navoiy to'g'risidagi yirik dialogga turtki vazifasini bajaradi xolos. Endi gap Alisherning yoshligi, uning bolalikdan shakllangan inson bo'lib yetishuvi haqida boradi. Dialogda Alisherning yoshligi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan, „O'sha davrdagi uch holat“ qalamga olinadi.

To'rtinchi dialog eng shiddatli, eng keskin xarakterga egadir. Unda hikoyachi suhbatdosh endi avvalgi dialoglardagi singari o'quvchisiga murojaat qilmaydi. Balki Navoiy ijodini tadqiq qilgan olim bilan jiddiy munozaraga kirishadi. Bu dialogdagi u go'yo o'quvchini butunlay esdan chiqaradi, butun diqqati qarshisidagi olimga qaratadi va uni II shaxs shaklida- „Sen“ deb ataydi. Garchi olimni „Sen“ deb atashi bizga biroz erish tuyilsa ham uning timsolida butun bir kommunistik mafkura nazarda tutilganini inobatga olsak, hikoyachi Abdulxayrning bu bepisandligini kechirish mumkin.

Oxirgi-beshinchi dialog qolgan barcha tugunlarning yechimini beradi. Bu dialogda bir qaraganda butun gap go'yo Husayn Boyqaro to'g'risida borgandek tuyiladi. Aslida esa temuriyzodalar orasida eng uzoq muddat mamlakatni boshqargan Boyqaro o'z faoliyatida kimga tayanganini, kimning ko'magi bilan

⁵⁹ Muxtorov O. „Navoiy varassom Abulxayr“. T.2006.26-b.

boshqarganini yaxshi bilamiz, unga faqat qarindosh-urug'larigina emas, balki o'z farzandlari ham to'xtovsiz toj-taxt uchun kurash olib borgandilar. Dialogdan ma'lum bo'lishicha, Husayn Boyqaroning yagona tayanchi, ishongan tog'i Alisher Navoiy edi! Shoir vafotidan keyin Boyqaro saltanatida ham parokandalik boshlanadi.

Romanda bundan tashqari yana bir dialog shakli uchraydi. U ham bo'lsa voqealarda mutlaqo qatnashmaydigan "kasbi hisob fani bo'lgan" Odil ismli yigitning suyuklisi Barno bilan xat orqali olib borgan muloqotidir. Asarda Odilning to'rta maktubi berilganbo'lib, uchtasi Barnoga, bittasi-so'nggisi do'sti Xolidga yozilgan. Xat aslida dialogning yozma shakli hisoblanadi. Binobarin, xatda suhbatlashayotgan tomonlardan birining ichki va tashqi qiyofasi, xarakteri namoyon bo'ladi. Odilning maktubida esa biz birato'la ikki kishi - ham Odil, ham Barnoning ichki olami, bir-biriga munosabati bilan tanishamiz. Rassom Abulxayrning Navoiy haqidagi daftarlari tufayliular bir-birlarini yanada yaxshiroq bilib oladilar va haqiqiy ishq ahli qatoriga qo' shiladilar. Shunisi borki, bu maktub- dialoglarning vazifasini faqat asar kompozitsiyasini to'ldirish bo'limlarini bir- biriga bog'lash, daftar-dialoglarning qaytarzda yaratilganligini izohlashdangina iborat emas. Romanning "Armon" deb nomlangan uchinchi bo'limida bu maktublarning yana bir xizmati ma'lum bo'ladi. Bu maktubda Abulxayrning daftarlari bahonasida umuman asar uslubiga aniqlik kiritiladi. Yozuvchi Omon Muxtor Odil tilidan "...bu daftarlardagi yozuvlarni adiblarning asarlari yoki olimlarning kitoblariga qiyoslash uncha to'g'ri emas. Buning bir kishining, rassomning kuzatishlari deb qabul qilgan durust" deydi.

Bu dilogiya ilgari Navoiy haqida yaratilgan asarlarini takrorlamaydi. Yozuvchi ularga taqlid qilmaslikka intiladi va ulug' mutafakkir ijodidan mantiqli umumlashmalar, favqulotda go'zal ma'nolar topadi. O'rni bilan Payg'ambarlar va sahobalar tarixi, shuningdek, „Chor darvesh" tipidagi asarlari, Yassaviy hikmatlariga ham murojaat qiladi. Navoiy asarlarida ifoda etilgan ruh, qorishiq

tuyg'ular silsilasidan uning shaxsiyatini keltirib chiqarishiga, uni kashf etishiga urinadi. Shu ulug'vor ruh ma'rifatidan bahramandlik tuyadi.

Yozuvchining bu romanni yaratishidan ko'zlagan maqsadi Navoiy ijod psixologiyasini ochib berishdan iborat edi. Asarning syujet qurish usullari assotsiativlikka asoslangan bo'lib, kompozitsoin qoliplash usulidan unumli foydalanilgan. San'atkor asosiy diqqatini tasvirlanayotgan voqealar dinamikasiga qatirib, ularning mag'zini chaqishga intiladi. Shuning uchun ham Navoiyning qalb dialektikasiga e'tiborni kuchaytiradi hamda o'z xotiralarida jonlangan voqealarga keng o'rin ajratadi. Boshqacha aytganda, epik voqealar ichki hissiy jarayonlar hisobiga yanada boyiydi. Muallif Navoiyning xalq va mamlakat hayotidagi o'rnini tayin etish uchun Ismoil Somoniy, Amir Temur davrlaridagi kuchli markazlashgan mamlakatdagi yuksalish, taraqqiyot, obodonchlik, ilm-fan, san'at va madaniyat gullab-yashagani-yu xalq osoyishtaligini keyingi shahzodalar davri bilan qiyoslaydi. Alisher qismatini Husayn taqdiridan ajratib qaramaydi. Uni Sulton Husaynning doimiy ishonchli maslahatchisi, mamlakat osoyishtaligining garovi deb biladi: „Alisher hayotining (tug'ilgan kunidan vafot etgunigacha) har bir damida Husayn „ro'para“ turadi. Va aksincha, Husayn ostonasi ham, mehrobi ham-Alisher!

Alisher saroyda yuribdimi, yo'qmi - Husaynning hayolida turadi. Atrofdagi shahzodalarning taxt ustida jangimi yoki o'z o'g'illari- shahzodalarning (otaga qarashi nizolarimi?!-Husayn bir ish qilolmaydi.

Albatta Husayn-shoh. U-mamlakatni boshqaradi. Hamma qatori Alisher ham uning oldida qo'l qovushtirib turadi. Ammo, osoyishtalik-Alisherning vazifasi umuman saltanatni qo'lga kiritgan-Husayn! Saqlab turgan-Alisher! Saltanat oldida Husayn qanchalik mas'ul bo'lsa, Alisher shunchalik javobgar! Saltanat Alishersiz,, nafas olmaydi ”⁶⁰! deydi, Omon Muxtor. Bu bilan Navoiyning siyosiy arbob sifatidagi salohiyati yuksak e'tirof etiladi. Ayni tarixiy haqiqatni yozuvchi parallelizm g'oyat ta'sirchan ifodalagan.

⁶⁰ Muxtorov O. "Navoiy varassom Abulxayr". - T.2006.45-b.

Inqiroz jarayonidagi o‘ttiz yildan ortiqroq davr osoyishtaligi nafaqat sulton Husayn iqtidori, balki uni xayrli amallarga undagan Navoiy salohiyati bilan chambarchas bog‘lab talqin qilinadi. Ikki inson o‘rtasidagi sharqona mehr-oqibat, olijanoblik, sadoqat tuyg‘ularini ulug‘lab, mamlakatdagi fayzli holatining o‘sha go‘zal do‘stlik mevasi ekanligini ko‘rsata oladi. Asarda tuyg‘ular, o‘ylar, xotiralardagi jilvalar ta’svir obyekti ekan, ruhiy olamdagi behudud poyonsizlik, shubhasiz, tadqiqni talab etadi. Romanda inson taqdiri va qismati orqali uning ruhiyatini aks ettirish negizida jamiyat qiyofasi hamda ruhini namoyon etish, zamondoshimizning mas’ullik tuyg‘usini kuchaytirishga intilish tamoyili kuzatiladi. Badiiy-siyosiy g‘oyani falsafiy idrok etish, talqin qilish orqali jamiyat ruhiyati ochiladi, tarix va qismat orqali ibratli xulosalar chiqariladi.

Dilogiyaning ikkinchi kitobi „Buyuk farrosh“da Alisherni iloji boricha yuqoridan pastga tushuradi, uni oddiy odamlarga yaqinlashtiradi. Asarda Navoiyning jorubkash ya’ni farrosh ekanligi bir qarashda g‘ayritabiiydek tuyuladi. Ma’lumki, dunyo g‘avg‘olaridan kechikishni tilasada, o‘z o‘rnini saltanat va jafokash el orasida deb bilgan Alisher Navoiy hayotsevar inson bo‘lgan. Ammo o‘z hayoti poyonida uning oxirat to‘g‘risida chuqur o‘ylarga tolqani, g‘animat umrini ibodat va ijod bilan o‘tkazishni orzulagani ham rost. Ularning oddiy ishlarni bajarib, faqirona yashashni or deb bilmasligi aslida to‘g‘rilik va halollik, iymon va shukronalik belgisi. Osiy bandaning e’tirofi olamdagi barcha sahvun gunohlar uchun javobgarlikka mas’ulligi, jaholatga qarshi turishining tub mohiyatini ham belgilaydi. Oxirat hisobiga chora izlayotgan kishining hayollari esa o‘kinch va armon barobarida mahzunona umidvorlik hamda taskin qorishiqqligida kechadi. Navoiy dunyoviy muhabbat havasidan xalos bo‘lishga intilar ekan, Alloh ishqining ko‘nglini zabt etdi. Binobarin, ichki ehtiyoj shoir nigohini yerdan ko‘kka ko‘chiradi ya’ni ruhini yuksaltiradi. Demak, uning ishq haqidagi iqrorlari ham yeru osmon orasida.

Xoja Abdulla Ansoriy mozori jorubkashi sharafiga musharraf bo‘lish aslida ana shu muborak ostonani suprish-ozoda saqlash bahonasida ajdodlar ruhidan bahramand bo‘lmoqlikdir. Omon Muxtorning g‘oyaviy maqsadini biz „Foniy

dunyoda boqiy bo‘lishining iloji yo‘q. „Baqo guliga sabot“ yo‘q, faqat „yaxshilik bila ot (nom) qolishi saodati! Ya’ni dunyo gunohlaridan forig‘, ozoda, yorug‘ bo‘lishi uchun vaqti-vaqtida kimdir jorubkashlik (farroshlik) qilishi kerak!“ degan so‘zlari orqali anglar ekanmiz, „farrosh“ Navoiyning buyukligi tarix va zamon mujassamlashgan makon-qabristonda turib olamni poklash niyatida, shukrona keltirib, ertadan umidvor bo‘lib yashashidagina ko‘rinmaydi. Uning ezgu amallari: -ulkan ziyoratgohning mas’ul va mutasaddi rahbari sifatida olimlar va hodimlar, zaif hamda miskinlarni siylash;

-ma’naviy pirlarga baland e’tiqod bu ostonani obod qilish, ramziy-majoziy ma’noda zamonasining barcha bedodliklarini zaminidan surib tashlashga bel bog‘lash;

-o‘zini xokisor tutib ruhini yanada poklash odamlar qalbiga yo‘l topib, ularga shafqat nazari bilan qarash;

Umuman olganda esa, mamlakatda ozoddlik va obodlikni ta’minlashga intilishdan iboratdir. Demak romanda toat- ibodat va ijod Navoiyning asosiy yumishi bo‘lib qolmaydi. Muayyan muddatdan keyin u yana siyosat maydoniga chiqadi. Tadbirkorlik va shijoat ko‘rsatadi. Saltanatni yemirilish halokatidan asrab ozoddlikni orzulaydi, nur va ziyo ulashadi. Ko‘ngli g‘oyatda nozikligi bois ba’zan injiydi, ranjiydi. Ammo hech qachon aniq maqsaddan chalg‘imaydi. Mehnatda fidoyilik ko‘rsatadi. O‘ziga qattiq ishongan murosasiz haqiqatparvar, isyonkor ruh egasi sifatida jur’at va jasorat bilan haqiqat va adolatni himoya qiladi. Asarda yana shunday fikrlar ham borki, unda unda muallif pozitsiyasi yaqqol namoyon bo‘ladi: “O‘z davrida ham, keyin ham rassomlar Alisherni negadir o‘ta muloyim, shikasta –miskin qiyofada tasvirlashgan. Ziyoli kishi, deb shunday rang- bo‘yoq berishganmikin? Bu tasvirlarda ichki g‘urur, shiddat yo‘q... to‘rt mijozga ko‘ra qaralsa, Alisher serjahl(badjahl, qiziqqon, asabiy) ham, sovuqqon(beparvo, bedard)ham, xushchaqchaq(ko‘tarinki, yengil hayot kishisi) ham emas, xafaqon(o‘z alami bilan yashaydigan, har narsani ko‘ngliga oladigan odam) deyishibdi! U ba’zan ozor chekishi, ba’zan hayajon bilan, titrab gapirishi mumkin. Shuning barobarida, uning xatti-harakatida ehtiros ko‘pmi, mulohaza –ajratolmaysiz. Va

hamma balo shundaki, to'rt ilmiy mijozga Alisher "sig'maydi".⁶¹

Bag'ri keng va olijanob shaxs bo'lgan Navoiyning Oddiy inson sifatidagi hayoti hukumdorlik va faqirlik orasida kechgan. U Ollohni qalbida tanigan. Ammo bu yo'l insonni sevish orqali ulkan muhabbatga erishish tarzida kechgan.

Ko'rinadiki, romandagi Navoiy ma'naviy pirlarga etiqodi baland, xayr-saxovatli, himmati baland mehribon inson sifatida fuqaroga shafqat nazari bilan qarab, uning qalbiga yo'l topuvchi kishidir. Yozuvchi qalb va qiyofa birligini ta'minlash yo'lidan borib, o'tgan umrini sarhisob qiladigan xokisor e'tiqod kishisi, o'z maqsadlarini aniq belgilab olgan fidoyi insonning shiddatli ruhi, adolat va haqiqat tantanasi uchun kurashdagi mehr-shafqatni ulug' darajasiga munosib tarzda tasavvur qiladi hamda tasvirlay oladi.

Bugungi o'zbek adabiyoti, xususan, nasri inson ma'naviyati qirralarini tekshirish, ruhiyatidagi ko'z ilg'amas sezimlarni tadqiq etish sari intilayotgan ekan, shunga hamohang tarzda romanda o'ychil inson tafakkuri va hissiyoti to'la namoyon bo'lgan. Asar Navoiyni to'laroq anglash, uning fikr tarzi, axloqiy qanoati, e'tiqod yo'sini jihatidan his va idrok etish imkonini beradi. Bu roman - dilogiya yozuvchining yuqori va ancha mukammallashgan uslubiy yutug'i bo'libgina qolmay, navoiyshunoslik, navoiyxonlik olamida o'ziga xos badiiy tajriba, shuningdek o'zbek adabiyoti taraqqiyotida ko'zga tashlanadigan muhim yangilik hamdir.

Bugungi o'zbek romani o'ziga xosligini ta'minlash, undagi sharqona ruhini kuchaytirish, falsafiy fikr salmog'i va ta'sirchanligini oshirish, ifoda jilosini yangilashda Omon Muxtorning ham o'ziga xos o'rni bor. Yozuvchi tinimsiz izlanishlar natijasida milliy-adabiy an'analar bilan bir qatorda, yangi shakily-uslubiy tamoyillariga murojaat etib, G'arb va Sharq adabiyotini muayyan darajada sintezlashtirishga salmoqli ulush qo'shib kelmoqda.

Omon Muxtor tomonidan yaratilgan Navoiy obrazi san'atkor-yozuvchi va rassom nigohidan kashf etilgani bilan alohida ahamiyat kashf etadi.

Xulosa qilib aytganda, Omon Muxtor talqinida Navoiy nafaqat siyosiy arbob

⁶¹ Ko'rsatilgan asar.45-b.

va komil shaxs sifatida, avvalo, xassos shoir,olamni, insoniyatni ehtirosli qalb bilan idrok etuvchi mutafakkir sifatida namoyon bo‘ladi. Unda tarixiy fakt va ma’lumotla, tashqi tashqi voqelik tasviridan ko‘ra, bu olamning, kelib-ketishning ma’nisi Navoiy ijodida qay darajada chuqur bo‘lgani asosida mutafakkir siyrati tadqiq etiladi. Yanada aniqrog‘i, bu olamning Navoiy qalb prizmasidagi tasviri orqali Navoiy siyratiga hayrat bilan talpinish aks etadi.

U M U M I Y X U L O S A

Insoniyat ma'naviy hayotida muhim o'rin tutgan ulug' mutafakkirlarning badiiy asarlardagi talqinini tadqiq etish qiziq va ahamiyatlidir. Shunday tadqiqotlar sirasida bo'lmish ishimiz yakunida Navoiy obrazi talqinlari yuzasidan quyidagicha xulosaga keldik:

1. Ijodkor shaxs obrazining badiiy talqini ko'p yillik tajribaga ega. Yozma adabiyot namunalarida ba'zan personaj, ba'zan asosiy qahramon sifatida tasvirlangan ijodkor timsoli muallif g'oyaviy-badiiy niyatini ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Ichki monologlar, dialoglar, interyer va peyzaj tasvirlari orqali muallifning murakkab va nozik xarakteri teran ifodalanadi. So'nggi yillar adabiyotida bu obrazni jiddiy talqin etish, inson ruhiy olamining o'ziga xos qatlamlariga kirib borish, umr mazmuni haqida mulohaza qilishga e'tibor ancha ortib borayotganini ko'rish mumkin.

2. Mazkur tadqiqot ishida buyuk mutafakkir va ijodkor Navoiy obrazini badiiy adabiyotdagi tasviri hamda adabiy qahramon ma'naviyati tahlilini rus adibasi Lidiya Batning "Hayot bo'stoni" va Omon Muxtorning "Navoiy va rassom Abulxayr" roman-dilogiyasi misolida tadqiq etildi. Garchi izlanishlarimiz obyekti bo'lgan asarlarda Navoiy obrazi yoritilgan bo'lsa-da, ular janr e'tibori bilan, badiiy tahlil jihatdan, muammolarning yechimi nuqtai nazaridan bir-biridan farq qiladi.

3. "Hayot bo'stoni" muallifi yuksak samimiyati bilan, garchi o'z davri mafkurasi ta'siri ostida bo'lsa ham, o'tmish saboqlari va ibratli ajdodimiz haqida qalam tebratishi bilanoq bizga muayyan davr, tarixiy shaxs to'g'risida fikr yuritganda bir tomonlamalikka yo'l qo'ymaslik zarurligini, masalaning hamma qirralariga birday e'tibor bilan qarash kerakligini o'rgatadi. "Hayot bo'stoni"ning yana bir fazilati – muallif fikr-mushohadalarining g'oyatda o'tkirligi va badiiy tasvirda xolislikka intilishida ko'rinadi.

4. Omon Muxtorning "Navoiy va rassom Abulxayr" roman-dilogiyasining "Hayot bo'stoni" qissasidan tubdan farq qiladigan jihati shundaki, asar yozuvchi tomonidan hikoyachi-qahramonning o'y-xayollari orqali Navoiy DAHOsini kashf etish uchun juda katta jasorat, uni anglash uchun esa kishida mustahkam bilim

bo‘lishini ta’kidlagan holda Navoiyni anglashga harakat qiladi, uni yashagan davridagi holatlari va hissiy kechinmalarini aynan bilish uchun mutafakkirning ijodiga murjaat qilish orqali savolga shu yo‘sinda javob izlashga urinadi.

5. Omon Muxtorning “Navoiy va rassom Abulxayr” roman dilogiyasida rassom Abulxayr obrazi ham, Navoiy timsoli ham oq va yorug‘ ranglar bilan beriladi. Bu oqlik, yorug‘lik rassomning ko‘ngli, qalbi, orzulari, maqsadlari kabi yorug‘. Mazkur obraz asardagi asosiy qahramonlar ruhiyatini yoritishda, undagi shodlik va iztiroblarni romantik ifodalashda, asosiy qahramon xarakteridagi muayyan sifatlarni ochib berishda vosita vazifasini bajaradi.

6. Asosiy qahramon tarixiy shaxs yoki to‘qima obrazning ijodkor sifatidagi asliyatini, tafakkur va ruhiyat olamini va uning jamiyat bilan munosabati masalalarini ifodalash barobarida muallifning g‘oyaviy-badiiy niyatini aks ettiradi. Buyuk shaxslarni tipiklashtirish tamoyili asosida yaratilgan Navoiy obrazi ham mutafakkir, siyosat arbob, komil inson sifatida muhim badiiy konsepsiyani ifodalashga xizmat qilgan.

7. “Hayot bo‘stoni” qahramoni bo‘lgan Navoiy ruhiyatidagi evrilish va ma’naviy kechinmalarni xususiy hayoti, turmush tarzi negizida, o‘z atrofidagi muhit xususiyatlari bilan bog‘lagan holda bayon etiladi. Har ikki asarda ham bosh qahramon hayot haqiqatini izlar ekan, bu muammo yechimini diniy e’tiqod, o‘z davri ilm-fani, zamondoshlarining fikr-mulohazalaridan izlaydi. Bu yo‘lda ko‘p marta ikkilanadi, fikridan qaytadi, hayot va turmush masalasiga bir necha tomonlardan yondashishga harakat qiladi.

8. Ijodkor obrazining badiiy adabiyotdagi talqinida muayyan darajada mushtaraklik kuzatilsa-da, milliy mentalitet, sotsiologik va adabiy muhit nuqtai nazaridan bir-biridan farq qiladi. G‘arb adabiy-badiiy tafakkuri mahsulida ijodkor obrazlari asosan o‘z davriga sig‘magan, jamiyatdagi illatlarga isyonkor ruhiyatdagi va asosan, ko‘chalarda darbadarlik bilan juda nochor kun kechiruvchi insonlar sifatida namoyon bo‘ladi. Hayot yo‘lidagi bu qiyinchiliklar ularni shaxs sifatida shakllantirib, iste’dodini charxlab boradi.

9. “Hayot bo‘stoni” asarida ijtimoiy hayotdagi kemptik va va nomukammal o‘rinlarni izlash emas, balki bosh qahramon – Navoiy timsolida mavjud tuzum illatlariga qarshi kurashish, yuksak g‘oyalarni amalga tatbiq etish uchun kurashuvchi siymoning obrazini yaratadi, bunday yuksak ideallarning aksariyati amalga oshmaganligining omillarini badiiy sharhlaydi.

10. Ijodkor xarakterining murakkab va qiziq tabiati mualliflarning badiiy mahorati samarasi o‘laroq o‘zining go‘zal ifodasini topgan. Aksar asarlarda ijodkor obrazi estetik ideal sifatida talqin etilgan va yozuvchining Navoiy fenomeni haqidagi g‘oyaviy-falsafiy qarashlarini ifodalashga xizmat qilgan. Bu o‘rinda Omon Muxtor nasriy bayonda lirikaga murojaat usuli orqali buyuk mutafakkir ruhiy-ma’naviy olamini uning ijodi orqali yoritishga intiladi va buni yaxshigina uddalaydi.

Omon Muxtorning “Navoiy va rassom Abulxayr” roman-dilogiyasi “Oybekdan keyingi ulug‘ Alisher Navoiyning monumental qiyofasini yaratishga intilgan,... ijodiy jasorat”(Y.Solijnov) dir.

11. Bat Lidiya “Hayot bo‘stoni” asarida tarixiy mavzuga keng ko‘lamli, yanada qamrovliroq yondashgan. Yozuvchi muayyan zamon va tarixiy muhitni realistik tasvirlash bilan birga, muayyan davr mahsuli bo‘lgan tarixiy shaxslar obrazlarini ham maydonga chiqargan. Asarni mutolaa qilish jarayonida muallif bilan birga turli tarixiy, ijtimoiy voqea-hodisalarning guvohi bo‘lamiz, ulardan muayyan xulosa chiqarishga urinamiz.

12. Har ikkala asar mualliflari o‘rta asrlardagi muhit va tarixiy shaxs bo‘lgan inson taqdiri muammolarini qalamga olganlar. Adiblarning bu borada tutgan pozitsiyalari ham o‘ziga xos bo‘lib, ular qahramon ma’naviyatini belgilashda, muammolarning g‘oyaviy-estetik yechimida o‘z yo‘llaridan boradilar. Har ikkala asarda qalamga olingan voqealar tizimidan kelib chiqadigan g‘oyaviy xulosa shuki, inson har qanday davr va sharoitda, istalgan muhitda o‘z ma’naviyatini, shaxsiy fazilatlarini saqlab qolishi mumkin. Bu insonning o‘zligiga, “men”iga bog‘liq. Tarixiy shaxs sifatida Navoiy ana shunday nodir shaxs edi. Komil insonligi,

ma'naviyati bilan insoniyatni asrlar osha hayratga solib kelayotgan Navoiy timsoli tadqiq etayotganimiz badiiy talqinlarda teran ifodalangan.

Navoiy obrazini yaratishga qaratilgan har ikkala asarda davr va muhitning odamlar ongi hamda shuuriga ta'siri, qahramonlar ruhiyatidagi evrilishlar, ma'naviy jihatdan o'zgarishlar o'zining badiiy yechimini topgan deyish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek va jahon adabiyotida Navoiy obrazini monografik tadqiq etilishi adabiyotshunoslik ilmi uchun muhim ilmiy ma'lumotlar berishi, shubhasiz. Navoiy fenomenining badiiy talqinlarini qiyosiy o'rganish orqali obraz yaratish tamoyillaridagi yangilanishlar kashf etiladi. Navoiy obrazining tadqiq etilishi ma'naviy-estetik jihatdan ham ahamiyatli bo'lib, o'zlikni anglash bosqichlarida har ikki asar birdek qimmat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat,2008.
2. Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. – T.: O'zbekiston, 2009.

II. Ilmiy adabiyotlar:

3. Aristotel. Poetika. - Toshkent. 1980
4. Adabiyot. Badiyat. Abadiyat. – T. : Yangi asr avlodi, 2004.
5. Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. 2-jild. – T.: Fan, 1979.
6. Aliyev A. Istiqlol va adabiy meros. – T. : O'zbekiston, 1997.
7. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T. : O'zbekiston, 2002.
8. Boltaboyev H. Mumtoz so'z sehri. – T. : Adolat, 2004.
9. Do'stmuhammad X.Ijod-ko'ngil munavvarligi.T.2011
10. Eshonqulov N. Mendan "men" gacha. - Toshkent:Akademnashr,2014.
11. Hamdamov U. Yangilanish ehtiyoji. - Toshkent. "Fan". 2007.
12. Jo'raqulov U. Hududsiz jilva. – T. : Fan, 2006.
13. Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. – T.: Yangi asr avlodi, 2006.
14. Karimov B. Yangilanish sog' inchi. – T. : Adabiyot jamg'armasi, 2004.
15. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. – T. : O'zbekiston, 2008.
16. Mamajonov S. Saylanma. – T.: Adabiyot va san'at, 1981.
17. Mirzayev S. XX asr o'zbek adabiyoti. – T. : Yangi asr avlodi, 2005.
18. Mirqosimova M.,Rustamova M. Janr va mahorat. - T.:O'zbekiston milliy kutubxonasi, 2007.
19. Mustaqillik davri adabiyoti. – T. : Adabiyot va san'at, 2006.
- 20.Muhammadjonova G. Badiiy asar tahlili. - Toshkent."Adabiyot uchqunlari".2018.
21. Nazarov B. Bu sehrli dunyo. – T.: Adabiyot va san'at, 1980.
22. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. – T.: Ma'naviyat, 2000.
23. Normatov U. Ijod sehri. – T.:SHARQ, 2007.

24. Normatov U. Ijodkorning haroratli soʻzi. - T.2015
25. Umurov H. Tahlil sanʼati. – T.: Adabiyot va sanʼat, 1978.
26. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. – T. : SHarq, 2002.
27. Xalizev V.E. Teoriya literatury. Izd. 3. – M.: Vysshaya shkola, 2002.
28. Parandovskiy Yan. Soʻz kimyosi / Jahon adiblari adabiyot haqida. –T. : Maʼnaviyat, 2010.
29. Rasulov A. Tanqid, tahlil, baholash. – T.: Fan, 2006.
30. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. – T.: SHarq, 2007.
31. Rizayev Sh. Maʼnaviyat manzillari. – T. : Adabiyot va sanʼat, 2008.
32. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – T.: 2004.
33. Sodiqov S. Ijodning oʻttiz lahzasi. – T. : SHarq, 2005.
34. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – T.: Oʻqituvchi, 2005.
35. Sulton I. Navoiyning qalb daftari. - T. 1976.
36. Solijonov Y. Nutq va uslub. - T.2002.
37. Solijonov Y. Haqiqatning sinchkov koʻzlari. - Toshkent. 2009
38. Said Ahmad sanʼati. (Xotiralar majmuasi) - Toshkent. 2010.
39. Toʻrayev D. Davr va ijod masʼuliyati. – T. : Yangi asr avlodi. 2004.
40. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – T.: SHarq, 2004.
41. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.: Fan, 2007.
42. Quronov D. Mutolaa va idrok mashqlari. – T.: Akademnashr, 2013.
43. Quronov D. va b. Adabiyotshunoslik lugʻati. - Toshkent. 2010
44. Quronov D., Rahmonov B. Gʻarb adabiy-tanqidiy tafakkuri tarixi ocherklari. - Toshkent. “Fan”. 2008.
45. Qoʻshjonov M. Ilm va ijod olamida. - T. 1980.
46. Hamdamov U. Yangilanish ehtiyoji. – T.: Fan, 2007.

III. Badiiy adabiyotlar:

47. Bat Lidiya. Hayot boʻstoni. - Toshkent. 1968.
48. Muxtorov O. ”Navoiy varassom Abulxayr”. - T.2006.

29. Oybek. Navoiy “Sharq”, - T. 2012.

IV. Internet ma’lumotnomalar:

53. <http://www.ziyouz.com/>.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

Fakultet: *filologiya* Magistrant: *Yusupova Madinaxon Egamberdi qizi*
Kafedra: *o‘zbek tili va adabiyoti* Ilmiy rahbar: *Muhammadjonova Go‘zalxon*
O‘quv yili: *2018-2019* Mutaxassisligi: *Adabiyotshunoslik (o‘zbek adabiyoti)*

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI ANNOTATSIYASI

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillik mafkurasidan kelib chiqib, Omon Muxtorning “Navoiy va rassom Abulxayr” roman-dilogiyasi, taniqli rus adibasi Lidiya Batning “Hayot bo‘stoni” asarlaridagi Alisher Navoiy obrazini qiyosiy o‘rganish orqali tarixiy shaxs taqdiri mavzusi va ulardagi qahramon ma’naviyati masalalarini yangi davr, bugungi kun nuqtai nazaridan tahlil va tadqiq etish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. O‘zbek va jahon adabiyotida Navoiy obrazi talqinini rus adibasi Lidiya Batning “Hayot bo‘stoni” qissasi hamda Omon Muxtorning “Navoiy va rassom Abulxayr” roman-dilogiyasi misolida chuqurroq o‘rganish. Bu ikki asarda keltirilgan Navoiy obrazini qiyoslash orqali tarixiy shaxs xususiyatlarini yoritish. Har ikki adibning obraz yaratishdagi o‘ziga xosliklarini ko‘rsatib berish.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Dissertatsiya obyekti bo‘lgan badiiy adabiyotda Navoiy obrazi mavzusi va qahramon ma’naviyati muammolari ham bugungi kunda adabiyotimizda atroflicha ishlanib, yangi-yangi qirralari, o‘ziga xos xususiyatlari bilan namoyon bo‘lib bormoqda.

Omon Muxtorning “Navoiy va rassom Abulxayr” roman-dilogiyasi va Lidiya Batning “Hayot bo‘stoni” povesti ushbu ilmiy tadqiqotimizning obyekti bo‘lib xizmat qildi.

Tadqiqotning metodologik asoslari. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tipologik, psixologik, sotsiologik, badiiy-tahliliy, tavsiflash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: Dissertatsiyada badiiy adabiyotdagi Navoiy obrazi talqinlari ilk bor o‘zbek va jahon adabiyoti namunalari misolida monografik tadqiq etildi. Navoiy obrazi milliy mentalitet, sotsiologik va adabiy muhit, muayyan tarixiy sharoit nuqtai nazaridan o‘rganildi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Omon Muxtor hamda Lidiya Batning uslubi, dunyoqarashi, munosabati, pozitsiyasi, turlichaligidan qat’iy nazar, ular qalamga olayotgan voqelik markazida Alisher Navoiy timsolida inson shaxsi va uning xarakteri, ma’naviyati, ruhiy olami turadi. Garchi har bir yozuvchi syujet va kompozitsiya tanlashda

o'ziga xos usul qo'llasada, tarixiy shaxs obrazi va xarakter yaratishda, voqealar rivoji, muammolar tadqiqida muayyan muhit vakili bo'lgan qahramonning taqdiridan ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-falsafiy xulosalar va yechimlar topishga harakat qiladilar. Ushbu tadqiqotda muayyan muhit va davrning kishilar maishiy turmushiga, shaxs va muhit munosabatlarining qahramon xarakteri va ma'naviy olamiga ta'sirining ilmiy tahlil etilishi ishning nazariy ahamiyatini belgilaydi.

Ishning tuzilishi va tarkibi. Dissertatsiya kirish, uch bob, olti fasldan iborat, asosiy qism, umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi

Bajarilgan ishning asosiy natijalari: Magistrlik dissertatsiyasining asosiy mazmuni muallif tomonidan 1 ta Respublika OAK tasarrufiga kiritilgan ilmiy jurnalda chop etilgan maqola, 6 ta ilmiy maqola va tezislarda o'z ifodasini topgan.

Xulosa va takliflarning qisqacha umumlashtirilgan ifodasi. Badiiy nutq, ohang, uslub muammolairni badiiy matn va jonli misollar yordamida tadqiq etish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Ilmiy rahbar:

G.Muhammadjonova

Magistrant:

M.Yusupova

